

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



NAMANGAN
MUHANDISLIK-QURILISH
INSTITUTI

“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT”
KAFEDRASI

Ikromiddin Sirojiddinov

KAPITAL QURILISH IQTISODIYOTI
fani bo‘yicha

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Ma’ruza mashg‘uloti uchun



Namangan - 2024

I.Q.Sirojiddinov «Kapital qurilish iqtisodiyoti» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Ma'ruza mashg'uloti uchun. – Namangan: NamMQI, 2024 yil, 218 bet.

Taqrizchilar:

B. Mullaboyev – NamMQI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasini mudiri

M. Isakov – NamMQI “Iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti



NamMQI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasining 2024-yil 26-iyundagi 11-sonli majlisida muhokama qilingan.

O'quv-uslubiy majmua Namangan muhandislik-qurilish instituti O'quv uslubiy Kengashining 2024-yil 3-iyuldagi 1004-sonli qaroriga muvofiq o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.



© Namangan, 2024 yil

O'QUV-USLUBIY MAJMUANING TARKIBIY TUZILISHI

(ma'ruza mashg'uloti uchun)

№	Majmuaning tarkibiy qismlari	betlar
	Majmuaning qisqacha annotatsiyasi.....	5
	I. Fanning me'yoriy-uslubiy ta'minoti.....	6
1.	O'quv dasturi.....	6
2.	O'quv kursi prospekti.....	15
3.	Ma'ruza mashg'ulotlari rejasi.....	26
	II. Fanning mazmuni va axborot-resurs ta'minoti.....	33
1.	Mavzular bo'yicha matn annotatsiyasi va oxirgi yangiliklar (<i>Mavzuga oid adabiyotlar, jurnallar va internet tarmog'idan olingan tarqatma materiallar, maqolalar</i>).....	33
2.	Mavzular bo'yicha taqdimot slaydlari va video roliklar.....	127
	III Fanni o'qitishning interaktiv texnologiyalari.....	204
1.	Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar sharhi.....	204
2.	Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar.....	212
3.	Glossariylar.....	214
4.	Tavsiya etiladigan elektron jurnallar va internet saytlar.....	225

MAJMUANING QISQACHA ANNOTATSIYASI

O'quv-uslubiy majmua – Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bakalavriat va magistratura ta'lim bosqichlarining O'quv rejalarida aks etgan fanlar bo'yicha professor-o'qituvchining dars jarayoniga o'quv-uslubiy tayyorligini tasdiqlovchi eng muhim mezon, me'yoriy-uslubiy hujjatdir.

Majmuaning asosiy maqsadi – avvalombor fanning o'qituvchisi, xuddi shuningdek talaba uchun, fanni har tomonlama sermazmun, chuqur nazariy, uslubiy va amaliy tarzda yetkazish (talaba uchun – o'zlashtirish) uchun yagona o'quv-uslubiy va axborot-resurs manbaini yaratish hisoblanadi.

O'quv-uslubiy majmua Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, u jumladan quyidagi tarkibiy tuzilishga ega:

- *fanning me'yoriy-uslubiy ta'minoti,*
- *fanning mazmuni va axborot-resurs ta'minoti,*
- *fanni o'qitishning interaktiv texnologiyalari,*
- *talabalarining bilimni baholash uslubiyoti,*
- *qo'shimcha elektron ta'lim resurslarini o'z ichiga olgan.*

Ilg'or xorijiy tajriba bilan uzviylik.

Mazkur majmua ilg'or xorijiy tajribani keng o'rganish, umumlashtirish va undan ta'lim va tadqiqotlar jarayonida samarali foydalanish mahsulidir.

Ta'lim va tadqiqotlarning mazkur axborot-resurs manbaini ishlab chiqishda Dankin Universiteti, Massachusetts Texnologiya instituti va Nyu-York Davlat Universiteti (AQSH), Oksford Universiteti, Bat Universiteti va London Metropoliiten Universiteti (Buyuk Britaniya), Bremerxafen Universiteti (Germaniya), Vaseda Universiteti (Yaponiya), Kemyong Universiteti (Koreya Respublikasi), Shanxay Universiteti (XXR) va boshqa yetakchi xorijiy universitetlar boy ijobiy tajribasidan samarali foydalanildi.

Majmuani takomillashtirish masalalari

Elektron o'quv-uslubiy majmua o'quv yili mobaynida xalqaro va milliy iqtisodiyot tizimidagi o'zgarishlar va tendensiyalar, yangi qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlarni, xorijda va respublikada chop etilgan yangi o'quv va ilmiy adabiyotlarni, fan-texnika va texnologiya borasida erishilgan yangi yutuqlarni hisobga olgan holda muntazam takomillashtirilib boriladi.

“Kapital qurilish iqtisodiyoti” fani o'z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- ***birinchidan***, kapital qurilishni milliy iqtisodiyot va jamiyat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishdagi tutgan o'rnini yoritish;
- ***ikkinchidan***, kapital qurilishni boshqarishning zamonaviy tizimini va investision-qurilish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini o'rganish;
- ***uchinchidan***, investisiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha iqtisodiy hisoblar olib borish uslublarini egallash;
- ***to'rtinchidan***, qurilish industriyasi resurs potensialini o'rganish;
- ***beshinchidan***, qurilishda bahoni va uning foyda, rentabellik va qurilish ishlab chiqarishining boshqa tomonlariga ta'sirini o'rganadi.

O‘QUV DASTURI

KIRISH

Mamlakatimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha tanlagan strategiyamiz va Inqirozga qarshi qabul qilgan dasturimizni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta mamnuniyat va iftixor bag'ishlaydi, albatta.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettiriladi.

Davlat va xo'jalik sub'yektlari miqyosida amalga oshirilayotgan investisiya siyosatini, uning ustuvor yo'nalishlarini yaxshi tushunish, kapitalni yangi qurilishga sarflash variantlarini, amaldagi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va rekonstruksiya qilishni, fan-texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlari asosidagi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishni bilish bugungi kundagi mutaxassislar uchun juda muhimdir.

Ushbu dastur "Kapital qurilish iqtisodiyoti" fani mamlakat kapital qurilish iqtisodiyotining nazariy va amaliy masalalarini o'rganish va uni mo'tadil rivojlantirishning yechimlarini topishda hamda "iqtisodiyot" ta'lim yo'nalishi mutaxassislarining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Ushbu fanning yutuq va xulosalaridan mamlakat sanoat korxonalarini rivojlantirishning qisqa va uzoq muddatlarga belgilangan dasturlarini ishlab chiqishda keng foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida sanoat ishlab chiqarishning ulushi yuqori bo'lganligi sababli fanning ahamiyati va uni o'rganish zarurati katta.

Fanning maqsadi va vazifalari

Fanni o'rganishdan asosiy maqsad - talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital qurilish iqtisodiyotini davlat investisiya siyosati va qurilishda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish vazifalari bilan bog'lagan holda yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.

Fanni o'rganishning asosiy vazifalari:

- kapital qurilishni milliy iqtisodiyot va jamiyat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishdagi tutgan o'rnini yoritish;
- kapital qurilishni boshqarishning zamonaviy tizimini va investision-qurilish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini o'rganish;
- investisiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha iqtisodiy hisoblar olib borish uslublarini egallash;
- qurilish industriyasi resurs potensialini o'rganish;
- qurilishda bahoni va uning foyda, rentabellik va qurilish ishlab chiqarishining boshqa tomonlariga ta'sirini o'rganish.

Fan bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

«Kapital qurilish iqtisodiyoti» fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- tarmoq va milliy iqtisodiyot rivojlanishning zamonaviy yo'nalishlari va qonuniyatlari hamda ularni bozor munosabatiga o'tkazish tamoyillari;
- investisiya loyihalari va ularning iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishdagi o'rne;
- investisiya loyihalarini va qurilish ishlab chiqarishini amalga oshirishdagi ishtirokchilar va ularning majburiyatlari;

- kapital qurilish va qurilish montaj ishlarini olib borish uslublarining hamda tayyor qurilish mahsuloti uchun amalga oshiriladigan to'lovlarning o'ziga xos tomonlari **haqida tasavvurga ega bo'lishi**;

- kapital qurilishni tashkil etish va qurilish tashkilotlarining bir maromda ishlashida loyiha-smeta ishining ahamiyatini;

- qurilishda bahoni shakllantirish va pudrat hamda unga tenglashtirilgan tashkilotlarning samarali ishlashi bo'yicha davlat tomonidan qo'llab quvvatlash mexanizmlarini;

- qurilish industriyasi xodimlar potensialini shakllantirishning xususiyatlarini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

- moddiy ishlab chiqarish sohasi sifatidagi qurilishning ixtisoslashuvi hamda uning ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish funksiyalarini amalga oshirish;

- qurilishning boshqa tarmoqlar bilan aloqasini hamda ushbu aloqalarning iqtisodiyot va kapital qurilishning ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash;

- kapital qurilishning tashkiliy tuzilmasi va boshqarish tizimini tashkil etish;

- investisiyalash va qurilish sohasidagi davlatning zamonaviy siyosatini olib borish;

- kapital qurilish va iqtisodiyotni boshqarishning turli bosqichlarida investisiya siyosatini amalga oshirish sohasida amal qiluvchi qonun va huquqiy hujjatlarni amalda qo'llash;

- rejalashtirish va turli investisiyaviy xolatlarni baholash hamda tahlil qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**;

- qurilish ob'yektlarining turli variantlari va investisiya qo'yilmalarini baholash bilan bog'liq masalalarni hal etish; qurilish industriyasi korxona va tashkilotlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan hamda resurslardan oqilona foydalanish;

- xarajatlarni kamaytirish va qurilish ishlab chiqarishining rentabelligini oshirish masalalarini hal etish;

- qurilish ishlab chiqarishining turli zaxiralarini izlash va ulardan foydalanish bo'yicha vazifalarni yechish;

- kapital qurilishning turli xil ko'rsatkichlarini tahlil qilish va baholash **malakalariga ega bo'lishi kerak**.

Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

«Kapital qurilish iqtisodiyoti» fani asosiy tarmoq va soha fani hisoblanib, 7 semestrida o'qitiladi.

Bu dasturni amalda bajarish uchun talabalar "Iqtisodiyot nazariyasi", "Statistika", "Mikroiqtisodiyot", "Marketing", "Menejment", "Biznes rejalashtirish", "Korxona iqtisodiyoti", "Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish", "Sanoat mahsuloti sifati va raqobatbardoshligi" fanlaridan yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari lozim.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Qurilish - asosiy moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biridir. U milliy iqtisodiyotda uchinchi (sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin) o'rinda turadi. Qurilishning mahsuloti - barcha turdagi ishlar bo'yicha tugallangan va ishga tushirishga tayyor bo'lgan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlari, shuningdek, amaldagi korxonalarning kengaytirilishi va qayta ta'mirlanishi, ularda ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlanishidir. Uy-joy muammolarining yechimi batamom qurilish zimmasiga yuklatiladi.

Har yili respublika bo'yicha kiritilayotgan jami investisiyalarning qariyb oltmish foizga yaqini kapital qurilish sohasi orqali o'tadi.

Shuning uchun ushbu fan ixtisoslik fani hisoblanib ishlab chiqarish texnologik tizimining ajralmas bo'g'inidir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning "Kapital qurilish iqtisodiyoti" fanini o'zlashtirishlari uchun ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar va maketlardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va laboratoriya darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan hamda o'quv-uslubiy majmualardan foydalaniladi.

ASOSIY QISM

Fan bo'yicha ma'ruza mavzulari va ularning mazmuni

1-Mavzu. Qurilish - milliy iqtisodiyotning muhim tarmog'i

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning asarlaridan kelib chiqqan holda fanning vazifalari. Milliy iqtisodiyotni tovar ishlab chiqarishga yo'naltirishda qurilishning tutgan o'рни va ahamiyati. Milliy iqtisodiyotning mustaqil tarmog'i sifatida qurilishning shakllanishi va texnik-iqtisodiy xususiyatlari.

Qurilish va harakatdagi korxonalarni rekonstruksiya kilishning hozirgi ahvoli va rivojlanish istiqbollari. Qurilish mahsuloti va uning iqtisodiy ahamiyati. Qurilish mahsulotning tayyorlik bosqichlari. Qurilayotgan bino va inshootlar sifatini oshirish muammolari. Xorijiy mamlakatlardagi qurilishning ilg'or tajribalari va uning milliy qurilish amaliyotida qo'llanishi. Qurilishning moddiy-texnikaviy asosi va uni joylashtirish. Qurilishning tarmoqlararo aloqalari. Qurilish moddiy-texnikaviy bazasini ilgari lab boruvchi rivojlanishining ahamiyati va istiqbollari.

2-Mavzu. Bozor va qurilish iqtisodini isloh qilish muammolari

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy tamoyillari, ularning ahamiyati va kapital qurilish sohasida qo'llanishi. Qurilishda bozor mexanizmining asosiy elementlari. Qurilish mahsulotining "sotuvchi"si va "xaridori". Qurilish sohasini isloh qilishning huquqiy, me'yoriy asosi. Qurilishni kontrakt asosida tashkil etish va ob'yektlarni "kalitgacha" tayyorlik darajasida qurish, qurilishda shartnoma baholarini aniqlash tartibi. Qurilish sohasida korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishning o'ziga xos xususiyatlari va bu jarayonni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning qurilish iqtisodi islohotlaridagi o'рни, ahamiyati. Qurilishda tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va imkoniyatlari. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida qurilishda tadbirkorlikni rivojlantirishda banklar, soliq va boshqa moliyaviy muassasalarning o'рни, ahamiyati.

3-Mavzu. Investisiya siyosati, investisiyaviy loyihalar va iqtisodiyotni modernizatsiyalash

Investisiyalar, investisiyaviy dasturlar va loyihalar. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy investisiya siyosatining o'ziga xos tomonlari va iqtisodiyotdagi

tuzilmaviy o'zgarishlarga ularning ta'siri. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida investisiya siyosati va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi ustuvor yo'nalishlar. Investisiyalarning tarkibi, tuzilmasi va zamonaviy yo'nalishlari. Investisiyaviy dastur va loyihalarni amalga oshirish mexanizmlari. Investisiyalar, investision faoliyat va xorijiy investisiyalarni jalb qilish bo'yicha qonun xujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari. Harakatdagi korxonalarni kengaytirish va rekonstruksiya qilishga yo'naltirilgan milliy va xorijiy investisiyalar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari. Turar joy qurilishini rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan belgilangan chora-tadbirlar va bosh investor sifatidagi aholining o'rni.

4-Mavzu. Investisiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash uslubi

Investisiyalar iqtisodiy samaradorligini baholashning ilmiy, amaliy ahamiyati va tamoyillari. Investisiyaviy taklif va investisiyaviy loyiha miqyoslari (ko'lami). Investisiyaviy loyihalarni tanlash va baholash tartibi. Investisiyalarni tijorat, byudjet va iqtisodiy samaradorligi. Inflyasiyani baholash. Diskontlash stavkasi. Diskontlash koeffitsiyenti. Real investisiyalar samaradorligini baholash tamoyillari. Sof keltirilgan (diskontlangan) daromad. Daromadlilik indeksi. Ichki daromadlilik normasi. Xarajatlarning qoplanish davri. Loyihalar samaradorligining tavakkalchilik xavfi va noaniqliklarni hisobga olgan holda baholashning o'ziga xos tomonlari. Loyihaning ijtimoiy oqibatlarini baholash va o'lchash. Investisiyaviy loyihalarni baholashda foydalaniladigan dasturlar paketi.

5-Mavzu. Qurilishni boshqarishning zamonaviy tizimi

Tarmoq va milliy iqtisodiyotning boshqarishning mazmuni, ahamiyati va tamoyillari. Qurilishda boshqaruvning xususiyatlari va tamoyillari. O'zbekistonda qurilishni boshqarishdagi muhim organlar (idoralar). Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari. O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari.

Davlat ekspertizasi hududiy boshqarmasi. Hududiy arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi. Kapital qurilishni boshqarish tizimida qurilish industriyasi korxona va tashkilotlarining o'rni va roli. Qurilish industriyasi tashkilot va korxonalarining turlari. Bosh pudratchi, subpudratchi va buyurtmachi tashkilotlarning funksiyalari va o'zaro aloqalari. Qurilish industriyasi korxonalari va pudratchi tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari va imkoniyatlari.

6-Mavzu. Qurilishda fan-texnika taraqqiyoti va uning iqtisodiy samaradorligi

Fan-texnika taraqqiyoti qurilish va jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida. Qurilishda fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari va mazmuni. Jamiyat fan-texnika taraqqiyotida qurilishning o'rni va ta'siri. Qurilish ishlab chiqarishda fan-texnika taraqqiyotini ta'minlovchi tarmoqlar. Yangi qurilish materiallari va konstruksiyalari va ularning qurilishdagi texnika taraqqiyotidagi o'rni. Yangi materiallar va konstruksiyalarni qo'llash sohasini kengaytirish. Qurilishni zamonaviy mashina va mexanizmlar bilan jihozlash, fan-texnika taraqqiyotining omili va natijasi sifatida. Qurilish ishlab chiqarishini texnikaviy jihozlanganlik ko'rsatkichlari. Qurilishda ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish va qo'l mehnatini qisqartirish. Qurilishni mexanizatsiyalash va yangi texnikani yaratish sohasida xorijiy davlatlar tajribasi. Progressiv texnologiyalarni qo'llash va nuqtaviy, kompleks blokni hamda potok uslublarida qurilishni tashkil etish. Fan-texnika taraqqiyotining zamonaviy yutuqlaridan foydalanish sohasida qurilish-montaj tashkilotlarining faoliyati. Qurilishda

yangi texnikani joriy kilishning iqtisodiy samaradorligi, uning ko'rsatkichlari va aniqlash uslublari.

7-Mavzu. Qurilish faoliyatini rejalashtirish asoslari

Rejalashtirish - qurilish ishlab chiqarishini boshqarishdagi muhim bo'g'in sifatida. Bozor munosabatlari sharoitida qurilishni rejalashtirishning xususiyatlari, tamoyillari va uslublari. Qurilish dasturlari va qarorlarini tayyorlashda bevosita yoki bilvosita ishtiroq etuvchi davlat idoralari, korxonalar va xo'jaliklarning tarkibi va xarakteristikalar. Kapital qurilish rejalarini ishlab chiqishda mahalliy idoralarning o'rni. Pudrat tashkilotlari - qurilish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda bosh "figura" sifatida. Qurilish-montaj tashkilotining ishlab chiqarish rejasi, uning bo'limlari va ko'rsatkichlari. Ushbu rejani ishlab chiqish uslubi va uning zaxira imkoniyatlari bilan bog'liqligi. Qurilish ishlab chiqarish rejalarida tadbirkorlik faoliyatini aks ettirilishi.

8-Mavzu. Qurilish industriyasining ishlab chiqarish va resurs potentsiali va undan oqilona foydalanish yo'llari

Qurilishning ishlab chiqarish potentsiali va resurslari, qurilish industriyasi korxona va tashkilotlari faoliyatidagi ularning ahamiyati va tarkibi. Ishlab chiqarish potentsiali va resurslarining farq qiluvchi xususiyatlari. Asosiy fondlar qurilish tarmog'ining ishlab chiqarish va resurs potentsiali muhim qismi sifatida. Asosiy fondlarning mohiyati, tarkibi va vazifalari. Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari va uni baholash. Asosiy fondlarning qurilish industriyasi korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish quvvatlari bilan bog'likligi.

Qurilish-montaj tashkilotlari ishlab chiqarish quvvatini hisoblash uslubi. Kapital qurilishda ijara va lizing xizmatlari tizimini joriy etish. Qurilishning aylanma mablag'lari va aylanma fondlari. Aylanma fondlar tizimi va tarkibi. Xususiy va qarz aylanma mablag'lar. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari.

9-Mavzu. Qurilishda bahoni shakllantirish, foyda va rentabellik

Qurilishda qiymatni paydo bo'lishi mexanizmning asosi. Smeta qiymati - qurilish mahsuloti bahosining tasviri sifatida. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qurilishda smeta qiymatini shakllantirishning xususiyatlari. Smeta bo'yicha tannarx. Rejadagi tannarx. Haqiqiy tannarx. Foyda va rentabellik, ularning o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligi. Qurilish-montaj tashkiloti daromadi. Foydani tashkil qiluvchi asosiy manbalar va omillar. Rentabellik-qurilish industriyasi korxonalari va qurilish-montaj tashkilotlari ishi samaradorligini umumlovchi ko'rsatkich sifatida. Smeta bo'yicha rentabellik darajasi. Rejadagi rentabellik darajasi. Haqiqiy rentabellik.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy mavzulari

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar qurilish korxonalarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblash asosida tahlil qilib natijalar o'rganiladi.

1. Qurilish - milliy iqtisodiyotning muhim tarmog'i
2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilish iqtisodini isloh qilish muammolari
3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investisiya siyosati, investisiyaviy loyihalar va iqtisodiyotni modernizatsiyalash
4. Investisiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash uslubi
5. Qurilishni boshqarishning zamonaviy tizimi
6. Qurilishda fan-texnika taraqqiyoti va uning iqtisodiy samaradorligi

7. Qurilish faoliyatini rejalashtirish asoslari
8. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilish industriyasining ishlab chiqarish va resurs potentsiali va undan oqilona foydalanish yo'llari
9. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida qurilishda bahoni shakllantirish, foyda va rentabellik

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Fan bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejada rejalashtirilmagan

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- keys-stadilar va o'quv loyihalarini mustaqil bajara olish;
- talabalarning o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distsion) ta'lim.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi - o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat, taqdimot) tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanning bo'lim yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarning o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanning bo'lim va mavzularini chuqur o'rganish;
- keys-stadilar va o'quv loyihalarini mustaqil bajara olish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish;
- ilmiy maqola, tezislari, turli ilmiy anjumanlarga ma'ruza tayyorlash va h.k.

Mustaqil ishni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqiladi. Unda talabalarga asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha amaliy topshiriq, keys-stadilar yechish uslubi va mustaqil ishlash uchun vazifalar belgilanadi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning ro'yxati

1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pudrat ishlari bozorining mohiyati, zarurati va shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.
2. Ob'yektlar qurilishiga buyurtmalarni tanlov (tender) asosida joylashtirish tizimi-qurilish kompleksini faoliyati samaradorligining muhim yo'nalishi.
3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investisiya siyosati va milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari.

4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilish kompleksi sohasida tadbirkorlik faoliyatining xususiyatlari.
5. Qurilishda shartnoma munosabatlarining tartibi va mazmuni.
6. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida qurilishda bahoni shakllantirish mexanizmini takomillashtirish.
7. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida qurilish ishlab chiqarishida istiqbolli qurilish materiallarini tadbiq etish va takomillashtirish yo‘nalishlari.
8. Qurilishda vaqt omili.
9. Qurilishda mehnatga haq to‘lashning xususiyatlari.
10. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilishda ishlab chiqarish potensialidan foydalanish muammolari va ularni yaxshilash yo‘llari.
11. Qurilish industriyasi kadrlar potentsiali va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida uni shakllantirish muammolari.

Dasturning axborot-uslubiy ta‘minoti

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta‘limning zamonaviy ilg‘or interfaol usullaridan, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining prezentatsiya (taqdimot), multimedia va elektro-didaktik texnologiyalardan foydalaniladi. Amaliy mashg‘ulotlarda aqliy hujum, klaster, blis-so‘rov, guruh bilan ishlash, insert, taqdimot, keys-stadi kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Fantina Rangelova. Fundamentals of economics in sustainable construction. ISBN 978-954-92642-5-8 Publisher: Bultest Standard Ltd, 2015.
2. Grafova G.F., Guskov S.V. Ekonomicheskaya osenka investitsiy: Uchebnoye posobiye. Uchebnoye posobiye. – M.: «Dashkov i K°», 2008. – 183 str.
3. Isakov M.Yu. «Kapital qurilish iqtisodiyoti» fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua – T.: TDIU, 2007 – 160 bet.
4. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstva. Uchebnoye posobiye.–T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyuzu pisateley Uzbekistana, 2004, - 128 bet.
5. Neshitoy A.S. Investisii: Uchebnik. – 4-ye izd., pererab. i dop. Uchebnoye posobiye. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2006. – 376 str.
6. Stepanova I.S. Ekonomika stroitelstva. Uchebnik / pod obmyey red. - 3-ye izd., dop. i pererab. Uchebnoye posobiye. - M.: Yurayt-Izdat, 2008. – 620 str.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Raqobat to‘g‘risida»gi Qonuni. www.lex.uz
2. Isakov M.Yu. «Kapital qurilish iqtisodiyoti» fani bo‘yicha ta‘lim texnologiyasi / «Iqtisodiy ta‘limda o‘qitish texnologiyasi» seriyasidan. -T.: TDIU, 2007 – 160 bet.
3. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004, - 208 bet.
4. Rostova Yu.I. i dr. Ekonomika organizatsiy (predpriyatiy) v sxemax. Uchebnoye posobiye.– M.: 2009. – 240 str.

Internet saytlari

1. www.economics.ru
2. www.ved.ru
3. www.ser.uz
4. www.uza.uz
4. www.ifmr.uz
5. www.lex.uz
6. www.ziyonet.uz
7. www.marketing.ru
8. www.brand.uz

O‘QUV KURSINING PROSPEKTI

O'QUV KURSINING PROSPEKTI

(2023/2024-o'quv yili)

O'quv kursining to'liq nomi:	KAPITAL QURILISH IQTISODIYOTI		
Kursning qisqacha nomi:	KQI	Kod: KQI	
Kafedra:	Sanoat iqtisodiyoti		
O'qituvchi haqida ma'lumot:	prof. Ikromiddin Sirojiddinov	sirojiddin.ikromiddin@gmail.com	
Semestr va o'quv kursining davomiyligi	7-semestr, 19 hafta		
O'quv soatlari xajmi:	jami:	137	
	shuningdek:		
	ma'ruza	38	
	seminar		
	amaliy	38	
	mustaqil ta'lim	61	
Yo'nalish nomi va shifri	6030100	- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	
O'quv kursining statusi	Asosiy o'quv kursi		
Dastlabki tayyorgarlik:	Kurs "Iqtisodiyot nazariyasi", "Makroiqtisodiyot", "Mikroiqtisodiyot", "Statistika", "Korxona iqtisodiyoti" fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlarga asoslanadi.		
Kursning predmeti va mazmuni: Kursning predmeti bozor munosabatlari sharoitlarida qurilish korxonalari faoliyatining nazariy va amaliy asoslarini, qurilish ishlab chiqarishi sohasida iqtisodiy qonuniyatlarning namoyon bo'lishini, shuningdek, ularning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati samaradorligini reurslardan oqilona foydalanish, rasional boshqaruv, investision va tadbirkorlik faolligi asosida oshirish yo'llarini o'rganishdan iborat. Kurs qurilish industriyasi korxonalari iqtisodiyotining mohiyati haqidagi tasavvurlarni shakllantirish maqsadida quyidagi: investisiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha iqtisodiy hisoblar olib borish; qurilish industriyasi resurs potensialini oshirish; qurilishda bahoni va uning foyda, rentabellik va qurilish ishlab chiqarishining boshqa tomonlariga ta'siri kabi muammo va masalalarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirishning nazariy hamda amaliy tomonlarini o'rganishga yo'naltirilgan.			
Kursni o'qitishning maqsadi va vazifalari: Kursni o'rganishdan asosiy maqsad - talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital qurilish iqtisodiyotini davlat investisiya siyosati va qurilishda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish vazifalari bilan bog'lagan holda yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir. Kursni o'rganishning asosiy vazifalari: kapital qurilishni milliy iqtisodiyot va jamiyat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishdagi tutgan o'rnini yoritish; kapital qurilishni boshqarishning zamonaviy tizimini va investision-qurilish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini o'rganish; investisiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha iqtisodiy hisoblar olib borish uslublarini egallash; qurilish industriyasi resurs potensialini o'rganish; qurilishda bahoni va uning foyda, rentabellik va qurilish ishlab chiqarishining boshqa tomonlariga ta'sirini o'rganish. «Kapital qurilish iqtisodiyoti» fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr: tarmoq va milliy iqtisodiyot rivojlanishning zamonaviy yo'nalishlari va qonuniyatlari hamda ularni bozor munosabatiga o'tkazish tamoyillari; investisiya loyihalari va ularning iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishdagi o'rni; investisiya loyihalarini va qurilish ishlab chiqarishini amalga oshirishdagi ishtirokchilar va ularning			

majburiyatlari; kapital qurilish va qurilish montaj ishlarini olib borish uslublarining hamda tayyor qurilish mahsuloti uchun amalga oshiriladigan to'lovlarning o'ziga xos tomonlari haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;

kapital qurilishni tashkil etish va qurilish tashkilotlarining bir maromda ishlashida loyiha-smeta ishining ahamiyatini; qurilishda bahoni shakllantirish va pudrat hamda unga tenglashtirilgan tashkilotlarning samarali ishlashi bo'yicha davlat tomonidan qo'llab quvvatlash mexanizmlarini; qurilish industriyasi xodimlar potensialini shakllantirishning xususiyatlarini bilishi va ulardan foydalana olishi; moddiy ishlab chiqarish sohasi sifatidagi qurilishning ixtisoslashuvi hamda uning ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish funksiyalarini amalga oshirish; qurilishning boshqa tarmoqlar bilan aloqasini hamda ushbu aloqalarning iqtisodiyot va kapital qurilishning ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash; kapital qurilishning tashkiliy tuzilmasi va boshqarish tizimini tashkil etish; investisiyalash va qurilish sohasidagi davlatning zamonaviy siyosatini olib borish; kapital qurilish va iqtisodiyotni boshqarishning turli bosqichlarida investisiya siyosatini amalga oshirish sohasida amal qiluvchi qonun va huquqiy hujjatlarni amalga qo'llash; rejalashtirish va turli investisiyaviy xolatlarni baholash hamda tahlil qilish *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;

qurilish ob'yektlarining turli variantlari va investisiya qo'yilmalarini baholash bilan bog'liq masalalarni hal etish; qurilish industriyasi korxona va tashkilotlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan hamda resurslardan oqilona foydalanish; xarajatlarni kamaytirish va qurilish ishlab chiqarishining rentabelligini oshirish masalalarini hal etish; qurilish ishlab chiqarishining turli zaxiralarini izlash va ulardan foydalanish bo'yicha vazifalarni yechish; kapital qurilishning turli xil ko'rsatkichlarini tahlil qilish va baholash *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

Kursning tematik tarkibi va mazmuni

	Mavzular	Ma'ruza	Amaliy (seminar)	Mustaqil ish
1.	Qurilish – milliy iqtisodiyotning muxim tarmog'i	4	4	5
2.	Bozor va qurilish iqtisodini isloh qilish muammolari	4	4	7
3.	Investisiya siyosati, investisiyaviy loyixalar va iqtisodiyotni modernizatsiyalash	4	4	7
4.	Investisiyalar iqtisodiy samaradorligini baxolash uslublari	4	4	7
5.	Kurilishni boshqarishning zamonaviy tizimi	4	4	7
6.	Qurilishda fan-texnika taraqqiyoti va uning iqtisodiy samaradorligi	4	4	7
7.	Qurilish faoliyatini rejalashtirish asoslari.	4	4	7
8.	Qurilish industriyasining ishlab chiqarish va resurs potentsiali va undan okilona foydalanish yullari	4	4	7
9.	Qurilishda bahoni shakllantirish, foyda va rentabellik	6	6	7
Jami		38	38	61

1-Mavzu. Qurilish - milliy iqtisodiyotning muhim tarmog'i. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning asarlaridan kelib chiqqan holda fanning vazifalari. Milliy iqtisodiyotni

tovar ishlab chiqarishga yo‘naltirishda qurilishning tutgan o‘rni va ahamiyati. Milliy iqtisodiyotning mustaqil tarmog‘i sifatida qurilishning shakllanishi va texnik-iqtisodiy xususiyatlari. Qurilish va harakatdagi korxonalarni rekonstruksiya qilishning hozirgi ahvoli va rivojlanish istiqbollari. Qurilish mahsuloti va uning iqtisodiy ahamiyati. Qurilish mahsulotning tayyorlik bosqichlari. Qurilayotgan bino va inshootlar sifatini oshirish muammolari. Xorijiy mamlakatlardagi qurilishning ilg‘or tajribalari va uning milliy qurilish amaliyotida qo‘llanishi. Qurilishning moddiy-texnikaviy asosi va uni joylashtirish. Qurilishning tarmoqlararo aloqalari. Qurilish moddiy-texnikaviy bazasini ilgarilab boruvchi rivojlanishining ahamiyati va istiqbollari.

2-Mavzu. Bozor va qurilish iqtisodini isloh qilish muammolari. Bozor munosabatlariga o‘tishning asosiy tamoyillari, ularning ahamiyati va kapital qurilish sohasida qo‘llanishi. Qurilishda bozor mexanizmining asosiy elementlari. Qurilish mahsulotining “sotuvchi”si va “xaridori”. Qurilish sohasini isloh qilishning huquqiy, me‘yoriy asosi. Qurilishni kontrakt asosida tashkil etish va ob‘yektlarni “kalitgacha” tayyorlik darajasida qurish, qurilishda shartnoma baholarini aniqlash tartibi. Qurilish sohasida korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari va bu jarayonni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning qurilish iqtisodi islohotlaridagi o‘rni, ahamiyati. Qurilishda tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va imkoniyatlari. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida qurilishda tadbirkorlikni rivojlantirishda banklar, soliq va boshqa moliyaviy muassasalarning o‘rni, ahamiyati.

3-Mavzu. Investisiya siyosati, investisiyaviy loyihalar va iqtisodiyotni modernizatsiyalash. Investisiyalar, investisiyaviy dasturlar va loyihalar. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy investisiya siyosatining o‘ziga xos tomonlari va iqtisodiyotdagi tuzilmaviy o‘zgarishlarga ularning ta‘siri. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida investisiya siyosati va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi ustuvor yo‘nalishlar. Investisiyalarning tarkibi, tuzilmasi va zamonaviy yo‘nalishlari. Investisiyaviy dastur va loyihalarni amalga oshirish mexanizmlari. Investisiyalar, investision faoliyat va xorijiy investisiyalarni jalb qilish bo‘yicha qonun xujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari. Harakatdagi korxonalarni kengaytirish va rekonstruksiya qilishga yo‘naltirilgan milliy va xorijiy investisiyalar samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari. Turar joy qurilishini rivojlantirish bo‘yicha davlat tomonidan belgilangan chora-tadbirlar va bosh investor sifatidagi aholining o‘rni.

4-Mavzu. Investisiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash uslubi. Investisiyalar iqtisodiy samaradorligini baholashning ilmiy, amaliy ahamiyati va tamoyillari. Investisiyaviy taklif va investisiyaviy loyiha miqyoslari (ko‘lami). Investisiyaviy loyihalarni tanlash va baholash tartibi. Investisiyalarni tijorat, byudjet va iqtisodiy samaradorligi. Inflyasiyani baholash. Diskontlash stavkasi. Diskontlash koeffitsiyenti. Real investisiyalar samaradorligini baholash tamoyillari. Sof keltirilgan (diskontlangan) daromad. Daromadlilik indeksi. Ichki daromadlilik normasi. Xarajatlarning qoplanish davri. Loyihalar samaradorligining tavakkalchilik xavfi va noaniqliklarni hisobga olgan holda baholashning o‘ziga xos tomonlari. Loyihaning ijtimoiy oqibatlarini baholash va o‘lchash. Investisiyaviy loyihalarni baholashda foydalaniladigan dasturlar paketi.

5-Mavzu. Qurilishni boshqarishning zamonaviy tizimi. Tarmoq va milliy iqtisodiyotning boshqarishning mazmuni, ahamiyati va tamoyillari. Qurilishda boshqaruvning xususiyatlari va tamoyillari. O‘zbekistonda qurilishni boshqarishdagi muhim organlar (idoralar). Kapital qurilishda xo‘jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari. Davlat ekspertizasi hududiy boshqarmasi. Hududiy arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi. Kapital qurilishni boshqarish tizimida qurilish industriyasi korxona va tashkilotlarining o‘rni va roli.

Qurilish industriyasi tashkilot va korxonalarining turlari. Bosh pudratchi, subpudratchi va buyurtmachi tashkilotlarning funksiyalari va o'zaro aloqalari. Qurilish industriyasi korxonalari va pudratchi tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari va imkoniyatlari.

6-Mavzu. Qurilishda fan-texnika taraqqiyoti va uning iqtisodiy samaradorligi. Fan-texnika taraqqiyoti qurilish va jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida. Qurilishda fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari va mazmuni. Jamiyat fan-texnika taraqqiyotida qurilishning o'rni va ta'siri. Qurilish ishlab chiqarishda fan-texnika taraqqiyotini ta'minlovchi tarmoqlar. Yangi qurilish materiallari va konstruksiyalari va ularning qurilishdagi texnika taraqqiyotidagi o'rni. Yangi materiallar va konstruksiyalarni qo'llash sohalarini kengaytirish. Qurilishni zamonaviy mashina va mexanizmlar bilan jihozlash, fan-texnika taraqqiyotining omili va natijasi sifatida. Qurilish ishlab chiqarishini texnikaviy jihozlanganlik ko'rsatkichlari. Qurilishda ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish va qo'l mehnatini qisqartirish. Qurilishni mexanizatsiyalash va yangi texnikani yaratish sohasida xorijiy davlatlar tajribasi. Progressiv texnologiyalarni qo'llash va nuqtaviy, kompleks blokni hamda potok uslublarida qurilishni tashkil etish. Fan-texnika taraqqiyotining zamonaviy yutuqlaridan foydalanish sohasida qurilish-montaj tashkilotlarining faoliyati. Qurilishda yangi texnikani joriy kilishning iqtisodiy samaradorligi, uning ko'rsatkichlari va aniqlash uslublari.

7-Mavzu. Qurilish faoliyatini rejalashtirish asoslari. Rejalashtirish - qurilish ishlab chiqarishini boshqarishdagi muhim bo'g'in sifatida. Bozor munosabatlari sharoitida qurilishni rejalashtirishning xususiyatlari, tamoyillari va uslublari. Qurilish dasturlari va qarorlarini tayyorlashda bevosita yoki bilvosita ishtiroq etuvchi davlat idoralari, korxonalar va xo'jaliklarning tarkibi va xarakteristikallari. Kapital qurilish rejalarini ishlab chiqishda mahalliy idoralarning o'rni. Pudrat tashkilotlari - qurilish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda bosh "figura" sifatida. Qurilish-montaj tashkilotining ishlab chiqarish rejasi, uning bo'limlari va ko'rsatkichlari. Ushbu rejani ishlab chiqish uslubi va uning zaxira imkoniyatlari bilan bog'liqligi. Qurilish ishlab chiqarish rejalarida tadbirkorlik faoliyatini aks ettirilishi.

8-Mavzu. Qurilish industriyasining ishlab chiqarish va resurs potentsiali va undan oqilona foydalanish yo'llari. Qurilishning ishlab chiqarish potentsiali va resurslari, qurilish industriyasi korxona va tashkilotlari faoliyatidagi ularning ahamiyati va tarkibi. Ishlab chiqarish potentsiali va resurslarining farq qiluvchi xususiyatlari. Asosiy fondlar qurilish tarmog'ining ishlab chiqarish va resurs potentsiali muhim qismi sifatida. Asosiy fondlarning mohiyati, tarkibi va vazifalari. Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari va uni baholash. Asosiy fondlarning qurilish industriyasi korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish quvvatlari bilan bog'likligi.

Qurilish-montaj tashkilotlari ishlab chiqarish quvvatini hisoblash uslubi. Kapital qurilishda ijara va lizing xizmatlari tizimini joriy etish. Qurilishning aylanma mablag'lari va aylanma fondlari. Aylanma fondlar tizimi va tarkibi. Xususiy va qarz aylanma mablag'lar. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari.

9-Mavzu. Qurilishda bahoni shakllantirish, foyda va rentabellik. Qurilishda qiymatni paydo bo'lishi mexanizmning asosi. Smeta qiymati - qurilish mahsuloti bahosining tasviri sifatida. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qurilishda smeta qiymatini shakllantirishning xususiyatlari. Smeta bo'yicha tannarx. Rejadagi tannarx. Haqiqiy tannarx. Foyda va rentabellik, ularning o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligi. Qurilish-montaj tashkiloti daromadi. Foydani tashkil qiluvchi asosiy manbalar va omillar. Rentabellik-qurilish industriyasi korxonalari va qurilish-montaj tashkilotlari ishi samaradorligini umumlovchi ko'rsatkich sifatida. Smeta bo'yicha rentabellik darajasi. Rejadagi rentabellik darajasi. Haqiqiy rentabellik.

Ta'lim berish va o'qitish uslubi:	Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ishlar (dumaloq stol, keys stadi, master-klasslar)		
Mustaqil ishlar:	O'quv loyihalar, guruhli taqdimot, referatlar, keyslar, dokladlar, krossvordlar, poster, prospekt, esse va x.z		
Maslahatlar va topshiriqlarni topshirish vaqti	Seshanba Juma	14.00-15.30 14.00-15.30	Aud. 4/301 Aud. 4/301
Bilimlarni baholash usullari, mezonlari, va tartibi:			
Baholash usullari	Ekspress testlar, yozma ishlar, og'zaki so'rov, prezentatsiyalar va h.z.		
Baholash jarayoni	Reyting baholash turlari	Maks.ball	O'tqazish vaqti
	Joriy nazorat:	35	
	ma'ruza mashg'ulotlarda faolligi, muntazam ravishda konspekt yuritishi uchun	6	Semestr davomida
	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi	9	
	Amaliy mashg'ulotlarda faolligi, savollarga to'g'ri javob berganligi, amaliy topshiriqlarni bajargan-ligi uchun	20	
	Oraliq nazorat		
	Birinchi oraliq nazorat yozma ish (amaliy mashg'ulot o'qituvchisi tomonidan qabul qilinadi).	15	10 hafta
	Ikkinchi oraliq nazorat (ma'ruzachi o'qituvchisi tomonidan qabul qilinadi). Ikkinchi oraliq nazorat 2 bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich, 10 ball-talaba yakka tartibda topshiriqlar oladi va himoya qiladi. Har bir guruhda talabalar soni 5-7 tagacha bo'lishi mumkin), har bir guruhga alohida topshiriqlar beriladi va himoya qabul qilinadi. Topshiriqlar 2-3-haftalar oralig'ida talabalarga biriktiriladi. Guruhning faolligi, beril-gan topshiriqni nazariy va amaliy jihatdan yoritili-shi, xulosalarning manti-qiy bog'liqligi, kreativ mulohazalarning mavjud-ligi, huquqiy-normativ hujjatlarni bilishi va boshqa talablarga mosligi hisobga olinadi.	20	17-hafta

	Guruhdagi har bir talabaga 0-20 oraliq'ida bir xil ball qo'yiladi. Himoya kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan grafik asosida dars mashg'ulotlaridan so'ng tashkil etiladi		
	Yakuniy nazorat	30	20 hafta
	Yozma ish	30	
	JAMI	100	
Axborot resurs baza:			
Asosiy adabiyotlar:	1. Fantina Rangelova. Fundamentals of economics in sustainable construction. ISBN 978-954-92642-5-8 Publisher: Bultest Standard Ltd, 2015. 2. Grafova G.F., Guskov S.V. Ekonomicheskaya osenka investitsiy: Uchebnoye posobiye. Uchebnoye posobiye. – M.: «Dashkov i K°», 2008. – 183 str. 3. Isakov M.Yu. «Kapital qurilish iqtisodiyoti» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua – T.: TDIU, 2007 – 160 bet. 4. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstva. Uchebnoye posobiye.–T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyuza pisateley Uzbekistana, 2004, - 128 bet. 5. Neshitoy A.S. Investisii: Uchebnik. – 4-ye izd., pererab. i dop. Uchebnoye posobiye. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2006. – 376 str. 6. Stepanova I.S. Ekonomika stroitelstva. Uchebnik / pod obshchey red. - 3-ye izd., dop. i pererab. Uchebnoye posobiye. - M.: Yurayt-Izdat, 2008. – 620 str.		
Qo'shimcha adabiyotlar:	1. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – Xalq so'zi. 2015 yil 17 yanvar, № 11(6194). 2. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – T.: O'zbekiston, 2014. - 36 b. 3. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – T.: O'zbekiston, 2013. - 36 b. 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 281 b. 5. Isakov M.Yu. «Kapital qurilish iqtisodiyoti» fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi / «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyasi» seriyasidan. -T.: TDIU, 2007 – 160 bet.		

	6.Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004, - 208 bet. 7.Rostova Yu.I. i dr. Ekonomika organizatsiy (predpriyatiy) v sxemax. Uchebnoy posobiye.– M.: 2009. – 240 str.
Normativ-huquqiy hujjatlar:	1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi www.lex.uz 2. O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi Qonuni. www.lex.uz 3. «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 26.04.2012 y. N O'RQ-327 4. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 25.05.2000 y. 5. «Xususiy korxona to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 6. «Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2001 yil 6 dekabr 7. «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2001 yil 6 dekabr 8. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 26.04.1996 y. 9. «Investisiya faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 24.12.1998 y. 10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.04.2014 y. 97-son "Qurilish-pudrat tashkilotlari reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori 11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.03.2014 y. PQ-2137-son "Qurilish tashkilotlarini yanada rivojlantirish va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.06.2013 y. 154-son "Yer uchastkalarini tanlash bo'yicha materiallarni vakolatli tashkilotlar bilan kelishish, shuningdek qurilish sohasida ruxsatnomalar berish tartibotlarini amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.05.2013 y. 150-son "Qurilish sohasida ruxsat beruvchi tusdagi hujjatlarni berish tartibotlarini amalga oshirish muddatlari va qiymatini belgilashda tabaqalashtirilgan yondashuv tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori 14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.02.2013 y. 54-son "Shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish hamda qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan ehtiyojlar uchun yer uchastkalari berish, shuningdek ob'yektlarni qurishga ruxsatnomalar berish tartibini tubdan soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.03.2009 y. 59-son "Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori 16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.09.2003 y. 395-son "Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.08.2000 y. 320-son "Shaharlar, tuman markazlari va shahar tipidagi posyolkalarning bosh

	rejalarini ishlab chiqish va ularni qurish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori 18.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.08.1993 y. 441-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish ("Davarxitektqurilish") qo'mitasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to'g'risida"gi Qarori 19.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.01.2009 y. PQ-1049-son "Qishloqqurilishloyiha" mas'uliyati cheklangan jamiyat loyiha-qidiruv institutini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori 20.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.11.2009 y. 294-son "O'zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxitektura va qurilish bosh boshqarmalari hamda shahar va tuman arxitektura va qurilish boshqarmalari (bo'limlari) faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori 21.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.07.2011 y. 222-son "Shaharsozlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartibotlari va davlat nazorati tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori 22.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.11.2013 y. 296-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Arxitektura ishlari va qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori 23.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.07.2003 y. 302-son "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
Ilmiy jurnallar:	"Iqtisodiy axborotnoma", "Iqtisodiyot va ta'lim", "Bozor, pul va kredit", "Upravleniye personalom", "Voprosy ekonomiki"
Davriy nashrlar:	"Xalq so'zi", "Narodnoye slovo", "Birja", "Xamkor"
Statistik nashrlar:	1. Statisticheskiy yejegovdnik regionov Uzbekistana. 2014. –T.: Goskomstat Uzbekistana. 2015. - 130 str. 2. Statisticheskoye obozreniye Uzbekistana. 2008-2015. 3. Uzbekistan v sifrax. 2014. – T.:, Goskomstat Uzbekistana 2015. – 188 str.
Internet resurslar:	1. http://www.gov.uz 2. www.economics.ru 3. www.davarx.ru 4. www.ved.ru 5. www.ser.uz 6. www.uza.uz 7. www.ifmr.uz 8. www.Lex.uz 9. www.ziyonet.uz 10. www.marketing.ru

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI REJASI

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI REJASI

1-mavzu. Qurilish - milliy iqtisodiyotning muxim tarmog'i (4-soat)

- 1.1. qurilishning xususiyatlari va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli
- 1.2. qurilishning tashkiliy shakllari
- 1.3. qurilishning moddiy-texnik bazasi va uning taraqqiyot istiqbollari

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: aqliy hujum, guruhlarda ishlash, blis-so'rov.

1-mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Fantina Rangelova. Fundamentals of economics in sustainable construction. ISBN 978-954-92642-5-8 Publisher: Bultest Standard Ltd, 2015.
2. E.X. Maxmudov, M.Yu. Isakov. Kapital qurilish iqtisodiyoti. Ma'ruza matnlari. - TDIU, 2016. – 8-18 b.
3. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstva. Uchebnoye posobiye—T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyuzu pisateley Uzbekistana, 2004. – 7-20 s.
4. Ekonomika stroitelstva: Uchebnik / pod obshchey red. I.S.Stepanova. - 3-ye izd., dop. i pererab. - M.: Yurayt-Izdat, 2006. - 620s.

2-mavzu. Bozor va qurilish iqtisodini isloh qilish muammolari (4-soat)

- 2.1. Bozor iqtisodiyotining asoslari, xususiyatlari va bugungi qiyofasi
- 2.2. Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillari va investisiya-qurilish faoliyatida ularni hisobga olish
- 2.3. Qurilish iqtisodiyotini islohotlashtirishning asosiy yo'nalishlari
- 2.4 Qurilishni shartnoma asosida tashkil etish
- 2.5 Kapital qurilishda tanlov savdolari

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: [Ekspert baholash](#), [Delfi usuli](#), [Nilufar guli](#), [insert texnikasi](#), jamoada ishlash, baliq skeleti, [keys stadi](#).

2-mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Fantina Rangelova. Fundamentals of economics in sustainable construction. ISBN 978-954-92642-5-8 Publisher: Bultest Standard Ltd, 2015.
2. E.X. Maxmudov, M.Yu. Isakov. Kapital qurilish iqtisodiyoti. Ma'ruza matnlari. - TDIU, 2016. – 20-55 b.
3. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstva. Uchebnoye posobiye – T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyuzu pisateley Uzbekistana, 2004. – 21-34 s.
4. Ekonomika stroitelstva: Uchebnik / pod obshchey red. I.S.Stepanova. - 3-ye izd., dop. i pererab. - M.: Yurayt-Izdat, 2006. - 620s.
5. Ekonomiki stroitelstva. Ensiklopediya, tolkovyy slovar, glossariy. [Elektronnyy dokument]. (www.encycl.accoona.ru/?id)
6. Ekonomika stroitelstva - obshirnoye sobraniye SNIp, YeNIR, GESN, FER, SP i drugix dokumentov po voprosam ekonomiki stroitelstva. [Elektronnyy dokument]. www.krugonline.ru/id_ru.

7. Snipy i Gosty Goskomarxitektstroy Respubliki Uzbekistan. [Elektronnyy dokument]. (stroit.net.ru/snipy_i_gosti/index.htm)

3-mavzu. Investisiya siyosati, investisiyaviy loyihalar va iqtisodiyotni modernizatsiyalash (4 soat)

3.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida investisiya siyosatining mohiyati va xususiyatlari.

3.2 Investisiya-qurilish jarayoni, uni tashkil qilish va samaradorligi.

3.3. Investisiya loyihalari va investisiya dasturlari hamda ularning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o'rnini.

3.4 Investisiya dasturini shakllantirish tartibi.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: [insert texnikasi](#), jamoada ishlash, baliq skeleti, [keys stadi](#).

3-mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. E.X. Maxmudov, M.Yu. Isakov. Kapital qurilish iqtisodiyoti. Ma'ruza matnlari. - TDIU, 2016. – 62-81 b.

2. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstva. Uchebnoye posobiye–T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyuza pisateley Uzbekistana, 2004. – 35-48 s.

3. Ekonomika stroitelstva: Uchebnik / pod obshchey red. I.S.Stepanova. - 3-ye izd., dop. i pererab. - M.: Yurayt-Izdat, 2006. - 620s.

4. Ekonomika stroitelstva - katalog po tipu dokumenta [Elektronnyy dokument]. (eup.kulichki.net/Catalog/20-All.htm)

5. Investitsionnyye vozmojnosti. [Elektronnyy dokument]. (www.gov.uz/ru/ctx.scm?sectionIdq106&contentIdq2007)

6. Gov.Uz: Goskomarxitektstroy. [Elektronnyy dokument]. (gov.uzpak.uz/ru/scac/management.shtml)

4-mavzu. Investisiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash uslubi (4 soat)

4.1. Investisiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash nazariyasi va amaliyoti tarixi.

4.2. Investisiyalar tuzilmasi va ularni investision qarorlar samaradorligiga ta'siri.

4.3. Investisiyalarni iqtisodiy samaradorligini baholash uslublari.

4.4 Investisiyalarni iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: [insert texnikasi](#), jamoada ishlash, baliq skeleti, [keys stadi](#).

4-mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. E.X. Maxmudov, M.Yu. Isakov. Kapital qurilish iqtisodiyoti. Ma'ruza matnlari. - TDIU, 2016. – 82-92 b.

2. Ishmuxamedov A.E., Qosimov M.S., Jumayev Z.A., Jumayev Q.X. Loyiha tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004.

3. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstva. Uchebnoye posobiye–T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyuzu pisateley Uzbekistana, 2004. – 49-60 s.

4. Ekonomika stroitelstva: Uchebnik / pod obshchey red. I.S.Stepanova. - 3-ye izd., dop. i pererab. - M.: Yurayt-Izdat, 2006. - 620s.

5. [Ekonomiki stroitelstva. Ensiklopediya, tolkovyy slovar, glossariy. \[Elektronnyy dokument\]. \(www.encycl.accoona.ru/?id\)](http://www.encycl.accoona.ru/?id)

6. Ekonomika stroitelstva: Ch. 1: Uchebnik dlya vuzov. Baranovskaya N.I., Kazanskiy Yu.N., Klyuyev A.F. i dr.. [\[Elektronnyy dokument\]. \(www.smcr.ru/offer_14031.html\)](http://www.smcr.ru/offer_14031.html)

7. [Snipy i Gosty Goskomarxitektstroy Respubliki Uzbekistan. \[Elektronnyy dokument\]. \(stroit.net.ru/snipi_i_gosti/index.htm\)](http://stroit.net.ru/snipi_i_gosti/index.htm)

5-mavzu. Qurilishni boshqarishning zamonaviy tizimi (4 soat)

5.1. Boshqaruv ob'yektiv zaruriyat va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida

5.2. Qurilishda boshqarish maqsadi, vazifalari va xususiyatlari.

5.3. Qurilishni boshqarish zamonaviy tizimi va organlari.

5.4. Pudrat tashkilotlari va firmalari - qurilishni boshqarishdagi asosiy bo'g'inlar

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: [insert texnikasi](#), jamoada ishlash, baliq skeleti, [keys stadi](#).

5-mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Fantina Rangelova. Fundamentals of economics in sustainable construction. ISBN 978-954-92642-5-8 Publisher: Bultest Standard Ltd, 2015.

2. E.X. Maxmudov, M.Yu. Isakov. Kapital qurilish iqtisodiyoti. Ma'ruza matnlari. - TDIU, 2016. – 93-107 b.

3. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstva. Uchebnoye posobiye–T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyuzu pisateley Uzbekistana, 2004. – 61-70 s.

4. Ekonomika stroitelstva: Uchebnik / pod obshchey red. I.S.Stepanova. - 3-ye izd., dop. i pererab. - M.: Yurayt-Izdat, 2006. - 620s.

5. [Ekonomiki stroitelstva. Ensiklopediya, tolkovyy slovar, glossariy. \[Elektronnyy dokument\]. \(www.encycl.accoona.ru/?id\)](http://www.encycl.accoona.ru/?id)

6-mavzu. Qurilishda fan-texnika taraqqiyoti va uning iqtisodiy samaradorligi (4 soat)

6.1 Iqtisodiyot va jamiyatda ilmiy-texnik taraqqiyot rivojlanish dastagi sifatida. Qurilishning ilmiy-texnik taraqqiyotga va jamiyotning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri.

6.2 Ilmiy texnik taraqqiyotning qurilishdagi mohiyati, ahamiyati va asosiy yo'nalishlari.

6.3. Qurilish ilmiy texnik-taraqqiyotni bashoratlash va rejalashtirish.

6.4 Ilmiy texnik-taraqqiyotning qurilishdagi samaradorligini iqtisodiy baholash va uning ko'rsatkichlari.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: [insert texnikasi](#), jamoada ishlash, baliq skeleti, [keys stadi](#).

6-mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Fantina Rangelova. Fundamentals of economics in sustainable construction. ISBN 978-954-92642-5-8 Publisher: Bultest Standard Ltd, 2015.
2. E.X. Maxmudov, M.Yu. Isakov. Kapital qurilish iqtisodiyoti. Ma'ruza matnlari. - TDIU, 2016. – 108-117 b.
3. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstva. Uchebnoye posobiye–T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyuz pisateley Uzbekistana, 2004. – 71-82 s.
4. Yuldasheva Sh.M. Ekonomika nauchno-texnicheskogo progressa. Uchebnoye posobiye–T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyuz pisateley Uzbekistana, 2004.
5. Ekonomika stroitelstva: Uchebnik / pod obshchey red. I.S.Stepanova. - 3-ye izd., dop. i pererab. - M.: Yurayt-Izdat, 2006. - 620s.
6. Ekonomiki stroitelstva. Ensiklopediya, tolkovyy slovar, glossariy. [Elektronnyy dokument]. (www.encycl.accoona.ru/?id)

7-mavzu. Qurilish faoliyatini rejalashtirish asoslari (4-soat)

7.1. Rejalashtirish - qurilish ishlab chiqarishini boshqarishning muhim bo'g'ini sifatida. Qurilishda rejalashtirishning asosiy vazifalari, tamoyillari va xususiyatlari

7.2. Kapital qurilishni rejalashtirishning turlari, mazmuni va yo'nalishlari

7.3. Qurilish ishlab chiqarishini va qurilish-montaj tashkilotlarining quvvatlarini rivojlantirishni rejalashtirish

7.4. Pudratchi tashkilotlar miqyosida ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: Jamoada ishlash, [baliq skeleti](#).

7-mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Fantina Rangelova. Fundamentals of economics in sustainable construction. ISBN 978-954-92642-5-8 Publisher: Bultest Standard Ltd, 2015.
2. E.X. Maxmudov, M.Yu. Isakov. Kapital qurilish iqtisodiyoti. Ma'ruza matnlari. - TDIU, 2016. – 119-134 b.
3. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstva. Uchebnoye posobiye–T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyuz pisateley Uzbekistana, 2004. – 83-94 s.
4. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv.qo'll. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004.
5. Ekonomika stroitelstva: Uchebnik / pod obshchey red. I.S.Stepanova. - 3-ye izd., dop. i pererab. - M.: Yurayt-Izdat, 2006. - 620s.

8-mavzu. Qurilish industriyasining ishlab chiqarish va resurs potentsiali va undan oqilona foydalanish yo'llari (6-soat)

8.1. Ishlab chiqarish salohiyati va resurslari, ularning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari va qurilishdagi xo'jalik sub'yektlarining faoliyatidagi ahamiyati.

8.2. Asosiy fondlar - qurilishning ishlab chiqarish va resurs asosi sifatida. Asosiy fondlarning qurilish tashkilotlarining ishlab chiqarish quvvatiga bog'liqligi.

8.3. Qurilishning aylanma fondlari va aylanma mablag'lari, ularning shakllanishi va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari.

8.4. Mehnat resurslari va qurilishning kadrlar salohiyati.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: Jamoada ishlash, keys stadi.

8-mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Fantina Rangelova. Fundamentals of economics in sustainable construction. ISBN 978-954-92642-5-8 Publisher: Bultest Standard Ltd, 2015.

2. E.X. Maxmudov, M.Yu. Isakov. Kapital qurilish iqtisodiyoti. Ma'ruza matnlari. - TDIU, 2016. – 134-145 b.

3. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstva. Uchebnoye posobiye—T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyuza pisateley Uzbekistana, 2004. – 95-108 s.

4. Ekonomika stroitelstva: Uchebnik / pod obshchey red. I.S.Stepanova. - 3-ye izd., dop. i pererab. - M.: Yurayt-Izdat, 2006. - 620s.

5. Ekonomika stroitelstva - katalog po tipu dokumenta [Elektronnyy dokument]. (eup.kulichki.net/Catalog/20-All.htm)

9-mavzu. Qurilishda bahoni shakllantirish, foyda va rentabellik (6-soat)

9.1 Qurilishda baho belgilash mexanizmi va uning xususiyatlari.

9.2 Qurilishning smeta bo'yicha qiymati (narxi)ni belgilashning tarkibi, tuzilishi va uslublari.

9.3 Qurilishda foyda va uni hisoblash usullari.

9.4 Rentabellik va uni qurilishda oshirish yo'llari.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: “Blis so'rov”, “Klaster” usullari.

9-mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Fantina Rangelova. Fundamentals of economics in sustainable construction. ISBN 978-954-92642-5-8 Publisher: Bultest Standard Ltd, 2015.

1. E.X. Maxmudov, M.Yu. Isakov. Kapital qurilish iqtisodiyoti. Ma'ruza matnlari. - TDIU, 2016. – 146-155 b.

2. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstva. Uchebnoye posobiye—T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyuza pisateley Uzbekistana, 2004. – 109-120 s.

3. Ekonomika stroitelstva: Uchebnik / pod obshchey red. I.S.Stepanova. - 3-ye izd., dop. i pererab. - M.: Yurayt-Izdat, 2006. - 620s.

4. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi tug'risidagi Nizom. -T.: 1999, 5 fevral.

5. Syenoobpazovaniye v stroitelstve. Normativno'ye dokumento' po ekonomike stroitelstva. [Elektronnyy dokument]. (dev.csoft.spb.ru/Doclist/folder/648.html).

MAVZULAR BO‘YICHA MATN ANNOTATSIYASI VA OXIRGI YANGILIKLAR

1-MAVZU. QURILISH – MILLIY IQTISODIYOTNING MUHIM TARMOFI

Reja

1.1. Qurilishning xususiyatlari va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli

1.2. Qurilishning tashkiliy shakllari

1.3. Qurilishning moddiy-texnik bazasi va uning taraqqiyot istiqbollari

1.1. Qurilishning xususiyatlari va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli

Qurilish - asosiy moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biridir. U milliy iqtisodiyotda uchinchi (sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin) o'rinda turadi. qurilishning mahsuloti - barcha turdagi ishlar bo'yicha tugallangan va ishga tushirishga tayyor bo'lgan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlari, shuningdek, amaldagi korxonalarining kengaytirilishi va qayta ta'mirlanishi, ularda ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlanishidir. Uy-joy muammlarining yechimi batamom qurilish zimmasiga yuklatiladi.

Qurilish ishlab chiqarishi – insoniyatning eng qadimgi faoliyatlaridan bo'lib, u jarayonda inson yashash va faoliyat ko'rsatishi uchun turli bino va inshootlar barpo qiladi. Inson faoliyati o'zgarishi bilan qurilish ishlab chiqarishi uzuliksiz takomillashishda bo'lib, natijada ish bajarish texnikasi va tugallangan maxsulot o'zgarishda bo'ladi.

Qurilish ishlab chiqarish texnologiyasining taraqqiyotini ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga bog'langan xolda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida barpo qilingan bino va inshootlar, ularni qurilishini tashkil qilish turlicha bo'lishi bilan birga ularda umumiylik tamonlari ko'zga tashlanadi.

Jamiyat qurilishlari davrlariga qarab qurilish ishlab chiqarishi rivojlanishini quyidagicha tasniflash mumkin.

Birlamchi jamiyat qurilish tabiiy g'orlarni yashash xonalari uchun moslash bo'yicha tajribalar yig'ilgan bo'lsa, keyinchalik esa oddiy turda sun'iy bino va inshootlar barpo qilishga erishildi.

Quldorchilik davri esa qurilish ishlab chiqarishining aloxida turi sifatida ajrab chiqdi va uning tarkibida ishlar turi bo'yicha mutaxassislashish. bino va inshoot qurilishi rivojlanishining pog'onasi bo'yicha o'zgarishlar tug'ildi.

Feodal davrida qurilish mutaxassislashgan qurilish tashkilotlari barpo bo'ldi, pudrat asosida qurilish montaj ishlarini olib borish yo'lga qo'yildi.

Kapitalizm davrida qurilish xo'jalikning aloxida tarmog'i sifatida ajrab chiqib, u xo'jaligini boshqa tarmoqlari ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarmaydigan asosiy fondlarni barpo qilindi.

Xozirgi davrga kelib esa qurilish ishlab chiqarishi xalq xo'jaligi barcha tarmoqlari rivojlantirish uchun bino va inshootlari uzuliksiz mexanizatsiyalash va avtomatlashgan xolda barpo qilish tarmog'iga aylandi.

Bizga ma'lumki, qurilishga extiyoj insoniyat taraqqiyotining ilk davridan boshlangan. Birinchi davrlarda qurilish insoniyat yashashi uchun kurash bilan bog'liq bo'lsa, keyinchalik inson faoliyatining aloxida bir tarmog'iga aylandi.

Xozirgi kunda oziq-ovqat, energetika, mashinasozlik, kimyo sanoatlari, xalq istemoli ishlab chiqaruvchi korxonalar, maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari, turar-joy binolari va x.k.larni qurilishsiz tassavur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun uni texnikaviy va tashkiliy tomonini rivojlantirib borish zamon talabidir. Bu ishlarni amalga oshirish uchun katta quvvatga ega bo'lgan qurilish montaj tashkilotlarini barpo qilish, ularni zamonaviy texnika va malalakali ishchilar bilan taominlash zarur.

Qurilish montaj ishlarini kompleks mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, ularni korxonalarda ishlab chiqarilgan yirik konstrksiyalardan barpo qilish, ishni potok usulda ilg'or texnologiyalarni qo'llagan xolda bajarish, bir so'z bilan aytganda qurilishni sanoatlashgan tarmoqqa aylantirish hozirgi kunning talabidir.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng mukammal qurilishga keng yo'l ochib berildi. Respublikamizda qurilish materiallari ishlab chiqarishning keng yo'lga qo'yilgani va ular uchun xom ashyo bazasi turli tumanligi shuningdek katta xajmdagi qurilishning rivojlanishining eng muxim omilidir. Mamlakatimizni jaxondagi yirik mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun raqobatbardosh o'z maxsulotlari bilan chetga chiqish zarur. Buning uchun yangi zamonaviy texnologiyalar bilan jixozlangan ko'plab korxonalar qurilishsiz yuqoridagi ishlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Respublikamizning mustaqillikka erishgan kunidan boshlab ko'plab qo'shma korxonalar: «UZDEUAVTO», «UZDEUELEKTRONIKS», «UZSALAMAN», «ELTEKS» (Turkiya), «Qobul To'ytepa» (Tekstayil), «Mramor – Granit» (O'zbek Shvesariya), v x.k.larning qurilishi yuqoridagi ishlarning isbotidir.

Qurilish ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va milliy iqtisodiyotni kompleks yuksaltirishda katta rol o'ynaydi. Bu tarmoqda jamg'arish fondining taxminan uchdan ikki qismi amalga oshiriladi, mamlakat yalpi ijtimoiy mahsulotining 10 foizidan ko'proq qismi yaratiladi. qurilishning milliy xo'jalik miqyosidagi ahamiyati va yetakchi rol o'ynashiga yana bir sabab shuki, u aholining katta qismini ish bilan ta'minlaydi, fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyotning jadallashiga, ijtimoiy mehnat unumdorligining o'sishiga imkon yaratadi.

Tugallanmagan qurilish - bu tugallanmagan va foydalanishga topshirilmagan qurilish ob'yektlari bo'yicha o'zlashtirilgan kapital qo'yilmalarning muayyan bir sanadagi holati bo'yicha olingan hajmidir. Tugallanmagan qurilish tarkibida amalga oshirilayotgan, shuningdek, vaqtincha va batamom to'xtatib qo'yilgan qurilishlar va ob'yektlar bo'yicha kapital qo'yilmalar hisobga olinadi. Tugallanmagan qurilish hajmlarining o'zgarishi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$N_{y.o.} = N_{y.b.} + Q - V_{as.f} - S_{kq},$$

bu yerda:

$N_{y.o.}$ va $N_{y.b.}$ - tugallanmagan qurilish, mos ravishda hisobot davrining ohiri va boshida, qiymat shaklida (smeta qiymatida);

Q - hisobot davridagi kapital qo'yilmalar;

$V_{as.f}$ - hisobot davrida asosiy fondlarni foydalanishga topshirish;

S_{kq} - belgilangan tartibda hisobdan chiqarilgan kapital qo'yilmalarning qiymati.

Tugallanmagan qurilish ishlab chiqarishi - tugallanmagan va buyurtmachiga topshirilmagan ob'yektlarda (qurilishlarda) pudratchi tashkilot yoki tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish mahsulotining qurilish-montaj ishlarining hajmini tavsiflovchi qismi. Tugallanmagan qurilish hajmi natura va pul ifodasida hisobga olinadi.

Qabul qilingan asosiy atamalar:

konservatsiya - asosiy vositalar yoki qurilishi tugallanmagan ob'yektlarning tegishli qaror bilan belgilanadigan davrda saqlanishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar, bu davr tamom bo'lgach ulardan foydalanilishi yoki qurilish davom ettirilishi kerak;

qaytadan boshlash - konservatsiya qilingan asosiy vositalarni foydalanishga topshirish yoki konservatsiya qilingan ob'yektlar qurilishini tugallash ishlari boshlanishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar;

tugallanmagan qurilish - qurilishi tugallanmagan ob'yektda sarflangan amaldagi xarajatlar;

dastlabki qiymat - asosiy vositalarni tiklash (qurish va qurilishni oxiriga yetkazish) yoki sotib olish uchun amaldagi xarajatlar qiymati, shu jumladan to'langan va qoplanmaydigan soliqlar (yig'imlar), shuningdek keltirish va montaj qilish, o'rnatish, foydalanishga topshirish xarajatlari hamda aktivlardan belgilangan maqsadda foydalanish uchun ularni ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan har qanday boshqa xarajatlar;

qoldiq qiymat - jamlangan amortizatsiya summasi chiqarib tashlangan holda asosiy vositalarning dastlabki (tiklash) qiymati, ular bo'yicha aktiv hisob va hisobotda aks ettiriladi.

1.2. Qurilishning tashkiliy shakllari

Kapital qurilishda investisiya jarayonining asosiy ishtiroqchilari sifatida odatda bajaradigan vazifalariga ko'ra investor, buyurtmachi, quruvchi, pudratchi va loyihalovchilar ishtirok etadilar.

Investor - ob'jekt qurilishini moliyalashtirishni xususiy yoki qarz mablag'lar hisobiga amalga oshiruvchi investisiya faoliyati sub'yekti. Investor investisiya natijalarini tasarruf qilishga to'liq yuridik huquqlarga ega.

Shuningdek, u investisiyalarni (kapital qo'yilmalarni) jalb qilish shaklini belgilaydi, qurilish kontraktlarining shartlarini ishlab chiqadi, investisiya jarayoni ishtiroqchilari bilan bo'ladigan moliyaviy-kredit munosabatlarni amalga oshiradi. Investor qurilish mahsulotining buyurtmachisi, kreditori, haridori bo'lishi, shuningdek, bevosita quruvchi funksiyasini bajaradi.

Buyurtmachi - texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqishdan boshlab ob'yektni foydalanishga topshirish yoki ob'yektning ishlab chiqarish quvvatiga chiqishigacha bo'lgan muddatda ob'jekt qurilishining tashkilotchisi va boshqaruvchisi funksiyalarini qabulqilgan huquqiy yoki jismoniy shaxs.

Qurilish egasi - qurilish bo'layotgan yer maydoniga egalik qilish huquqiga ega bo'lgan huquqiy yoki jismoniy shaxs. U yer egasi hisoblanadi. Buyurtmachi qurilish egasidan farqli ravishda yer maydonidan qurilish uchun faqat ijara shartlari asosida foydalanadi.

Pudratchi (bosh pudratchi) - pudrat shartnomasi yoki kontrakti asosida ob'jekt qurilishini amalga oshirayotgan qurilish firmasi. Bosh pudratchi qurilish natijalari uchun shartnoma shartlariga muvofiq ravishda buyurtmachi oldida to'liq javobgar bo'ladi. U zarur hollarda ayrim turdagi ishlarni bajarish uchun quyi pudrat tashkilotlarini jalb qilishi mumkin

Loyihalovchi - buyurtmachi bilan tuzilgan shartnoma asosida u yoki bu ob'jektning kelgusidagi qurilishini loyihalovchi loyihalash tashkiloti yoki shunga o'xshash boshqa muassasa. Loyihalovchi loyihaning va uning asosidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning sifati uchun to'liq javobgar bo'ladi. Buyurtmachi loyihada ko'zda tutilgan yechimlarga rioya qilinishini nazorat qilish uchun mualliflik nazorati o'rnatadi.

Qurilish ishlab chiqarishi jarayoni turli shakl va usullarda tashkil qilinishi mumkin bo'lib, pudrat usuli, xo'jalik usuli, ob'yektlarni "qulf-kalit" qilib topshirish va sotish shular jumlasidandir.

Pudrat usulida qurilish muntazam ishlab turuvchi qurilish tashkilotlari (firmalari) tomonidan buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bu qurilishning asosiy va eng keng tarqalgan usulidir. Bugungi kunda kapital qurilish sohasidagi barcha pudrat ishlarining taxminan 80 foizi shu usulda amalga oshiriladi. Uni amalga oshirish uchun "Kapital qurilish pudrat shartnomasi" asos bo'lib xizmat qiladi.

Xo'jalik usulida - ob'yektlar qurilishi yoki qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish ishlari xo'jalik sub'yektlarining - korxonalar, tashkilotlar, institutlar va shu kabilarning kuch va mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Korxonalarni qayta ta'mirlash va kengaytirish, kichikroq qurilish ob'yektlari, hududlar va xonalarni obodonlashtirish, ta'mirlash ishlari ko'pincha shu usulda olib boriladi.

Ob'yektlarni foydalanishga tayyor holda ("qulf-kalit" gacha) topshirishda buyurtmachining funksiyalari bosh pudratchiga berilib, u qurilishni boshidan boshlaydi va ob'yektni buyurtmachiga o'zil-kesil tugallangan holatda topshiradi. qurilishning bunday usuli uy-joy qurilishida juda keng tarqalgan.

Tanlovlar - iqtisodiyotda nisbatan yangi hodisa bo'lib, bunda buyurtmachi biror ob'yektni qurish yoki loyihalash, asbob-uskunalar yetkazib berish bo'yicha tanlov e'lon qilayotganligini ochiq yoki yopiq shaklda xabardor qiladi va hohlovchilarni shu tanlovda ishtiroq etishga taklif qiladi. Bunda maxsus hujjat tayyorlanadi va unda tanlovning asosiy g'oyasi, uning tijoriy va boshqa shartlari ko'rsatiladi. Bunday hujjatlar majmuasi "tender" deb ataladi.

1.3. Qurilishning moddiy-texnik bazasi va uning taraqqiyot istiqbollari

Qurilish moddiy ishlab chiqarish tarmog'i sifatida faqat mahsulot ishlab chiqaribgina qolmay, balki buning uchun u yoki bu turdagi resurslarni iste'mol qiladi yoki foydalanadi ham. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, qurilish materiallari sanoati mahsulotlarining 80 foizi, yog'och materiallarining taxminan yarmi, metall proqatining 20 foizdan ko'prog'i, mashinasozlik sanoati mahsulotlarining 10 foizdan ko'proq qismi qurilishda foydalaniladi. qurilish harajatlari tarkibida transport sarf-harajatlarning qiymati 20-25 foizni tashkil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, qurilishga iqtisodiyot tarmoqlarining deyarli barchasi xizmat ko'rsatadi.

Qurilishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishda qurilish materiallari sanoati alohida o'rin tutadi. Bu tarmoqdagi korxonalar syement, ohak, gips, g'isht, shisha, qoplama va issiqlik o'tkazmaydigan materiallar, turli to'ldirmalar ishlab chiqaradi. 1999 yil oktyabr oyining o'zida respublika bo'yicha 270 ming tn syement,

taxminan 50 ming m³ yig‘ma temir-beton konstruksiya va detallar, 523 ming m² deraza shishasi (qalinligi 2 mm), 15 ming m² linoleum, deyarli 3 mln. m² qoplama materiallar, 47 ming m² ga yaqin keramik (glazurlangan) plitalar va boshqa materiallar ishlab chiqarilgan.

Kapital qurilishda ayrim turdagi materiallar iste‘molining solishtirma ulushi juda kattadir. Masalan, taxminan 80% syement, deraza oynasi - 50%, yog‘och materiallar - 35-40%, qora metallar proqati - 20%, yumshoq qoplama materiallar - deyarli 70% iste‘mol qilinadi.

Qurilishning materiallar, konstruksiyalar, texnikalar va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan eng to‘la ta‘minash ko‘p jihatdan tarmoqlararo aloqalarning mukammalligi va yanada rivojlantirilishiga bog‘liqdir. Bu esa, odatda, ishlab chiqarishning tarmoqlararo balansida va mahsulotning iqtisodiyotdagi taqsimotida aks etadi.

Qurilishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va joylashtirish uchun qurilish hududi va joyini tanlashga ta‘sir qiladigan barcha omillar va shartlarni miqdoriy ifodalashga imkon beradigan usullarga ega bo‘lish lozim. Bunday usullar - masalaning optimal yechimini topishga imkon beradigan **matematik modellardir**. Ulardan biri - chiziqli dasturlash bo‘lib, u o‘zgaruvchan kattaliklarning berilgan chiziqli cheklashlarni va ushbu kattaliklarning maqsadli funksiyasini maksimallashtiruvchi yoki minimallashtiruvchi qiymatlari majmuasini topish talab qilinadigan ekstremal masalalarni yechishning nazariyasi va amaliyotini o‘zida birlashtiradi.

Qurilishning moddiy-texnik bazasini optimal rivojlantirish va joylashtirishning iqtisodiy-matematik modelini shakllantirishda boshqa omillar bilan bir qatorda xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarish punktlari, korxonalarni joylashtirish mumkin bo‘lgan punktlar, shu punktlardagi ishlab chiqarish hajmlari, transport harajatlari va boshqalar hisobga olinishi lozim. Bu holatda masalani optimal yechish mezoni odatda kelgusida ishlab chiqariladigan mahsulotning yuqori darajada raqobatbardosh bo‘lishi, ayni paytda korxonani yaratish va joylashtirishda (bir martalik va joriy) harajatlarning imkon qadar kam bo‘lishidir.

Shuni ham nazarda to‘tish kerakki, bozor munosabatlari sharoitida, qurilish industriyasi korxonalari va tashkilotlarining xo‘jalik yuritishdagi mustaqilligi kuchayib borayotgan bir paytda, moddiy-texnik bazani rivojlantirish masalalari ham, xo‘jalik sub’yektlari o‘rtasidagi, shuningdek, sub’yektlar bilan kapital qurilish sohasida ishlovchi yoki unga bog‘liq bo‘lgan ilmiy-tadqiqot va boshqa tashkilotlari o‘rtasidagi xo‘jalik aloqlarini kuchaytirish masalalari ham, avvalgi paytlardagidek vazirlik va mahkamalar tomonidan emas, balki, zarur hollarda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan holda ko‘proq qurilish tashkilotlari va korxonalari tomonidan hal qilinmoqda.

Muhokama va nazorat uchun savollar

1. “Qurilish tarmog‘i” tushunchasiga to‘liq ta‘rif bering. Uning milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini belgilovchi miqdoriy ko‘rsatkichlarini ko‘rsatib bering.

2. Qurilishning to'g'ri va teskari aloqalarining tabiatini ochib bering.
3. U yoki bu ob'yektlarning qurilishi qanday usullar bilan amalga oshirilishi mumkin?
4. Qanday sub'yektlar kapital qurilish ishtirokchilari bo'lishi mumkin?
5. Qurilishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishning qonuniyatlari, tendensiyalari va rivojlantirish tamoyillarini bayon qilib bering.
6. Tugallanmagan qurilish ob'yektlarini qaysi hollarda konservatsiya qilinadi?
7. Qurilishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga qanday omillar ta'sir qiladi.
8. Zamonaviy qurilish jixozlari va materiallari ishlab chiqarishning hozirgi holatiga baho bering.

2-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTI VA INVESTISION-QURILISH FAOLIYATINI ISLOHOTLASHTIRISH MUAMMOLARI

Reja

2.1. Bozor iqtisodiyotining asoslari, xususiyatlari va bugungi qiyofasi

2.2. Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillari va investisiya-qurilish faoliyatida ularni hisobga olish

2.3. Qurilish iqtisodiyotini islohotlashtirishning asosiy yo‘nalishlari

2.4 Qurilishni shartnoma asosida tashkil etish


2.5 Kapital qurilishda tanlov savdolari

2.1. Bozor iqtisodiyotining asoslari, xususiyatlari va bugungi qiyofasi

Ma'lumki. iqtisodiyot bozor munosabatlari sharoitida faoliyat ko'rsatadi. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan boshlab iqtisodiyotni rejali tizimdan bozor munosabatlari asosiga o'tkazish masalasi ko'tarilib, uni hal qilishga kirishildi. Avvalgi nashrlarda, turli tadqiqotlarda bozor va bozor iqtisodiyoti anarxiyani, inqirozlar va ishsizlikni keltirib chiqaruvchi tizim deb ko'rsatilar, bozorning biznes, tadbirkorlik, raqobat va shu kabi kategoriyalariga esa kapitalizmga xos illatlar deb qaralardi.

Bozorning asosiy elementlari - bu narx, talab va taklifdir. Turli tovarlarga bo'lgan talab va taklif aynan bozorda vujudga keladi. Taklif ishlab chiqaruvchilarning imkoniyatlariga qarab, talab esa shu tovar yoki mahsulotga bo'lgan ehtiyojga, haridorning uni sotib olish imkoniyatiga qarab belgilanadi: tovarga bo'lgan ehtiyoj qanchalik kuchli bo'lmasin, uni pulsiz sotib olish mumkin emas. Agar pul bo'lmasa, talab ham bo'lmaydi, talab va taklifning nisbatidan esa narx vujudga keladi. Ammo talab va taklif ham birinchi navbatda narx-navoga bog'liqdir. Bozor qandaydir tarzda ushbu elementlar o'rtasidagi muvozanat o'rnatadi, narxni, talab va taklifni boshqaradi. Buning tabiati "Makroiqtisodiyot" kursida juda yaxshi yoritib berilgan bo'lib, uning sxemasi 2.1-rasmda keltirilgan.

Talab va taklif o'zaro kuchli bog'liq bo'lib, bir-birini keltirib chiqaradi. Ular qiymat qonuni orqali o'zaro ta'sirlashadi va ishlab chiqaruvchilarga hatti-harakatlarni va resurslarni qayoqqa yo'naltirishni ko'rsatib beradi. qayerda talab taklifdan yuqori bo'lsa, narx ham qiymatdan yuqori bo'ladi. Resurslar ham shu tomonga yo'naltiriladi, eng yuqori foyda ham shu yerda bo'ladi - har qanday tovar ishlab chiqaruvchining asosiy maqsadi ham shudir. Boshqacha qilib aytganda, qiymat qonuni asosida juda samarali tovar-bozor mexanizmi vujudga kelib, faoliyat ko'rsatadi. Bu mexanizm ishlab chiqarishni, tovar mo'l-ko'lligini, ish vaqtining tejamliligini va mehnat unumdorligining yuqori bo'lishini tartibga soladi.



2.1-rasm. Talab va taklif egri chizig'i (narxning bozordagi tovarning miqdoriga bog'liqligi)

Shunday qilib, bozor - bu ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida tarixan vujudga kelgan xo'jalik aloqalari usulidir. Bozordagi hamkorlar bir-birlarini erkin tanlaydilar, talab va taklif ham shu yerda shakllanadi, ular o'rtasidagi nisbat esa narxni belgilaydi. Ammo bozorda faqat ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar emas, balki ishlab chiqaruvchilarning (korxonalar, firmalar, kompaniyalar) o'zaro manfaatlari ham to'qnash keladi. Bu aloqa, odatda raqobat ko'rinishida ifodalanadi va uning natijasida ko'pincha ba'zi ishlab chiqaruvchilar bankrot bo'lsa, boshqalari rivojlanib ketadi.

Shunday qilib, bozorni inkor qilish va "adolat" uchun, taqsimotdagi tenglashtirish uchun kurashishning ildizlari ilk socialistlarning utopik (xayoliy) mafkurasiga borib taqaladi. Bugungi esa biz rejali iqtisodiyotning vaqt sinovidan o'tmaganligiga, sobiq socialistik respublikalarning bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlaganliklariga guvohmiz.

Davlat bozori va bozor munosabatlarining muhimligini **Gelbrayd, Lindblom, Makmillan** kabi mashhur g'arb tadqiqotchilar ta'kidlab o'tishgan. Ularning asarlarida g'oyatda muhim xulosa ifodalangan - sof bozor munosabatlari iqtisodiyot uchun g'oyatda mo'rt poydevor hisoblanadi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyotidagi va siyosatdagi ustivor yo'nalishlarni aynan davlat belgilab berishi lozim. Bozor talabi ham

davlat tomonidan rejalashtirilishi va boshqarib borilishi zarur. **Lindblomning** ta'kidlashicha, "biznes uchun, u o'z ishini yaxshi uddalashi uchun davlatdagi imtiyozli mavqe ko'rinishidagi manfaat zarur".

2.2. Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillari va investisiya-qurilish faoliyatida ularni hisobga olish

Bozor iqtisodiyotining barpo etilishi va faoliyat ko'rsatishi ma'lum bir tamoyillarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Ularning mazmunini bayon qilishdan avval aytish kerakki, bozor iqtisodiyotining tarkibida faqat ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) iste'molchi (haridor) bilan uchrashadigan tovar va xizmatlar bozori emas, balki moliyaviy resurslar (kapital) bozori va boshqalar ham amal qiladi. Bu bozorlarning barchasi bir-birini to'ldirib, yagona bozor iqtisodiyoti mexanizmini tashkil qiladi. Bu mexanizmning xarakterli belgilar quyidagilardan iborat:

- mahsulot (yumushlar, xizmatlar) ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasida aloqaning erkinligi;
- hamkorlarni tanlash erkinligi;
- bozor ishtirokchilar o'rtasidagi raqobat.

Mashhur iqtisodchi olim Leontyevning fikricha, bozor mexanizmi raqobatga asoslanadi, ammo davlatning qat'iy nazorati ostida, milliy daromadning katta qismini o'z ichiga oluvchi ijtimoiy xizmatlar tizimlari bilan bog'liqlikda faoliyat ko'rsatadi. U keskin markazlashgan rejalashtirish o'rniga indikativ yo'naltiruvchi rejalashtirishni ko'zda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, bozor mexanizmini ham boshqa har qanday mexanizm kabi tegishli ravishda boshqarish va tartibga solib turish kerak bo'ladi.

O'zbekiston iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tkazish faqat ishlab chiqilgan model asosidagina emas, balki jahon fani va amaliyotining yutuqlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda. Davlat avvalboshdan tarmoqlar iqtisodiyotida ham, butun milliy iqtisodiyotda ham bosh islohotchi bo'ldi. Bugungi kunda respublikamizda monopoliyaga qarshi qo'mita ishlab turibdi, biznes va tadbirkorlik institutlari tashkil qilinan, ko'pchilik vazirlik va mahkamalar - eskirgan asosiy davlat boshqaruv organlari tugatilgan, iqtisodiyot mafkuradan ajratilgan, mulkchilar sinfi shakllanib bormoqda. Davlat iqtisodiy faoliyat erkinligini, iste'molchining huquqlari ustivorligini ham, tenglikni ham, barcha mulkchilik shakllarining muhofaza qilinishini ham kafolatlaydi. Bo'larning barchasi, ya'ni mamlakatning bozor munosabatlariga yo'nalganligi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan.

Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillariga kelsak, O'zbekistonga nisbatan ular, birinchidan, dastlab mamlakat prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, ikkinchidan, - ular milliy iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazishning o'z modeli asosiga qo'yilgan.

Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotning siyosatdan ozodligi;
- qonunlarning ustivorligi va ularning barcha boshqaruv pog'onlarida majburiy bajarilishi;
- davlat - barcha ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarda bosh islohotchi;

- mehnatkashlarning, ayniqsa kam ta'minlangan oilalarning manfaatlarini kuchli ijtimoiy himoyalash;

- bozorga va bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish.

Qurilish, milliy iqtisodiyotning o'zviy bir qismi sifatida bu tamoyillardan alohida faoliyat ko'rsata olmaydi. Bundan tashqari, qurilish bu tamoyillarga moslanishi, ularning asosida hamda tarmoqning xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o'tish jarayonining tezlashishga imkon yaratishi lozim. Ularning ichida eng muhimi quyidagilardir:

1. Narx belgilashning bozor shakllari tamoyillari

Bugungi kunda narx belgilashning ikki shakli bor bo'lib, ular erkin narxlar va davlat tomonidan boshqariladigan narxlardir. Bu ikkala narxlar ham mamlakatda amal qilayotgan narx belgilash siyosatiga bo'ysunadi. Bugungi kunda davlatimiz erkin narx belgilash chegaralarini imkon qadar kengroq ochishga, ya'ni narxlarni erkinlashtirishga intilmoqda, bu esa bozor iqtisodiyoti mexanizmiga zid kelmaydi. Narx belgilashdagi "erkinlik chegaralarining" asosiy omillarini quyidagicha tasvirlash mumkin:

2. Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish

Bu tamoyilni amalga oshirish har qanday jismoniy va huquqiy shaxsga amaldagi qonunchilikda man etilmagan istalgan turdagi faoliyat turi bilan shug'ullanishga imkon beradi. O'zbekistonda bu bir qator qonunlar, Prezident farmonlari hamda hukumat qarorlari bilan mustahkamlangan.

So'nggi paytlargacha sanoat, qishloq xo'jaligi, yo'l, fuqaro va uy-joy qurilishi bilan shug'ullanuvchi qurilish vazirliklari monopol mavqega ega edilar. Amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, monopolizm bozor munosabatlari rivojlanishining dastlabki bosqichlari uchun maqbo'l bo'lishi mumkin, ammo keyinchalik uning hukmronligi turg'unlikni vujudga keltirib, raqobatga to'sqinlik qila boshlaydi. Shuning uchun monopolizm bilan bozor iqtisodiyotining muhim belgisi bo'lgan raqobat bir joyda mavjud bo'la olmaydi.

5. Ichki va tashqi bozorlarning ochiqligi

Bu tamoyil sanoat korxonalari, savdo sohasi, qishloq xo'jaligiga ko'proq xos bo'lib, afsuski, qurilish ishlab chiqarishiga kamroq darajada taalluqlidir. Ammo bu qurilish faqat ichki ehtiyojlar doirasida qolib ketib, tashqi bozor uchun yopiqdir, degan fikrni bildirmaydi. Vaholanki, mamlakatimizning pudrat tashkilotlari chet ellardagi investisiya-qurilish jarayonida kamroq ishtiroq etadilar, xorijiy tashkilotlar esa bizning qurilish jarayonimizda faol qatnashmoqdalar. Shuning uchun dunyoning ko'pgina mamlakatlariga xos bo'lgan bozorning ochiqligi mamlakatimizdagi qurilish korxona va tashkilotlarini faqat ichki bozorda emas, balki chet ellarda ham munosib o'rin egallashga majbur qilishi kerak. To'g'ri, bu anchagina murakkab, faqat yetarli miqdordagi resurslarni emas, balki ma'lum darajada tashabbuskorlik va hatto vatanparvarlikni, fidoyilikni talab qiluvchi vazifa, ammo uni bajarish mumkin.

Biz bozor iqtisodiyoti sharoitida qurilish faoliyatining biz eng muhim deb topgan yettita tamoyilinigina ko'rib chiqdik. Ammo qurilish majmuasini bozor tizimiga o'tkazish uchun boshqa bozor tamoyillari va shart-sharoitlari ham kerak bo'lib, ularsiz moddiy ishlab chiqarish tarmog'i sifatida faqat qurilish emas, hatto butun iqtisodiyot

ham bozor iqtisodiyoti degan nomga loyiq bo‘la olmasligi mumkin. Quyidagilar shular jumlasidandir:

- pul-kredit tizimini tashkil qilish va uning, shu jumladan konvertlanuvchi valyutaning barqaror faoliyat ko‘rsatishini yo‘lga qo‘yish.
- moliyaviy tashkilotlar, birjalar, sug‘urta kompaniyalari, auditorlik va konsalting muassasalari, telekommunikatsiyalar tarmog‘i va hokazolarni o‘z ichiga oluvchi bozor infratuzilmasining mavjudligi;
- bozor sharoitlarida ishlay oluvchi kadrlarni tayyorlash va qayti ijtyorlash bo‘yicha ishonchli tarmoqning mavjud bo‘lishi;
- me‘yoriy-uslubiy va ma‘lumot materiallarini tayyorlash va qurilish ishlab chiqarishini ular bilan ta‘minlash;
- oqilona (maqbul) soliq tizimining mavjudligi;
- talab darajasidagi huquqiy ta‘minotning mavjudligi;
- narxni shakllantirish tizimini yaxshilash.

Tabiiyki, qurilish majmuasining bozor munosabatlariga o‘tishdagi asosiy tamoyillari ham, qo‘shimcha tamoyillari ham qurilish amaliyotining boy hayotiy tajribasining o‘rnini bosa olmaydi. Nazariyaning amaliyotdan farqi ham, bugunning ertadan farqi ham aslida shudir. Ammo bu tamoyillardan birgalikda foydalanish va, yanada muhimrog‘i, ularni davr talabidan, hayot talabidan kelib chiqqan holda boyitish, to‘ldirish qurilish majmuasining bozor munosabatlariga o‘tkazilishini tezlashtiradi va shu yo‘l bilan butun milliy iqtisodiyotning rivojlanishini ta‘minlaydi.

2.3. Qurilish iqtisodiyotini islohotlashtirishning asosiy yo‘nalishlari

Ko‘rib chiqilgan masalalar qurilish iqtisodiyotini islohotlashtirish butun milliy iqtisodiyot nuqtai nazaridan qaragandan majburiy chora emas, balki ob‘yektiv zarurat va hatto davr talabidir, degan xulosa chiqarishga imkon beradi. Iqtisodiyotning u yoki bu tarmog‘i “oqsayotgan” bo‘lsa, xo‘jalikni boshqarishda bozorga xos bo‘lmagan usullarni qo‘llayotgan bo‘lsa, bunday iqtisodiyotni bozor iqtisodiyoti deb bo‘lmaydi. Iqtisodiyotni (tarmoq iqtisodiyotini ham, milliy iqtisodiyotni ham) faqat boshqaruvning barcha pog‘onalarida, hamma joyda bozor mexanizmlari amal qilgan taqdirdagina bozor iqtisodiyoti deb atash mumkin. Bunga erishmaguncha bozor iqtisodiyoti haqida jiddiy gapirish mumkin emas.

Quyida ko‘rsatilgan ob‘yektlarning texnik-iqtisodiy asoslashlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi:

a) xorijiy investisiyalar va kreditlar jalb qilingan holda hukumat kafolati asosida amalga oshirilayotgan ob‘yektlar, loyihaning qiymatidan qat‘i nazar;

b) respublika investisiya dasturiga kiritilgan, har yili davlat byudjeti bilan birga tasdiqlanadigan ob‘yektlar.

Investisiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslashlari va boshqa kerakli hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagunga qadar belgilangan tartibda tegishli ekspertizadan o‘tishi lozim. Investisiya va qurilish loyihalarining tanlov asosida tanlab olinishi qurilish majmuasini tashkil qilish va uni boshqarishdagi eng muhim nuqtalardan biriga aylanib bormoqda.

U ayniqsa quyidagi hollarda keng qo‘llanilmoqda:

- loyihalash, injenerlik-tadqiqot ishlari, konstruktorlik ishlari va hokazo;
- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish bino va inshootlarini, korxonalarni qurish va texnik qayta jihozlashda, shu jumladan “qulf-kalit” qilib topshirishda;
- komplekt texnologik asbob-uskunalar va boshqa mehnat vositalarini yetkazib berishda;
- loyihani boshqarishda, maslahat xizmati ko‘rsatishda, nazoratda.

2.4 Qurilishni shartnoma asosida tashkil etish

Qurilish ob‘yektlarini foydalanishga tayyor holda pudrat usulida qurilish muntazam ishlab turuvchi qurilish tashkilotlari (firmalari) tomonidan buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalar assida amalga oshiriladi. Bu qurilishning asosiy va eng keng tarqalgan usulidir. Bugungi kunda kapital qurilish sohasidagi barcha pudrat ishlarining taxminan 80 foizi shu usulda amalga oshiriladi. Uni amalga oshirish uchun “Kapital qurilish pudrat shartnomasi” asos bo‘lib xizmat qiladi.

ijro hujjatlari - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o‘zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to‘g‘risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob‘yekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o‘rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo‘llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalar, ayrim mas’uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to‘g‘risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to‘g‘risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

qurilish maydoni - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo‘yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob‘yektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo‘yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo‘yiladi;

vaqtinchalik inshootlar - Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o‘rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

berkitiladigan ishlar - sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo‘lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnoma narxini bo‘lib chiqish - ishlarning har bir bosqichi va (yoki) turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo‘yicha ob‘yektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

Pudratchi shartnoma shartlariga ko‘ra loyihada ko‘zda tutilgan ob‘yektни foydalanishga tayyor holda qurish bo‘yicha qurilish ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to‘lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

Ob‘yektlarni foydalanishga tayyor holda qurishga doir

NAMUNAVIY PUDRAT SHARTNOMASI

Keyingi o‘rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan _____

(buyurtmachining nomi)

nomidan _____ asosida ish ko‘ruvchi

(ustav, nizom, ishonchnoma)

_____ bir tomondan va

(rahbarning familiyasi, ismi, otasining ismi)

keyingi o‘rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan _____

(yuridik shaxsning nomi)

nomidan _____

(ustav, nizom, ishonchnoma)

asosida ish ko‘ruvchi _____

(rahbarning familiyasi, ismi, otasining ismi)

ikkinchi tomondan _____

(ob‘yektning nomi)

ob‘yektни foydalanishga tayyor holda qurishga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

2.5 Kapital qurilishda tanlov savdolari

O‘zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilish, shuningdek ilgari to‘xtatib qo‘yilgan ob‘yektlar qurilishini davom ettirish bilan bog‘liq ishlar va xizmatlarning butun kompleksini bajarish, tovarlar xarid qilish, asbob-uskunalar sotib olish Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi 302-son qaroriga asosan tanlov savdolari (tenderlar) orqali amalga oshiriladi. Uni tashkil etish va o‘tkazish tartibi va shartlarini esa ushbu Qarorda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to‘g‘risidagi Nizom» belgilaydi.

Nizom tanlov savdolarini o‘tkazishning barcha tashkiliy bosqichlarini belgilab beradi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Umumiy qoidalar
- Tanlov savdolari qatnashchilari
- Tanlov savdolari shakllari
- Talabgorga qo‘yiladigan malaka talablari
- Tanlov savdolarini o‘tkazishga tayyorgarlik
- Tanlov hujjatlarining tarkibi, tuzilishi, ularni ishlab chiqish va tasdiqlash

tartibi

- Ofertalarni taqdim etish
- Tanlov savdolarini o‘tkazish va ularni yakunlash
- Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish hamda tanlov savdolarini

tashkil etish va o‘tkazish tartibi monitoringi

- Narxlarga tuzatishlar kiritish va sug‘urta

- Tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish xarajatlari
- Tanlov savdolari qatnashchilarining javobgarligi

1. Umumiy qoidalar

Nizom talablari O'zbekiston Respublikasi hududida markazlashtirilgan manbalar (davlatning kapital qo'yilmalari), davlat boshqaruv organlari va davlat korxonalari mablag'lari hisobiga tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilishda majburiy hisoblanadi. Boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladigan qurilish ob'yektlari uchun Nizom talablari tavsiya xususiyatiga ega bo'ladi.

Nizom, agar xorijiy kreditlar va grantlar berish shartlariga ko'ra o'zgacha tartib belgilangan bo'lsa, tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridiga joriy etilmaydi.

Tanlov savdolari o'tkazish to'g'risidagi qaror buyurtmachi tomonidan faqat tanlov savdolari predmeti tegishli hujjatlar (kredit shartnomasi, bank ma'lumotnomasi, qurilishlarning aniq ro'yxati, davlat boshqaruv organi qarori va boshqalar) bilan tasdiqlangan moliyaviy resurslar bilan ta'minlangan taqdirda qabul qilinadi.

Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalanilgan:

boshlang'ich narx - buyurtmachi tomonidan yoki uning buyurtmasi bo'yicha jalb etilgan tashkilot tomonidan aniqlanadigan tanlov savdolari predmetining hisoblab chiqilgan qiymati;

baholovchi guruh - ofertani baholash uchun tanlov komissiyasi tomonidan tashkil etiladigan vaqtinchalik organ;

baholovchi komissiya - erkin savdoda xaridni amalga oshirishda buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan doimiy yoki vaqtinchalik organ;

baholash mezonlari - talabgorlarni tanlash hamda ofertani baholash va savdolar g'olibini aniqlash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar;

buyurtmachi - investor yoki tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda investor tomonidan belgilangan yuridik shaxs;

talabgorning malakasini oldindan aniqlash - tanlov savdolarida qatnashishga qo'yish uchun talabgorlarni tanlash;

investor - tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridiga o'z mablag'larini yoki qarz olingan mablag'larni (byudjetdan moliyalashtirishda - nazarda tutilgan mablag'larni) qo'yuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

kapital qurilish - yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, ob'yektlar va asosiy vositalarni mukammal ta'mirlash, shu jumladan loyiha-qidiruv ishlarini bajarish;

tanlov savdolarida ishtirok etishga buyurtmanomalarni ta'minlash - oferent tomonidan buyurtmachining talabiga ko'ra ular bo'yicha dastlabki majburiyatni bank beradigan bank kafolati, topshiriq, zaxira akkreditivlar, cheklar shaklidagi tanlov savdolari shartlarida nazarda tutilgan istalgan majburiyatning, yoxud ta'minlashning boshqa turlarida ta'minlanishi;

talabgor - ofertasi savdo tashkilotchisi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar taklif etilgan shartlarda tanlov savdolarida qatnashish niyatini bildirgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

tanlov buyurtmanomasi aksepti - uning yutgan ofertasi e'tirof etilgan holda oferentga yuboriladigan va shartnoma tuzishga taklif hisoblanadigan buyurtmachining yozma bildirishnomasi;

tanlov komissiyasi - mazkur Nizomning 12-bandida sanab o'tilgan funksiyalarni bajarish uchun buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan doimiy yoki vaqtinchalik organ;

tanlov savdolari - tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan mezonlar va shartlarga muvofiq tovarning maqbul yetkazib beruvchisini, ishlarni bajaruvchini va xizmatlar ko'rsatuvchini tanlash usuli;

tanlov savdolari predmeti - tovarlar, ishlar va xizmatlar;

tanlov savdolari tashkilotchisi - buyurtmachi yoki tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish uchun buyurtmachi tomonidan jalb etiladigan yuridik shaxs;

tanlov hujjatlari - tanlov savdolarining texnik, moliyaviy, tijorat, tashkiliy tavsiflari va boshqa tavsiflari to'g'risidagi hamda tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish shartlari, tartib-qoidalar to'g'risidagi dastlabki axborot mavjud bo'lgan hujjatlar turkumi;

tovar - xom ashyo, buyum, konstruksiya, asbob-uskunalarga butlovchi buyumlar, qattiq, suyuq yoki gazsimon holatdagi predmetlar, energiyaning barcha turlari, shuningdek yetkazib beriladigan tovarga qo'shimcha ravishda ko'rsatiladigan xizmatlar, agar ularning qiymati tovar qiymatining o'zidan ortiq bo'lmasa;

oferent - malaka tanlovidan o'tgan va ofertasi tanlov savdolari tashkilotchisi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan talabgor;

oferta - tanlov hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq taqdim etilgan tanlov savdolari predmetiga nisbatan talabgorning taklifi;

shartnomaviy joriy narx - tanlov savdolari natijalari bo'yicha belgilanadigan tanlov savdolari predmeti narxi;

shartnoma bajarilishini ta'minlash - buyurtmachining talabiga ko'ra tanlov savdolari g'olibi tomonidan ular bo'yicha birlamchi majburiyatni bank o'z zimmasiga oladigan bank kafolati, topshiriq, zaxira akkreditivlar, cheklar shaklidagi, naqd mablag'lardagi depozitlar, yoxud boshqa shakllardagi depozitlar shaklidagi shartnomadagi mavjud majburiyatlar bajarilishining ta'minlanishi.

2. Tanlov savdolari qatnashchilari

Investor, buyurtmachi, tanlov savdolari tashkilotchisi, tanlov komissiyasi va oferentlar tanlov savdolarining asosiy qatnashchilari hisoblanadi.

Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

talabgorning malakasini oldindan aniqlash yoki buningsiz tanlov savdolari o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;

rasmiy farmoyish beruvchi hujjat chiqargan holda tanlov savdolarini o'tkazish shakli, turi va sanasini belgilash;

tanlov savdolari tashkilotchisi funksiyasini amalga oshirish (ushbu funksiyalarni jalb etiladigan tashkilotga berishi mumkin);

mustaqil ravishda yoki ixtisoslashtirilgan tashkilotni jalb etgan holda tanlov savdolari predmetining boshlang'ich qiymatini belgilash.

Buyurtmachi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

tanlov komissiyasi tarkibini va ish tartibini shakllantiradi va tasdiqlaydi, uning ishida qatnashadi;

miqdori tanlov hujjatlarida qayd etiladigan aniq tanlov shartlariga bog'liq bo'ladigan tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomalarni ta'minlash shaklini belgilaydi;

tanlov savdolarining tashkilotchisi bo'ladi (ushbu funksiyalarni jalb etiladigan ixtisoslashgan tashkilotga berishi mumkin);

tanlov hujjatlari tarkibini belgilaydi;

talabgorning malakasini oldindan aniqlash va tanlov savdolariga qo'yiladigan asosiy talablarni, tanlov savdolari predmetiga qo'yiladigan va tanlov hujjatlari tarkibiga kiritiladigan maxsus va texnik talablarni belgilaydi;

belgilangan tartibda ekspertizaning o'tkazilishi va tanlov hujjatlari tasdiqlanishini ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi bilan kelishgan holda tanlov savdolari natijalari to'g'risidagi hisobotni tasdiqlaydi;

tanlov savdolari g'olibi bilan shartnoma tuzadi;

tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplaydi.

Buyurtmachi investor bilan belgilangan tartibda tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan vakolatlar doirasida boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

3. Tanlov savdolari shakllari

Tanlov savdolari quyidagilarga bo'linadi:

ochiq tanlov savdolari - oferentlar soni cheklanmaydi;

yopiq tanlov savdolari - oferentlar soni cheklanadi.

Yopiq tanlov savdolari o'tkazish to'g'risidagi qaror Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi.

Ochiq yoki yopiq tanlov savdolari talabgorning malakasi oldindan aniqlangan holda yoki aniqlanmasdan, yoxud ikki bosqichli bo'lishi mumkin.

Talabgorning malakasini oldindan aniqlash tanlov savdolarining birinchi turi, tanlov savdolarining g'olibini aniqlash - uning ikkinchi turi hisoblanadi.

Talabgorning malakasi oldindan aniqlanadigan ochiq yoki yopiq tanlov savdolari o'tkazishda talabgorlarning umumiy ro'yxati tuziladi, talabgorning malakasi oldindan aniqlanadi va malakasi oldindan aniqlangan talabgorlar o'rtasida tanlov savdolari o'tkaziladi.

Ikki bosqichli tanlov savdolari:

buyurtmachi tanlov savdolari predmetining aniq tavsifini va o'ziga xosligini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lmagan;

shartnomada ishlarni ularning rentabelligini ta'minlash uchun yetarli bo'lgan yoki tadqiq etish yoki ishlab chiqishga sarflangan xarajatlar qoplanishini ta'minlaydigan hajmlarda bajarish nazarda tutilgan hollardan tashqari, buyurtmachi ilmiy tadqiqotlar, eksperimentlar o'tkazishga, qidiruvlar yoki ishlanmalar yuzasidan shartnoma tuzish niyatida bo'lgan hollarda o'tkaziladi.

Yopiq tanlov savdolari ishlar va xizmatlar yuqori darajada murakkabligi (yoki tor ixtisoslashuvi) bilan farqlanadigan va faqat pudratchilar (yetkazib beruvchilar)ning cheklangan soni bilangina bajarilishi mumkin bo'lgan hollarda tashkil etiladi.

Yopiq tanlov savdolarini o'tkazishda tanlov savdolari tashkilotchisi pudratchilar (yetkazib beruvchilar) umumiy sonidan oldindan yetarlicha malaka ma'lumotlariga

ega bo'lganlarni, biroq ularning kamida uchtasini tanlaydi va ularga tanlov savdolarida qatnashishga taklifnoma yuboradi.

Agar pudratchilar (yetkazib beruvchilar)ning umumiy soni ikkitadan ortiq bo'lmasa, u holda taklifnoma ularning har ikkalasiga yuboriladi va tanlov savdolari ularning ishtirokida o'tkaziladi.

Ulardan biri rad etgan taqdirda tanlov shartlari aniqlashtirilgan va (yoki) unga tuzatishlar kiritilgan holda takroriy tanlov savdolari e'lon qilinadi.

Yopiq tanlov savdolarini tashkil etishda matbuotda e'lon berilmaydi, tanlov savdolari taklif etilgan talabgorlar o'rtasida o'tkaziladi.

Tanlov savdolari predmeti xaridining umumiy qiymati 25 ming AQSH dollariga teng summani tashkil etgan hollarda ular:

xarid qilinadigan tovar, ishlar va xizmatlarning tavsifi, miqdori, bajarish muddatlari va tovarni yetkazib berish punkti ko'rsatilgan holdagi takliflarni talabgorlarga yuborish;

yetkazib beruvchi yoki pudratchi tomonidan e'lon qilingan baho va tavsiflarni taqqoslash yo'li bilan erkin savdoda amalga oshirilishi mumkin.

Erkin savdoda xarid qilishda takliflarning yetkazib beruvchi yoki pudratchi tomonidan aloqa kanallari orqali yozma shaklda taqdim etilishiga yo'l qo'yiladi.

Erkin savdoda xarid qilishda yetkazib beruvchi yoki pudratchini tanlash baholash komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Baholash komissiyasi buyurtmachi tomonidan kamida besh nafar vakolatli mutaxassisdan iborat tarkibda tayinlanadi.

4. Talabgorga qo'yiladigan malaka talablari

Tanlov savdolarida qatnashish uchun talabgorga quyidagi malaka talablari qo'yiladi:

tanlov savdolari predmeti qiymatining kamida 20 foizi miqdoridagi bo'sh aylanma mablag'larning yoki ko'rsatib o'tilgan mablag'larni berishga bank kafolatnomasi, ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat resurslari va mutaxassislarning mavjudligi;

shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala huquqiy layoqat va vakolatlar; ustav sarmoyasining miqdori;

tanlov ob'yektiga o'xshash holda talabgorash tajribasining mavjudligi;

o'z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

tanlov ob'yektida o'z kuchlari bilan bajariladigan ishlarning mo'ljallanayotgan hajmi (foizlarda).

Tanlov savdolarida qatnashish talabgoriga buyurtmachi tomonidan belgilanadigan boshqa talablar ham qo'yilishi mumkin.

Agar tanlov savdolari predmeti hisoblanadigan ishlar (xizmatlar)ni bajarish bilan bog'liq faoliyat qonun hujjatlariga muvofiq lisenziyalanishi kerak bo'lsa belgilangan tartibda berilgan tegishli lisenziyaga ega bo'lgan talabgorlar tanlov savdolarida qatnashishga qo'yiladi.

Tanlov komissiyasi talabgor (oferent)dan uning malaka ma'lumotlariga muvofiqligini tasdiqlovchi dalillarni hujjatli shaklda taqdim etishni talab qilishga haqlidir.

Talabgorlarga tanlov savdolarida qatnashishga malaka talablari tanlov hujjatlari tarkibida ko'rsatib o'tiladi.

Malaka talablariga muvofiq talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarni baholash tanlov hujjatlarida belgilangan tartibda tanlov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tanlov komissiyasi talabgorlarning o'z intellektual mulkini yoki tijorat sirini muhofaza qilish huquqini buzishga hamda talabgorlar (oferentlar)ning tanlov hujjatlarida nazarda tutilmagan malaka ma'lumotlariga nisbatan mezonlar va talablarni belgilashga haqli emas.

Ta'sis hujjatlari, moliyaviy qatnashish, xolding shaklida va boshqa shakllarda ifodalangan bir-biri bilan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki moliyaviy bog'liq bo'lgan tashkilotlarning tanlov savdolarida qatnashishi taqiqlanadi.

Buyurtmachining tor ixtisoslashgan pudratchi tashkilotlari ochiq tanlov savdolarida umumiy asoslarda qatnashadilar, yopiq tanlov savdolarida esa tanlov savdolari tashkilotchisi kamida ikkita chet qatnashchini taklif qilishi shart.

Malaka ma'lumotlari to'g'risida noto'g'ri axborot aniqlangan taqdirda tanlov komissiyasi qarori bilan talabgor (oferent) bundan keyin tanlov savdolari tartibotida qatnashishdan chetlatiladi.

Malaka ma'lumotlari to'g'risida tanlov savdolari natijasiga ta'sir qilmaydigan unchalik muhim bo'lmagan noaniqliklar mavjud bo'lgan axborotni taqdim etgan talabgor (oferent)ga tanlov komissiyasi qarori bilan aniqlangan noaniqliklarni uning ofertasini ko'rib chiqish davomida tuzatishiga ruxsat etilishi mumkin.

Qayta tashkil etish (bo'linish, birlashish), tugatish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan, mulki xatlab qo'yilgan talabgorlar tanlov savdolari tartibotlarida qatnashishga qo'yilmaydi.

5. Tanlov savdolarini o'tkazishga tayyorgarlik

Tanlov savdolari tashkilotchisi tanlov savdolari to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon beradi yoki potensial pudratchilarga (yetkazib beruvchilarga) tanlov savdolarida qatnashishga taklifnoma jo'natadi.

Tanlov savdolari o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa yoki tanlov savdolarida qatnashishga taklifnomada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- tanlov savdolari tashkilotchisining nomi va manzili;
- tanlov savdolari predmetini mablag' bilan ta'minlash manbalari;
- tanlov savdolari predmetining tavsifi va uni sotish joyi;
- tanlov savdolari predmetini sotish muddati;
- talabgorlarga qo'yiladigan asosiy shartlar;
- tanlov hujjatlarini sotib olish joyi va uning uchun to'lov miqdori;
- ofertalarni taqdim etish joyi, oxirgi kuni va vaqti;
- ofertalarni ochish joyi, kuni va vaqti.

Tanlov savdolari va (yoki) talabgorning malakasini oldindan aniqlash to'g'risidagi e'lon ommaviy axborot vositalarida chop etiladi. Buyurtmachining qaroriga ko'ra xorijiy pudratchilar (yetkazib beruvchilar) tanlov savdolarida qatnashishga taklif etilishi mumkin. Bunda e'lon, qoidaga ko'ra, eng ommaviy davriy nashrlarda, gazetalarda, web-caytda va (yoki) BMTning Development Business

nashrida, shuningdek xorijiy mamlakatlarning elchixonalari orqali taklifnomalar jo‘natish vositasida amalga oshiriladi.

Ofertalarni taqdim etish muddati e‘lon ommaviy axborot vositalarida chop etilgan kundan boshlab kamida o‘ttiz kunni yoki taklifnomalar jo‘natilgan kundan boshlab o‘ttiz besh kunni tashkil etishi kerak.

Tanlov savdolari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lon faqat tanlov hujjatlariga ijobiy ekspert xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirdagina chop etilishi mumkin.

6. Tanlov hujjatlarining tarkibi, tuzilishi, ularni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi

Tanlov hujjatlari, qoidaga ko‘ra, uch qismdan: umumiy, texnik va tijorat qismidan iborat bo‘ladi.

Umumiy qismga quyidagilar kiradi:

tanlov savdolarida qatnashishga taklifnoma;

tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish yuzasidan shartnomaning umumiy shartlari;

talabgorlarning tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomalari shakli;

talabgorning malakasini hamda uning texnik va moliyaviy ahvolini baholash talablari va mezonlarini, takliflarni moliyaviy baholash va tanlov savdolari g‘olibini aniqlash mezonlari, tanlov savdolari tartibotiga taalluqli boshqa hujjatlardan iborat bo‘lgan yo‘riqnoma.

Tanlov savdolari tashkilotchisi talabgorning so‘roviga ko‘ra tanlov hujjatlarining mohiyati yoki mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan savollarga yozma ravishda javob berishi, tanlov savdolarining barcha qatnashchilariga javobni so‘rov manbaini ko‘rsatmasdan yuborishi shart.

Tanlov savdolarining asosiy qatnashchilari va (yoki) talabgorlar o‘rtasida xabarlar, bildirishnomalar va boshqa axborotlarni almashish tanlov hujjatlari tarkibida tasdiqlangan shakl bo‘yicha yozma ravishda amalga oshiriladi.

7. Ofertalarni taqdim etish

Ofertaning amal qilish muddati tanlov hujjatlarida belgilanadi.

Oferta uni taqdim etishning oxirgi kuni va vaqti tugaguncha qaytarib olinishi mumkin.

Talabgorning imzosi va muhri qo‘yilgan oferta savdolar tashkilotchisiga konvertga solib yelimlangan holda jo‘natiladi.

Taqdim etish muddati tugagandan keyin olingan oferta ko‘rib chiqilmaydi.

Ofertani taqdim etish sanasi tanlov savdolari tashkilotchisining pochta bildirishnomasidagi oferta olinganligi to‘g‘risidagi qayd bo‘yicha yoki tanlov savdolari tashkilotchisining oferentga berilgan (oferta chopar orqali yetkazib beriladigan hol) oferta olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnomasi sanasi bo‘yicha belgilanadi.

Talabgor oferta tarkibida tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani tanlov hujjatlarida ko‘rsatilgan, lekin tanlov savdolari predmeti hisoblab chiqilgan qiymatining ko‘pi bilan 2 foizi miqdorida ta‘minlashni taqdim etadi.

Ta‘minlashning amal qilish muddati ofertaning amal qilish muddatidan kam bo‘lmasligi kerak.

Buyurtmachi tanlov hujjatlarida ta'minlash kafilining ishonchliligi bo'yicha talablarni, uning shakllarini va tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani ta'minlashdan foydalanish tartibini belgilashi mumkin.

Tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani ta'minlash:

tanlov savdolari g'olibiga - shartnoma tuzilgandan keyin, shartnoma ijrosini talab qilinadigan ta'minlash taqdim etilgach;

qolgan oferentlarga - tanlov savdolari g'olibi bilan shartnoma tuzilgandan keyin, lekin ofertaning amal qilish muddatidan kechikmay;

ofertani qaytarib olgan oferentga - uni taqdim etishning oxirgi kuni va vaqti tugaguncha qaytariladi.

Buyurtmanomani ta'minlash uni qaytarish uchun asos paydo bo'lgan vaqtdan boshlab o'n kun mobaynida qaytariladi.

Tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani ta'minlash:

ofertani taqdim etishning oxirgi kuni va vaqti tugagach ofertani o'zgartirgan yoki uni qaytarib olgan oferentga;

tanlov savdolari g'olibiga - oferta uning amal qilish davrida qaytarib olinganda, tanlov hujjatlarida belgilangan shartlarda shartnoma tuzish yoki shartnoma ijrosining talab qilinadigan ta'minlanishini taqdim qilish rad etilganda qaytarilmaydi.

8. Tanlov savdolarini o'tkazish va ularni yakunlash

Tanlov savdolari, qoidaga ko'ra, buyurtmachi joylashgan joyda o'tkaziladi.

Majlis vaqtida ofertalar solingan konvertlar ochiladi, shartlar va tartibotlarga rioya qilinishi, tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan hujjatlarning mavjudligi tekshiriladi.

Ofertalarni ko'rib chiqish, baholash va taqqoslash natijalari to'g'risidagi axborot oshkor qilinmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Tanlov komissiyasining har bir majlisida protokol yuritiladi.

Qoidaga ko'ra, bu - talabgor malakasini oldindan aniqlash, konvertlarni ochish, tanlov savdolari g'oliblarini aniqlash va tanlov savdolari o'tkazish tartiboti bilan bog'liq bo'lgan boshqa protokollardir.

Tanlov savdolari buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangandan keyin tugallangan hisoblanadi.

Buyurtmachi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi bilan kelishilgan kundan boshlab besh kun muddatda ommaviy axborot vositalarida tanlov savdolari natijalari (predmeti, g'olibi, investisiya loyihasining shartnomaviy narxi va uni amalga oshirish muddati) to'g'risidagi axborotni e'lon qiladi.

Tanlov savdolari o'tkazilmagan hisoblanadi agar:

ofertalarni taqdim etish muddatida uchtdan kam oferta tushsa, ushbu Nizomning 25-bandida ko'rsatilgan hollardan tashqari;

ofertalar tanlov hujjatlari shartlariga muvofiq bo'lmasa;

ofertalarda tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani ta'minlash kafolati mavjud bo'lmasa;

oferentlar tomonidan taklif etilgan narxlar tanlov savdolari predmeti boshlang'ich qiymatidan ancha ortiq bo'lsa;

"Davarxitektqurilish" qo'mitasi bilan kelishuv bo'yicha tanlov komissiyasi tomonidan asoslangan boshqa holatlar paydo bo'lsa.

Tanlov savdolarining o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi asosiy qatnashchilardan birontasining mulkiy yoki boshqacha tushadagi javobgarligiga olib kelmaydi.

Agar tanlov savdolari o'tkazilmagan deb e'tirof etilsa tanlov savdolari takroran o'tkaziladi, bunda tanlov hujjatlari shartlarining qaytadan ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yiladi.

Tanlov savdolari tashkilotchisi ular tugallangandan keyin tanlov savdolari g'olibiga besh kundan kechikmay yozma bildirishnoma jo'natadi.

Shartnoma tanlov savdolari g'olibi bildirishnomani olgan kundan boshlab o'n kun muddatda tuziladi.

Agar tanlov savdolari g'olibi shartnoma tuzishni rad etsa yoki shartnoma ijrosini ta'minlashni belgilangan muddatda taqdim etmasa, u holda buyurtmachi tanlov komissiyasi bilan birgalikda ofertasi ikkinchi bahoni olgan oferentni tanlov savdolari g'olibi deb e'tirof etishi yoki takroriy tanlov savdolari o'tkazishni tayinlashi mumkin.

Shartnoma ijrosini ta'minlash miqdori buyurtmachi tomonidan, lekin tanlov savdolarida belgilangan qiymatning ko'pi bilan 10 foizi miqdorida belgilanadi.

Tanlov savdolari natjalari bo'yicha tuzilgan, erkin muomaladagi valyutada amalga oshiriladigan shartnomani ro'yxatdan o'tkazish belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligida amalga oshiriladi.

9. Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish hamda tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish tartibi monitoringi

Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish, tanlov savdolarini o'tkazishning maqsadga muvofiqligi hamda uning metodlari va usullarining asoslanganligini aniqlash, tanlov savdolarini tashkil etish, tanlov savdolarini o'tkazish shartlari va tartibotiga rioya qilish monitoringi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tanlov hujjatlari ekspertizasi shartnoma asosida o'tkaziladi.

Tanlov savdolari tashkilotchisi tomonidan tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar shartlariga hamda Nizomga rioya qilinishi tanlov hujjatlari ekspertizasi predmeti hisoblanadi.

10. Narxlarga tuzatishlar kiritish va sug'urta

Tanlov savdolarida belgilangan narx qat'iy narx hisoblanadi.

Birinchi moliyaviy yil mobaynida narxlarga hamda tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilish yuzasidan shartnomani bajarish muddatiga tuzatishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Ikkinchi yil va undan keyingi yillar uchun shartnoma narxlariga tuzatishlar kiritish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tanlov savdolari g'olibi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ob'yekt qurilishining sug'urta qilinishini ta'minlaydi.

11. Tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish xarajatlari

Tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish, tanlov hujjatlarini ishlab chiqish bilan bog'liq xarajatlar shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Tanlov savdolari tanlov savdolari predmetini sotishning maqsadga muvofiq emasligi sababli bekor qilingan taqdirda ularni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar amaldagi xarajatlar bo'yicha buyurtmachi tomonidan qoplanadi.

12. Tanlov savdolari qatnashchilarining javobgarligi

Tanlov savdolari qatnashchilari qonun hujjatlariga va ushbu Nizom talablariga muvofiq javob beradilar.

Buyurtmachi quyidagilarga javob beradi:

tanlov komissiyasini shakllantirishda uning tarkibiga oid talablarga rioya etilishi;

tanlov savdolari predmeti uchun nazarda tutilmagan shakllar bo'yicha tanlov savdolarini amalga oshirish imkonini beradigan uning qiymatini kamaytirish maqsadida tanlov savdolari predmetini bo'lishga yo'l qo'yilishi;

tanlov savdolari g'olibi bilan shartnoma tuzish muddatining buzilishi;

shartnomada kelishilgan muddatlarda fizik, sifatga doir va texnik parametrlar bo'yicha shartnoma shartlarining bajarilmaganligi;

tanlov shartlarining bajarilishi monitoringi uchun noto'g'ri axborot taqdim etilganligi;

tomonlar o'rtasidagi shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi tugallangandan keyin uch yil mobaynida ofertalar originallarining saqlanmaganligi;

tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish tartibotlarining boshqacha buzilishlari uchun.

3-MAVZU. INVESTISIYA SIYOSATI, INVESTISIYA JARAYONI VA INVESTISIYA LOYIHALARI

3.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida investisiya siyosatining mohiyati va xususiyatlari.

3.2 Investisiya-qurilish jarayoni, uni tashkil qilish va samaradorligi.

3.3. Investisiya loyihalari va investisiya dasturlari hamda ularning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o'rni.

3.4 Investisiya dasturini shakllantirish tartibi.

3.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida investisiya siyosatining mohiyati va xususiyatlari

Ma'lumki, dunyodagi har qanday mamlakat muvaffaqiyatli rivojlanmoqda yoki aksincha, rivojlanish ko'rsatkichlari juda past bo'lmoqda. Buning sababi esa avvalo davlat hokimiyati olib borayotgan siyosatdir. Ya'ni davlat siyosati - bu mamlakat taraqqiyoti taktikasi va strategiyasini to'liq aks ettiruvchi siyosat bo'lib, shu siyosat tufayli ushbu mamlakat dunyoning boshqa davlatlari tomonidan tan olinadi yoki e'tiborga olinmaydi.

Davlat iqtisodiy, harbiy-texnik, agrar, sanoat, ta'lim, siyosat, savdo va boshqa sohalarda turli siyosatlar olib borishi mumkin. Ba'zan bu siyosatlarning umumiy nuqtasi mavjud bo'lib, iqtisodiy siyosatda kompleks aks etishi mumkin. Shuning uchun iqtisodiy siyosat u yoki bu mamlakatning umumiy davlat siyosatida hal qiluvchi, eng muhim siyosat hisoblanadi.

Investisiya siyosati ham mamlakatdagi iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismidir.

Bugungi sharoitlarda, masalan, O'zbekistonda bu siyosat shahar va qishloqlarni qayta ta'mirlash va obodonlashtirishga, yangilarini qurishga, sanoat va iqtisodiyotning


boshqa tarmoqlarida ishlab turgan korxonalarni kengaytirish va texnik qayta jihozlash, aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, qazilma boyliklar zahirasi xo'jalik aylanmasiga samarali jalb qilishga, tabiatni muhofaza qilish va hokazolarga qaratilgan.

Demak, investisiya siyosati - bu davlatning ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirishni, iqtisodiyotni modernizatsiyalashga qaratilgan siyosatidir. Bu siyosat ko'p jihatdan kapital qo'yilmalarning ustivor yo'nalishlarini to'g'ri tanlashga bog'liqdir.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov investisiya siyosatining iqtisodiy o'zgarishlarga va mamlakat salohiyatini yanada yuksaltirishga chambarchas bog'liqligini ta'kidlagan holda mamlakat mustaqillikka erishgan dastlabki yillardayoq shunday degan edilar: "investisiya bazasini rivojlantirish va chuqurlashtirish - islohotchilik siyosatimizning eng muhim shartidir. Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, eksport salohiyatini kengaytirish faqat kuchli investisiya siyosati sharoitidagina mumkindir".

To'g'ri tanlangan investisiya siyosati tufayli kimyo va neft-kimyo sanoati, mashinasozlik va metallarni qayta ishlash, yengil sanoat, oziq-ovqat va yog'ochni qayta ishlash sanoati, elektr energetika va boshqa tarmoqlar rivojlandi. Davlatning yangi investisiya siyosatidagi eng muhim yutug'i shuki, respublikada yangi tarmoq - milliy avtomobilsozlik sanoati tashkil qilindi, bir qator "eski" tarmoq va ishlab chiqarish sohalari yangilandi. 1998 yildan boshlab investisiyalarning asosiy qismi qayta ishlash tarmoqlarini va infratuzilmani tashkil qilishga yo'naltirilmoqda. Ayni paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan investisiyalarning absolyut hajmlari ortib bormoqda. 1998 yilda bu ko'rsatkich 369,7 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2004 yilda 2,4 trln so'mdan ortib ketdi.

O'zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investisiyalarning roli kuchayib bormoqda. 1993 yilda jami investisiya hajmining atigi 0,1 foizi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2000 yilda bu ko'rsatkich 22 foizni tashkil qildi. Bu muddat ichida xorijiy investisiyalar ishtiroq etgan holda davlat ro'yxatidan o'tgan korxonalar soni 17 baravar ortdi. Investisiya siyosatining O'zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy siljishlarga ta'siri 2.2. va 2.3-rasmlarda ko'rsatilgan.



2.2-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotining tuzilmasi (1991 yil)



2.3-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotining tuzilmasi (2015 yil)

3.2. Investisiya-qurilish jarayoni, uni tashkil qilish va samaradorligi

Investisiya-qurilish jarayoni ijtimoiy ishlab chiqarishning eng muhim elementidir. Uningsiz takror ishlab chiqarishni tasavvur qilish mumkin emas. Bu faqat tabiiy eskirish jarayonida ishdan chiqayotgan mehnat vositalarini almashtirish emas, balki ishlab chiqarish quvvatlarini kuchaytirish, shu jumladan yuqori sifat darajasini, iqtisodiy o‘shishni va aholining farovon turmush darajasini ta’minlashdir.

Investisiyalash va qurilishni, investisiya va qurilish jarayonlari kabi ko‘pincha alohida o‘rganish mumkin. Ammo investisiya resurslarining 60 foizdan ko‘proq qismi qurilish sohasida foydalanilayotganligini hisobga oladigan bo‘lsak, bu tushunchalar ko‘pincha aynan qurilish majmuasining iqtisodiy samaradorligini baholashda qo‘llaniladi.

Investisiya-qurilish jarayoni ham zamonda, ham makonda amalga oshiriladi. Umumiqtisodiy va ijtimoiy jarayonning tarkibiy qismi bo‘lgan investisiya jarayoni investisiya maqsadlarining texnik-iqtisodiy asoslashni (T_1), ob’ekt va inshootlarni

o'rganish va loyihalashni (T_2), qurilishning o'zini (T_3) va ob'yektni foydalanishga topshirishni, uni sinash, tekshirish va ekspertlar tomonidan baholashni o'z ichiga oladi. Bundan kelib chiqqan holda vaqtda o'lchanadigan investisiya jarayoni quyidagi formula orqali aniqlanishi mumkin:

$$T_{ip} = T_1 + T_2 + T_3 + T_4$$

Qurilish jarayoni - investisiya jarayoni hamda qurilishning iqtisodiyotning bir tarmog'i sifatida faoliyat ko'rsatishining asosiy bosqichidir. Uning tashkiliy tizimi uch bosqichdan iboratdir:

- qurilishni tayyorlash;
- bevosita qurilish jarayonining o'zi;
- tayyor qurilish mahsulotini realizatsiya qilish.

Qurilishni tayyorlash qurilish ob'yektning maqsadga muvofiqligini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA), ob'yektni loyihalash va qurilishga injener-texnik tayyorgarlik ko'rishdan iborat. Ushbu yo'nalishlarning har biri o'zining maqsadli vazifalariga ega.

Bevosita qurilish - bu bino va inshootlarni qurib, ko'tarish jarayoni bo'lib, qurilish maydonchalarida bevosita amalga oshiriladi. Shuning uchun qurilish maydonchasini "noldan" qurilish ob'yektning tayyorlik holatigacha bo'lgan bevosita qurilish jarayonining o'ziga tenglashtiriladi.

Qurilish mahsulotining realizatsiyasi - qurilishi tugallangan ob'yektlarni foydalanishga topshirish va ularni belgilangan tartibda buyurtmachiga (investorga) topshirishdir. ob'yektlar buyurtmachiga o'tkazilgach, ular iqtisodiyot balansida asosiy fond sifatida ko'rsatiladi.

Qurilish investisiya jarayonining o'zagidir. Ob'yektlarni, ayniqsa sanoat-qurilish ob'yektlarini qurishda u jami investisiya siklining 50 foizi va undan ko'p qismini egallaydi. Masalan, amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, o'rtacha quvvatli mashinasozlik korxonasini qurishda, turli tadqiqotlar va asoslashlarga o'rtacha 1-1,5 yil ketadi, loyiha ishlab chiqishga - 1 yilgacha, qurilishga 3-4 yil, foydalanishga topshirish va sinab ko'rishga esa kamida yarim yil ketadi.

Shunday qilib, o'rtacha quvvatli korxonani qurishga ketadigan investisiya jarayonining muddati taxminan 5-7 yilni tashkil qiladi. Bugungi kunda ilg'or qurilish texnika va texnologiyalari, quruvchilarning g'ayrat-shijoati qurilish ishlab chiqarishini tashkil qilish tizimi yetarlicha darajada yaxshi yo'lga qo'yilganda ob'yektlarni qurish va foydalanishga topshirishga nisbatan qisqaroq muddatlar ketadi, natijada investisiya resurslarining samarasi eng yuqori bo'ladi. Bunga o'z paytida Asakada foydalanishga topshirilgan avtomobil zavodi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi misol bo'la oladi.

Bu ob'yektlar qurilgan va ishlayotgan bo'lsa, u holda bugungi kunning nuqtai nazaridan Kungrad soda zavodi, Qizilqum fosforit kombinati va Andijon biokimyo zavodida, Angrendagi kaolin fabrikasining birinchi navbati, Toshkent, Buxoro, Samarqand va Urganchdagi aeroportlarda qurilish sur'atlar bilan bormoqda. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi, Toshkent - Andijon - O'sh - qashqar avtomobil yo'lining dovon uchastkasi haqida ham aynan shunday gaplarni aytish mumkin.

Investisiya-qurilish faoliyatini samarali tashkil qilish quyidagi bir qator vazifalarning hal qilinishini ko'zda tutadi:

- investisiya jarayonining asosiy bo'g'ini sifatida qurilish faoliyatini tashkil qilishdagi asosiy yondashuvlar;
- olish investisiya-qurilish faoliyatini tashkil qilishda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini hisobga;
- investisiyalashda ustivor yo'nalishlarni tanlash va investisiyalardan foydalanish samaradorligini baholash;
- qurilishda yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni tashkil qilish va uning samaradorligini baholash;
- pudrat tanlovlarini o'tkazishni tashkil qilish;
- investisiya-qurilish risklarini boshqarish;
- moliyaviy resurslarni shakllantirishni va ulardan foydalanishni tashkil qilish;

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish investisiyalar hamda qurilish ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishgagina emas, balki mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurishni muvaffaqiyatli amalga oshirishga va qulay investisiya muhitini yaratish muammosining hal qilinishiga ham imkon beradi.

Ayni paytda investisiya-qurilish faoliyatining boshqaruv tizimini qayta qurish ham muhim vazifalardan biri bo'lib, u quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- a) markazlashgan rejalashtirishni bartaraf qilish va qonunlar, me'yorlar va standartlar yordamida davlat boshqaruviga o'tish;
- b) o'zaro munosabatlarning, shu jumladan davlat boshqaruv tuzilmalari bilan bo'ladigan munosabatlarning shartnoma (kontrakt) shakllarini rivojlantirish;
- v) tarmoqlarda kompleks boshqaruv tizimlarini rivojlantirish bilan birgalikda ixtisoslashgan hisobga o'tish va tashkiliy boshqaruvning yanada mustaqilroq tuzilmalarini barpo qilish;
- g) investisiya-qurilish faoliyatini boshqarishning "loyihani boshqarish" tizimini keng joriy qilishga o'tish;

Investisiya-qurilish faoliyatini tashkil qilishda asosiy "figura" - bu investor bo'lib, u kapitalni qo'llash siyosati va taktikasini belgilaydi. Ammo baribir investisiya-qurilish faoliyatining samaradorligi avvalo qurilish ishlab chiqarishini mahorat bilan tashkil qilishga, resurslarni tejashdan to qurilishga sarflanayotgan har bir so'm yoki boshqa pul birliklarining yuqori samara berishiga erishishgacha bo'lgan butun qurilish jarayonini boshqarishning rasional shakllariga bog'liqdir. Buning uchun muddati cho'zilib ketgan qurilishlarning vujudga kelishiga, kapital qo'yilmalarning ko'plab ob'yektlarga taqsimlanib ketishiga, tugallanmay qolib ketgan ob'yektlarning paydo bo'lishiga va boshqa noishlab chiqarish harajatlariga yo'l qo'yimaslik juda muhimdir. Ayniqsa, ish vaqtining bekorga sarf bo'lishiga yo'l qo'yish mumkin emas, chunki bekor turib qolish va ish vaqtidan samarasiz foydalanish - qurilish muddatining cho'zilishiga va kapital qo'yilmalar samarasining pasayib ketishiga sabab bo'ladigan eng muhim sababdir.

3.3. Investisiya loyihalari va investisiya dasturlari hamda ularning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o'rni.

Hozirgi kunda O'zbekiston hukumati mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning faqat o'rta muddatli emas, balki o'zoq muddatli (2005-2010 yy.) rejasini tayyorlash va uni amalga oshirish ustida ham ish olib bormoqda. Unda iqtisodiy islohotlarning samaradorligini ta'minlashdan tashqari, ijtimoiy taraqqiyot va xalq turmush farovonligini yaxshilash, hududiy yaxlitlikni ta'minlash, iqtisodiy qayta tuzilmalash, ishlab chiqarish kuchlaridan samarali foydalanish ham ko'zda tutilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda esa maqsadga yo'naltirilgan investisiya siyosati ham, ilmiy asoslangan investisiya loyihalari va dasturlari ham katta rol o'ynaydi.

Investisiya loyihasi - bu shunday hujjatki, unda kapitalni iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalariga yo'naltirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi ko'zga tutilgan bo'lib, bu chora-tadbirlardan maqsad ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirish va mavjud ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlashdir. Ushbu kapital qo'yilmalar quyidagi maqsadlarga sarflanishi mumkin:

- yangi qurilishga;
- ishlab turgan korxonalarni kengaytirish va qayta ta'mirlashga;
- ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va mehnat vositalarini modernizatsiyalashga;
- mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviy talablar darajasida saqlab turishga va hokazo.

Investisiya loyihasining qurilish loyihasidan farqlay bilish lozim. Ma'lumki, qurilish loyihasida muayyan ob'jektning qurilishi bilan bog'liq texnik, iqtisodiy, tashkiliy, konstruktiv va boshqa yechimlar ko'rsatilgan bo'ladi. Qurilish loyihasi - bu avvalo u yoki bu ob'jektning qurilishi bilan bog'liq texnik-iqtisodiy asoslash, tushuntirish xati, chizmalar va smetalarni o'z ichiga olgan hujjatlar to'plamidir.

Masalan, tushuntirish xatida loyihaning asosiy g'oyasi va uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari asoslab berilgan bo'ladi. Chizmalar loyihalanayotgan ob'jekt haqida yaqqol tasavvur hosil qiladi, qurilish bevosita shu chizmalar asosida amalga oshiriladi. Smeta qurilishning qiymatini xarakterlaydi; uning asosida moliyalashtirish liniyasi ochiladi va kelgusi pul hisob-kitoblari amalga oshiriladi.

Qurilish loyihasi boshqa turdagi hujjatlarni, masalan, qurilishni tashkil qilish loyihasi (QTL), ishlarni amalga oshirish loyihasi (IAL), materiallar, konstruksiyalar va asbob-uskunalarini yetkazib berish jadvali va hokazolarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Ya'ni qurilish loyihasi - bu ko'proq quruvchilar - prorablar, katta prorablar, qurilish uchastkasi va boshqarmalar boshliqlarining qo'lida bo'ladigan hujjatdir. Moliyalashtirish manbalari tomonidan tasdiqlangan qurilish loyihalari va qurilishga ajratilgan yer maydonlari qancha ko'p bo'lsa, qurilish uchun buyurtmalar "portfeli" ham shunchalik to'laroq bo'ladi.

Endi esa investisiya loyihalariga qaytamiz. Aytib o'tilganlardan tashqari, investisiya loyihalari kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, bank va umumuan moliya-kredit tiziminining faoliyatini yaxshilash, mavjud injener kommunikatsiyalarini modernizatsiyalash, ekologiyani va atrof-muhitni sog'lomlashtirish, biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilishi va kelgusida amalga oshirilishi mumkin.

Bugungi kunda korxonalar miqyosidagi investisiya loyihalari, odatda, investisiya tanloviga havola etish uchun ularning xususiylashtirish dasturiga mos

ravishda ishlab chiqilmoqda. Bunda masalan, qurilishi bilan bog‘liq bo‘lgan investisiya loyihasini tayyorlash va uni amalga oshirish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- investisiya g‘oyasini shakllantirish;
- investisiya imkoniyatlarini o‘rganib chiqish;
- loyihani texnik-iqtisodiy asoslash;
- yer maydoni ajratish, sotib olish yoki ijaraga olish;
- kontrakt hujjatlarini tayyorlash;
- loyiha hujjatlarini tayyorlash;
- qurilish-montaj ishlarini, shu jumladan ishga tushirish va sozlash ishlarini amalga oshirish;
- ob‘yektdan foydalanish, iqtisodiy ko‘rsatkichlar monitoringi.

Tabiiyki, bir korxonaning investisiya loyihasi mazmun jihatdan boshqa korxonaning loyihasi bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Har bir investisiya loyihasi ma‘lum bir maqsad va vazifalarga qaratilgan bo‘ladi va binobarin, ulaning moliyalashtirish manbalari ham, pirovard natijalari ham turlicha bo‘ladi.

Ma‘lum bir maqsadga qaratilgan investisiya loyihalari yoki takliflar majmumasi **investisiya dasturini** tashkil qiladi. Investisiya dasturi o‘z ko‘lamiga qarab davlat, mintaqa yoki tarmoq miqyosida bo‘lishi mumkin. Bunga davlat investisiyalari dasturini misol qilib keltirish mumkin. Bu dastur ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishda jiddiy o‘zgarishlarni ko‘zda tutadi.

Investisiya loyihalari va dasturlari quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

- ishlab chiqarish apparatini muntazam yangilab borish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta‘minlash;
- fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini va raqobatbardoshligini yaxshilashga;
- iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini bir tekisda rivojlantirishga;
- sanoat uchun kerakli xom ashyo bazasini barpo etish va mintaqalardagi ishlab chiqarish kuchlarini tenglashtirish;
- fuqarolik qurilishi, sog‘liqni saqlashni, oliy va o‘rta maktabni rivojlantirish, uy-joy muammosini hal qilishga;
- bozor mexanizmi va raqobat talablaridan kelib chiqqan holda aholini ish bilan ta‘minlash, ishsizlik muammosini yumshatishga;
- tabiiy muhitni muhofaza qilish, ekologik vaziyatni yaxshilash va boshqa maqsadlarga erishishga.

Unga ko‘ra Respublika yalpi ichki mahsulotining barqaror o‘sishini ta‘minlash, iqtisodiyotdagi tarkibiy qayta o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, strategik ijtimoiy dasturlarni to‘liq ko‘lamda amalga oshirish, yangi ish o‘rinlari tashkil etish, shuningdek to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalarning jalb etilishini kengaytirish maqsadida 2005 yil uchun davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalar limitlari, byudjetdan tashqari Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalar limitlari, byudjetdan

tashqari Maktab ta'limi jamg'armasi mablag'alari hisobiga markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar limitlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida xorijiy kreditlarni jalb etgan holda amalga oshiriladigan 2015 yil uchun investisiya loyihalarining aniq dasturlari tasdiqlangan.

Qaror moddalariga ko'ra markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobiga amalga oshirilayotgan investisiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida loyihalash va ekspert tashkiloti aybi bilan yo'l qo'yilgan qo'shimcha ishlar va xarajatlar hajmi aniqlangan taqdirda ushbu loyihani ishlab chiqish yoki ekspertizadan o'tkazish uchun to'langan summaning hammasi ko'rsatib o'tilgan tashkilotlardan davlat byudjeti daromadiga olib qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2005 yil 11 apreldagi **«To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»**gi Farmoniga ko'ra mamlakatda investisiya muxitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarni jalb etish, shunindek, xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta'minlash maqsadida bir qator huquqiy kafolat va imtiyozlar belgilangan.

2005 yilning 1 iyulidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha daromad (foyda) solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i, ekologiya solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shunindek, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashdan ozod qilinadi. Bunday imtiyozlar to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalar hajmi quyidagicha bo'lgan hollarda beriladi:

300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha – 3 yil muddatga;

3 milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha – 5 yil muddatga;

10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil muddatga.

3.4 Investisiya dasturini shakllantirish tartibi.

Investisiya dasturi respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar kompleksi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-son qaroriga ko'ra «O'zbekiston Respublikasi Investisiya dasturini shakllantirish tartibi to'g'risida NIZOM» qabul qilindi va unda investisiya dasturini shakllantirishning umumiy qoidalari, moliyalashtirish va amalga oshirish monitoringi yoritib berilgan.

Investisiya dasturi respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlarining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat investisiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi.

tarkibiy o‘zgartirishlar vazifalari va amalga oshirilayotgan investisiya siyosatiga muvofiq mablag‘ qo‘yishning o‘zaro manfaatlilik asosida xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, tomonlarning investisiya majburiyatlari asosida shartnomalar tuzish amaliyotini joriy etish;

investisiya loyihalarini Dasturning aniq ro‘yxatiga oldindan belgilangan mezonlar asosida kiritish;

ilgari boshlangan ob‘yektlarni tugallash uchun markazlashtirilgan investisiyalarni birinchi navbatda ajratish.

Loyihalarni tanlab olishda ularning samaradorligi, respublika iqtisodiyoti ayrim tarmoqlarini va mintaqalarini rivojlantirish ustuvorliklari, mahsulot sotish ko‘rsatkichlari, shu jumladan eksportga yo‘natirilganlik, butlovchi buyumlar va komponentlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishda qatnashish va shu kabilar asosiy mezonlar hisoblanadi.

Dasturda loyihaning baholash qiymati, tugallanmagan qurilish va qurilishni tugallash hamda foydalanishga topshirish uchun yillar bo‘yicha joriy narxlarda moliyalashtirishga ehtiyoj, moliyalashtirishning tasdiqlangan manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Dasturni ishlab chiqishda yirik va o‘ta muhim loyihalar alohida, katta bo‘lmagan bir tipdagi loyihalar yaxlit kiritilishi mumkin (masalan: maktablar, qishloq vrachlik punktlari qurilishi va boshqalar).

Dastur yig‘ma jadvallari bilan tahliliy qismdan, aniq dasturdan va ustuvor investisiya takliflarining yig‘ma ro‘yxatidan iborat bo‘ladi.

Dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha barcha ishlarni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi muvofiqlashtiradi.

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi.

Investisiya dasturining tahliliy qismi respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘langan holdagi kapital qo‘yilmalar hajmlari va moliyalashtirish manbalarini asoslashdan, Dastur samaradorligini baholash, loyihalarni tanlab olish mezonlaridan iborat bo‘ladi.

Tahliliy qism tarkibida investisiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibini hisobga olgan holda umuman Dastur, iqtisodiyot sektorlari va tarmoqlari, moliyalashtirish manbalari va hududlar, amalga oshirish yillari bo‘yicha kapital qo‘yilmalar tarkibi belgilanadi.

Dasturning yalpi ichki mahsulot o‘rishiga, iqtisodiyotning tarmoq va hududiy o‘zgarishiga, eksport va import tarkibiga, ishlab chiqarish quvvatlarini va ijtimoiy soha ob‘yektlarini ishga tushirish hajmlariga ta’sirining prognozlashtirilayotgan natijalari hisob-kitob qilinadi.

loyihaning tarmoqni rivojlantirish strategiyasiga muvofiqligi;

moliyaviy va iqtisodiy samaradorlik;

mahalliy xom ashyodan va butlovchi buyumlardan foydalanish darajasi;

tayyorlangan mutaxassislarning mavjudligi;

loyihaning amalga oshirishga tayyorlanganligi darajasi;
ishga tushirilgandan keyin foydalanish xarajatlari.

Qurilishlarning aniq va titul ro'yxatlarini shakllantirish

Buyurtmachilar tasdiqlangan Investisiya dasturi asosida vakolatli banklarda moliyalashtirishni rasmiylashtirish uchun har yili qurilishlarning aniq ro'yxatini va Dasturni amalga oshirishning ikkinchi va uchinchi yillariga kiritilgan ob'yektlar bo'yicha loyihala-qidiruv ishlarining aniq ro'yxatini aniqlashtiradilar.

Markazlashtirilgan manbalar va davlat korxonalari mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan qurilishlarning aniq ro'yxatlari Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishgan holda investorlar (buyurtmachilar) tomonidan tasdiqlanadi.

Boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladigan qurilishlarning aniq ro'yxatlari investorlar (buyurtmachilar) tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlanadi.

Kredit resurslarini jalb etgan holda amalga oshirilayotgan investisiya loyihalarining aniq ro'yxatlari tegishli kredit shartnomasi yoki kreditlovchi bankning yozma roziligi mavjud bo'lganda tasdiqlanadi.

Qurilishlarning aniq ro'yxati birinchi yil mobaynida tanlov savdolari yoki Yirik va strategik muhim investisiya loyihalarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish kengashining alohida qarorlari bo'yicha aniqlashtirilishi mumkin.

Qurilishning titul ro'yxati tasdiqlangan limitlar doirasida qurilishning butun davriga tuziladi va Investisiya dasturi tasdiqlangandan keyin 2 oydan kechiktirilmasdan tanlov savdolari natijalariga ko'ra shakllantiriladi.

Qurilishning titul ro'yxati investor (buyurtmachi) tomonidan pudratchi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

Qurilishning tasdiqlangan titul ro'yxatida kapital qo'yilmalar limitlari umuman investisiya loyihasini amalga oshirish uchun nazarda tutiladi, bunda qurilish-montaj ishlari, asbob-uskunalar xarid qilish, loyiha-qidiruv ishlari xarajatlari va boshqa xarajatlar (pudratchi va buyurtmachi xarajatlari alohida ko'rsatiladi) qurilish yillari bo'yicha taqsimlangan holda ajratib ko'rsatiladi.

Birinchi moliyaviy yilda qurilishning titul ro'yxatida loyiha-qidiruv, qurilish-montaj ishlari ko'rsatkichlari aniqlashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Investisiya dasturini shakllantirish muddatlari

Uch yillik Dasturni shakllantirish jarayoni bir yillik siklga ega bo'ladi hamda yangilangan Dasturni har yilning oxirigacha tayyorlashni ta'minlovchi ilovaga muvofiq qat'iy jadvalga tayanadi.

Investisiya dasturiga kiritish uchun takliflar tayyorlashda buyurtmachilar quyidagi tartibga amal qilishlari kerak:

Dasturni amalga oshirishning birinchi yiliga kelgusi yillar loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati va moliyalashtirish bilan ta'minlangan (kelgusi yilga o'tuvchi va yangidan boshlanayotgan) qurilishlarning aniq ro'yxati tuziladi;

Dasturni amalga oshirishning ikkinchi yiliga unga kelgusi yillar loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati va birinchi yildan o'tuvchi qurilishlarning prognoz ro'yxati va Dasturni amalga oshirishning birinchi yilida loyiha hujjatlari tayyorlangan va tasdiqlangan, birinchi yilda tanlov savdolariga tayyorlanadigan yangidan boshlanadigan ob'yektlar kiritiladi;

Dasturni amalga oshirishning uchinchi yiliga unga kelgusi yillar loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati va tanlov savdolari natijalariga ko'ra belgilangan amalga oshirish muddatlarini hisobga olgan holda qiymati belgilangan tartibda aniqlashtirilgan birinchi va ikkinchi yildan o'tuvchi qurilishlarning prognoz ro'yxati, loyiha hujjatlari ikkinchi yilda tayyorlanadigan va tasdiqlanadigan yangidan boshlanadigan ob'yektlar kiritiladi.

Dasturni moliyalashtirish

Quyidagilar Dasturni moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

a) markazlashtirilgan investisiyalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

davlat byudjeti mablag'lari;

davlat byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari;

Hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar;

Hukumat qarorlariga ko'ra belgilanadigan boshqa manbalar;

b) markazlashtirilmagan investisiyalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

mul'kiylikning barcha shakllaridagi korxonalar mablag'lari;

tijorat banklarining, shu jumladan xorijiy tijorat banklarning kreditlari;

jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy jismoniy shaxslar mablag'lari;

qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar.

Markazlashtirilgan investisiyalar respublika iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni, respublikaning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirishni, amalga oshirish moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobiga mumkin bo'lmagan ijtimoiy muammolarni va boshqa muammolarni hal etishni ta'minlovchi respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlarida asosiy fondlarni yaratish va ko'paytirish uchun foydalaniladi.

investisiya loyihalarini, va birinchi navbatda, markazlashtirilgan investisiyalardan foydalangan holda ro'yobga chiqarilayotgan investisiya loyihalarini o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

loyihalarining belgilangan tartibda tasdiqlangan parametrlariga (texnik-iqtisodiy asoslashlar, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar), tanlov savdolari (tenderlar) shartlariga rioya qilish;

amalga oshirilayotgan loyihalar bo'yicha axborot bazasini shakllantirish;

investisiya loyihalarini amalga oshirishda paydo bo'ladigan muammoli masalalarni kuzatib borish;

investisiya iqlimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Monitoring har oyda statistika hisoboti va so'rov yo'li bilan Iqtisodiyot vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Monitoring natijalari Dasturning amalga oshirilishi to'g'risidagi har choraklik axborotlarni tayyorlashda hamda navbatdagi uch yillik davrga Dasturni shakllantirishda foydalaniladi.

4-MAVZU. INVESTISIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

USLUBLARI.

Reja

4.1. Investisiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash nazariyasi va amaliyoti tarixi.

4.2. Investisiyalar tuzilmasi va ularni investision qarorlar samaradorligiga ta'siri.

4.3. Investisiyalarni iqtisodiy samaradorligini baholash uslublari.

4.4 Investisiyalarni iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari.

4.1. Investisiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash nazariyasi

Investisiyani samaradorligini 1917 yilgacha baholash bo'yicha ilmiy ishlar asosan ishlab chiqarish fabrikalari va zavodlarini yaratish ayniqsa Rossiyada temir yo'llarini qurilishi va eksploatatsiya qilinishi bilan bog'liq bo'lgan. Bundan xususan Yu.V. Lomonosovning 1912- yilda Odessada chop etilgan «Temir yo'llarni eksploatatsiya qilishning ilmiy muammolari» kitobi, M.G. Destremning «Kanallar va temir yo'llarning nisbiy foydaliligi va Rossiyada yuklarni tashishning eng qulay usulini aniqlash uchun berilgan takliflarini qulayrog'ini tanlash bo'yicha umumiy mulohazalar» kitobi (1831) dalolat beradi

Samaradorlik masalalari va jumladan investisiya loyihasini ko'proq foydali variantini tanlash A. Vasyutinskiy va V. Yasinining 1905-1908 yillarda chop etilgan hamda «Hozir arzonroq tutilgan narsa, keyinchalik ham arzon keladigan narsa emas» (1912 y) deb hisoblagan V. Sokalskiylar mehnatlarida o'z aksini topdi.

1934 yilda M.Protodyakonov kapital qo'yimlarning nisbiy iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichi sifatida harajatlarni izohlashishini hisobga olinishi bilan aniqlanadigan, qurilish - eksploatatsiya harajatlari keltirilgan miqdorni taklif qiladi. Ushbu ko'rsatkich bir qator kamchiliklarga ega bo'lsa ham bozor iqtisodiyotiga o'tish davrigacha investisiya loyihalari qiyosiy samaradorligining muhim ko'rsatkichi hisoblangan.

Kapital qo'yimlarning samaradorligi nazariyasi va amaliyoti rivojiga akademik Xachaturov.T.S katta hissa qo'shgan. U 40-yillarning oxirida kapital qo'yimlarning umumiy (absolyut) samaradorligi tushunchasini kiritgan va uni milliy daromaddagi o'sishning, ushbu o'sishni yuzaga keltirgan kapital qo'yimlarga nisbati orqali aniqlashni taklif etgan.

Ko'rsatilgan sohadagi ilmiy ishlanmalar orasidan, asosiylari sifatida majburiy normalar va qoidalar maqomiga ega bo'lgan quyidagilarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- SSSR halq xo'jaligida kapital qo'yimlar va yangi texnika iqtisodiy samaradorligini aniqlashning namunali metodikasi(1960 y.).

- Kapital qo'yimlar iqtisodiy samaradorligini aniqlashning namunali metodikasi(1969y).

- Kapital qo'yimlar iqtisodiy samaradorligini aniqlashning namunali metodikasi (1980y).

- Kapital qo'yimlar samaradorligini aniqlash metodikasi (1988y).

- Investisiya loyihalari samaradorligini baholash va ularni moliyalashga tanlab olish bo'yicha metodik tavsiyalar (1994).

Tayyorlangan ishlanmalar investislar iqtisodiy samaradorligini baholashda tarmoqlar bo'yicha nizomlar va yo'riqnomalar tayyorlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Ularga asoslangan holda «Qurilishda kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha yo'riqnoma(S.N.423-71)», «Temir yo'l transportida kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha yo'riqnoma» (1973), «Daryo transportida kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha yo'riqnoma» (1974y), hamda loyihaviy yechimlarni iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha ko'rsatmalar va metodik tavsiyalar xuddi shunday ishlab chiqarilgan.

Hozirgi kunda olimlar va mutaxassislar 1994 yilgacha tayyorlangan ishlanmalarning ko'pchiligi bozor iqtisodiyoti talablariga javob bermasligi ta'kidlab o'tishmokda. Haqiqatdan ham bu ishlanmalarda inflyasiyani hisobga olmaslik, sharoitlarning noaniqligi va tavakkalchilik darajasi va hokozolar, kabi omillarga o'rin berilmagan, vaholanki u sharoitlarda bu tushunchalar nafaqat amaliy balki nazariy jihatdan ham hisobga olishga yo'l qo'yilmagan. Oldingi metodlarning kamchiliklari sifatida masalaning iqtisodiy va sosial tomonlarini zaif ishlab chiqilganligi, diskontlash koeffitsiyentini qabul qilishdagi munozaralar va baxslarni aytish mumkin. Biroq shunga qaramasdan ko'rilgan ishlanmalar iqtisodiy bilimlarning ma'lum yutuqlari sifatida, kapital qo'yilmalarning samarador baholashning boshlang'ich asosi bo'ladi.

4.2 Investisiyalar tuzilmasi va ularni investision qarorlar samaradorligiga ta'siri.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish kuchlarini va iqtisodiyotni tubdan modernizatsiyalashni muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun faqatgina miqdoriy emas, balki sifat jihatidan ham qaralishi muhimdir. Bugungi kunda biz faqatgina qancha miqdordagi investisiyaga ega ekanligimiz emas, balki undan qanday foydalanayotganimiz, ularning qoplanishi qanday ekanligi muhimdir. Investisiyalarning qoplanishi ko'p jihatdan kapital qo'yilmalarning tuzilmasiga, ya'ni kapital qo'yilmalarning umumiy hajmidagiga alohida harajatlarning ulushiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Hozirgi kunda investisiyalarning tuzilmaviy shakllanishini quyidagi turlarga ajratadilar.

1. Texnologik tuzilma.
2. Takror ishlab chiqarish tuzilmasi.
3. Tarmoqlararo tuzilma.
4. Hududiy tuzilma.

Investisiyaning texnologik tuzilmasi – bu qurilish-montaj ishlarini bajarish, asbob-uskunalar, mashinalar va boshqa mehnat vositalarini sotib olish hamda loyihaviy-qidiruv ishlarini amalga oshirish bo'yicha xarajatlarning o'zaro foizlardagi nisbatidir. Iqtisodiy jihatdan foydaliroq bo'lib shunday tuzilma hisoblanadiki, unda qurilish-montaj ishlariga harajatlarning ulushi kamayib boradi va ishlab chiqarish asbob-uskunalariga ketadigan harajatlar qismi nisbatan tezroq o'sib boradi. Biroq

texnologik tuzilma yaratilayotgan asosiy fondlarning xarakteri va qurilish tarmog'iga sezilarli darajada bog'liq. Takror ishlab chiqarish strategiyasi.

Investisiyalarning takror ishlab chiqarish tuzilmasi yangi qurilishlarga qilinayotgan xarajatlarni bilan, faoliyat yuritayotgan korxonani rekonstruksiya qilish, keqaytirish va texnik qayta qurollantirish harajatlari orasidagi shuningdek, asosiy fondlarni eskirishi sababli chiqarilishini qoplash xarajatlari o'rtasidagi o'zaro nisbatni o'zida aks ettiradi.

Bugun investision siyosat qayta ta'mirlashga, faoliyat yuritayotgan korxonalarni texnik ta'mirlash va kengaytirishga ajratilayotgangan harajatlarni ko'paytirishga, yangi qurilishni ulushini esa qisqartirishga sezilarli burilish qilmoqda, vaholanki, yangi qurilishlarsiz ilmiy – texnika taraqqiyotiga va raqobatbardosh zamonaviy ko'rinishdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga erishish qiyin.

Iqtisodiyotning hamma tarmoqlarini proporsional rivojlanishini ta'minlash va yetakchi tarmoqlarni ko'proq rivojlantirish hamda xududlar iqtisodiyotini yaxshilash va aholini yashash darajasini oshirish maqsadida investisiyaviy ustunlik ba'zasida va to'liq rivojlanishini iqtisodiy investisiyani optimal tuzilmasi va taqsimlanishini maksimal darajada maqsadga muvofiqligiga erishish zarur.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, investisiya tuzilmasini optimallashtirish hisobiga pul mablag'larini teng baholilik iqtisodiyotiga erishish mumkin, qaysiki u kapital qo'yilmalar chegaralangan sharoitda iqtisodiy yuksalish va ishlab chiqarish kuchlarini kelgusida rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun investision qarorlarni va ayniqsa investisiyalarni samaradorligini baholashda masalaning bu tomoni hisobdan tushurib qoldirmasligi va investision jaryonlarni boshqarishning barcha darajalarida ishlab chiqilishi zarur.

4.3 Investisiyalarni iqtisodiy samaradorligini baholash uslublari.

Rejalashtirishning barcha bosqichlari ijtimoiy ishlab chiqarishni samaradorligini o'sish rezervlarini aniqlashda va qurilish ob'yektlari yangi texnologiyani joriy etish hamda amaldagi ishlab chiqaruvchi fondlardan foydalanish analizida kapital qo'yilmalarining samaradorligi hisob kitoblari zarurdir.

Kapital qo'yilmalarni «samara» va «samaradorligi» tushunchalarini ajrata olish kerak. Birinchisi o'zida kapital qo'yilmalarni amalga oshirish natijasini aks etsa, ikkinchisi shu natija bilan asosiy harajatlarni hajmini taqqoslashni aks etadi. Samara ishlab chiqarishga oid va iqtisodiy bo'lishi mumkin. Birinchisini ko'pincha, mahsulot ishlab chiqarishining oshishi bilan yoki natural shakldagi mahsulot birligiga ketgan harajatlarning kamayishi bilan bog'lashadi, ikkinchisi esa qiymatga oid tomonini ifodalaydi, masalan yalpi mahsulot o'sishi, daromadlar o'sishi, ishlab chiqarish harajatlarning ma'lum bir miqdorda kamayishi - bu iqtisodiy samara hisoblanadi.

Samara kapital harajatlarning miqdori bilan, ham natural, ham qiymat shaklida taqqoslanishi mumkin. Samarani natural shaklda ifodalashda faqatgina bir mahsulot birligiga ketgan kapital xarajatlarning miqdorini ko'rsatish mumkin. Bu esa uni kapital sig'imidir, qiymat ko'rinishi esa kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Kapital qo'yilmalarni iqtisodiy samaradorligini aniqlaydigan asosiy tamoyillarga quyidagilar tegishli:

- Kapital qo'yimlarning iqtisodiy samarasi masalasiga, jami ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi muammosining tarkibiy qismidek qaralishi.
- Kapital qo'yimlar samaradorligini aniqlashda va uning yo'nalishini tanlashda iqtisodiyot nuqtai nazaridan yondashuv.
- Istiqboldagi omillarni hisobga olish.
- Qo'yiladigan iqtisodiy masalaning xarakteridan qat'iy nazar hisob-kitob metodini qo'llash va samaraning xarajatlar bilan bir o'lchovda olinishi.

Kapital qo'yimlarni iqtisodiy samaraligini aniqlashdagi eng muhim talablardan biri iqtisodiyot nuqtai nazaridan yondashuvdir. Kapital qo'yimlarni amalga oshirish bo'yicha qabul qilinadigan qarorlar nafaqat ushbu ishlab chiqarish tarmog'i, tashkilot, birlashma uchun samarali bo'lishi kerak, balki u butun iqtisodiyotning samaradorligini oshirish uchun ham xizmat qilish kerak.

Kapital qo'yimlarni iqtisodiyot samaradorligi avvalam bor erishiladigan natijalarga – ya'ni mahsulot ishlab chiqarish xajmini oshirish, ishlab chiqarishdagi joriy xarajatlarni kamaytirish, foydani o'sishi orqali erishiladigan samaraga bog'liq bo'ladi. Iqtisodiyot samaradorligi shuningdek kapital qo'yimlarni tejashga ham bog'liqdir. Samarani oshirish va kapital qo'yimlarni tejash organik ravishda vakti tejash bilan bog'liqdir, bu esa ijtimoiy ishlab chiqarish miqyoslarini jadallashtirishni va qo'yilgan maqsadga qisqa muddatlarda erishishni tavsiflaydi. Rivojlanayotgan bozor va bozor munosabatlari sharoitida vakt omili muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'jalik amaliyotida iqtisodiy hisob-kitoblar va kapital qo'yimlarni samaradorligini asoslashning ikki turi qo'llaniladi: umumiy (absolyut) va qiyosiy (solishtirma). Bunday yondashish ikki masala bilan bog'liq: ulardan bittasi nima ishlab chiqarish kerak degan savolga javob berishi uchun yechilsa, ikkinchisi esa qanday ishlab chiqarish kerak degan savolga yechim topadi. Kapital qo'yimlarga muvofiq ravishda, birinchi holda umumiy samaradorlikni aniqlash metodlarini qo'llaniladi, ikkinchisida esa qiyosiy(solishtirma) metodlar qo'llaniladi.

Umumiy iqtisodiy samaradorlik samaraning kapital qo'yimlarining qiymatiga yoki ishlab chiqarish fondlarining qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi, qiyosiy (solishtirma) iqtisodiy samaradorlik esa, qo'yimlarni quyishda bir variantning ikkinchisidan qanchalik samarali ekanligini taqqoslash va aniqlash yo'li bilan hisoblanadi.

Umumiy iqtisodiyot samarasi milliy daromadning o'sishi bilan ifodalanadi. Mamlakat bo'yicha kapital qo'yimlarning iqtisodiyot samaradorligining mezonini bo'lib, milliy daromad o'sishining (solishtirma baholarda) ushbu o'sishni yuzaga keltirgan kapital qo'yimlarga nisbati xizmat qilsa, boshqaruvning keyingi darajalarida esa, sof mahsulotning yoki sof meyoriy mahsulotning o'sishining ushbu o'sishni yuzaga keltirgan kapital qo'yimlarga nisbati hisoblanadi.

Boshqarishning xo'jalik hisobi darajasida va ayniqsa qurilishga xususiy mablag'lar va bank kreditlari jalb qilinganda kapital qo'yimlarning samarasi sifatida daromadning o'sishi hisobga olinadi. Mos ravishda xo'jalik hisobi samaradorligi uning kapital qo'yimlarning qiymatiga nisbati bilan baholanadi.

Samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblashda samara va kapital qo'yimlarning to'la taqqoslash imkoniyatlari yaratilishi kerak. Kapital qo'yimlar, tannarx, ekspluatatsiya harajatlari, sof mahsulot hamda qushimcha ko'rsatkichlarni hisoblashda

ayni paytda amalda bo'lgan narxlar, tariflar, ish haqi stavkalari va boshqa bahoni shakllantiruvchi normativlar qo'llaniladi.

Kapital qo'yilmalar samaradorligini tahlil qilishda qurilish «lag»ini, ya'ni kapital qo'yilmalarni kiritish va samaraga erishishgacha o'tadigan o'rtacha vaqtni hisobga olish lozim. Iqtisodiyot bo'yicha ushbu vaqt o'rtacha ikki-uch yilni tashkil etishi mumkin.

Hisoblarda qabul qilingan, boshlang'ich ma'lumotlar hamda qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda qurilish lagining kattaligi bo'lishi mumkin:

-normativ, ya'ni qurilish va ob'yektlarni o'zlashtirishning normativ muddatlariga asoslangan;

-haqiqiy, ya'ni qurilishning haqiqiy davomiyligi va asosiy fondlar hamda ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirishning muddatlariga asoslangan;

-rejali, qurilish va o'zlashtirishning rejada ko'rsatilgan muddatlariga asoslangan.

Quyida kapital qo'yilmalarning umumiy hamda qiyosiy (solishtirma) iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodlari formulalarda keltirilgan.

Kapital qo'yilmalarining umumiy (absolyut) samaradorligini quyidagi tarzda hisoblanadi:

a) respublikaning iqtisodiyot va uning tarmoqlari, umuman iqtisodiyot bo'yicha E_{xx} – solishtirma baholarda yillik daromad (sof mahsulot) o'sishi(ΔD)ning, kapital qo'yilmalarning o'sishi(K)ga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$E_{xx} = \Delta D / K$$

E_{xx} kattaligi normativ umumiy (absolyut) samaradorlik Ye_n bilan qiyoslanishi lozim, agar $E_{xx} > Ye_n$ bo'lsa kiritilayotgan kapital qo'yilmalar samarali hisoblanadi;

b) sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aloqa, qurilish, savdo, kapital qurilishlarning kompleks dasturlari sohalari, alohida texnik-iqtisodiy muammolar bo'yicha umumiy (absolyut) samaradorlik ko'rsatkichi E_{xxt} – sof mahsulot yillik o'sishining(ΔSM), ushbu o'sishni yuzaga keltirgan kapital qo'yilmalar(K)ga nisbati orqali aniqlanadi:

$$E_{xxt} = \Delta SM / K$$

v) xo'jalik hisobidagi tarmoqlar, birlashmalar, tashkilotlar bo'yicha E_{xk} – yillik foyda o'sishining(ΔF), ushbu o'sishni yuzaga keltirgan kapital qo'yilmalar(K)ga nisbati orqali aniqlanadi:

$$E_{xk} = \Delta F / K$$

g) yangi quriladigan korxonalar, syexlar, boshqa alohida ob'yekt hamda tadbirlar bo'yicha E_{at} – foydaning, qurilayotgan ob'yekt smeta qiymatiga yoki alohida tadbir bo'yicha kapital harajatlar(K)ga nisbati orqali aniqlanadi:

$$E_{at} = F / K$$

d) tannarxning yoki hisoblangan narxlarning kайaytirish ko'rsatkichlari qo'llaniladigan tashkilot va tarmoqlar, shuningdek zarar bilan ishlayotgan korxonalar bo'yicha E_k quyidagicha aniqlanadi:

$$E_k = (S_1 - S_2) / K$$

Bu yerda S_1 va S_2 -kapital qo'yilmalar kiritishdan oldingi va keyingi mahsulot tannarxi.

Kapital qo'yilmalarining samaradorligini aniqlash kapital qo'yilmalarining yaxshi variantini tanlash imkonini beradi. Umumiy qilib aytganda, loyihalashtirish va rejalashtirishning moxiyati bu texnik, xo'jalik hamda rejali qarorlarni eng yaxshi variantini tanlashdir. Bu yerda gap iqtisodiyot tarmoqlari, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish, korxonalarni joylashtirish xududlari, quvvatlarini tanlash, yangi qurilishlar hamda amaldagi korxonalarni qayta ko'rish, qurilish va kiritilayotgan quvvatlarni o'zlashtirish muddatlarini aniqlash, ishlab chiqarishni tashkil etish usullari va boshqalarini rivojlantirish yunalishlari haqida ketayapti.

Loyihaning turli variantlarini solishtirish shuni ko'rsatadiki, qator holatlarda eng past tannarxli variant katta hajmli kapitalni talab qiladi, ob'yektni yaratishga kam qo'yilma qo'yilishi hamda ishlab chiqarish quvvatlarining sarflanishi qurilish muddatlarini o'zaytiradi.

Bundan joriy harajatlarga qo'shimcha kapital qo'yilmalarini tejamkorlik bilan jalb etish zaruriyati kelib chikadi.

Solishtirma samaradorlikni hisoblash, asosan qushimcha kapital qo'yilmalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashni ko'zda tutadi, bu quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$Y_e = (S_1 + Y_{en}K_1) - (S_2 + Y_{en}K_2)$$

bu yerda: S_1 va S_2 – qiyoslanayotgan variantlarda mahsulot tannarxi;

K_1 va K_2 – qiyoslanayotgan variatlarda kapital qo'yilmalar.

Agar Y_{en} o'rnatilgan normativga teng yoki kam bo'lsa, qushimcha kapital qo'yilmalar tejamli hisoblanadi. Bir necha variantlar yechimlarini solishtirishda variantlar bo'yicha keltirilgan harajatlar(X_{kel})ni hisoblashdan foydalaniladi:

$$X_{kel} = S + Y_{en}K \rightarrow \min$$

bu yerda :

S - har bir variant bo'yicha joriy harajatlar;

Y_{en} – kapital qo'yilmalarning normativ koeffitsiyenti;

K - shu variant bo'yicha kapital qo'yilmalar.

Kapital qo'yilmalarning solishtirilayotgan variantlari, aniqlanayotgan samaradorlik belgisidan tashqari barcha belgilar (mahsulot hajmi, tarkibi, sifati, tayorlash muddati) bo'yicha, shuningdek ijtimoiy ta'sir, jumladan atrof-muxitni himoya qilish bo'yicha solishtirma jihatga (solishtirish imkoniyatlariga) ega bo'lishi kerak.

Hozirga paytda amaliyotda investisiyalar samaradorligini aniqlashda BMTning YUNIDO tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan metod keng qo'llanilmoqda. Bu metod mazmuni va asosiy ko'rsatkichlari bilan ushbu ma'ruza matnlarining mualliflari tomonidan tayyorlangan «Biznes-rejalashtirish» fani bo'yicha o'quv qo'llanma¹ va ma'ruza matnlarida tanishish mumkin.

4.4 Investisiyalarni iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari.

Ommaviy ishlab chiqarishni tezlashtirish hamda uni samaradorligini oshirish kapital qo'yimlarining oqilona va tejamli taqsimlashni, qurilish davomiyligi qisqartirish, amalga kiritiladigan asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlarini tezda o'zlashtirishni talab qiladi. Kapital qurilish miqyoslarini o'sishi bilan, bunga ajratiladigan moddiy resurs va pul mablag'larini tejamli foydalanish vazifasining ahamiyatini oshiradi.

Kapital qo'yimlarning samaradorligini oshirishning aniq yo'llari ko'p qirrali bo'lib, ko'p jihatdan uni amalga oshirish maqsadlari, hajmi, joyi va vaqtiga bog'liqdir. Kapital qo'yimlarning iqtisodiy samaradorligi ijtimoiy mehnat unumdorligini oshishi hamda mahsulot tannarxini kamayishi bilan ifodlanadi. Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish milliy hamda jaxon tajribalari asosida tashkil etilishi, hamda nafaqat mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, balki ishchilar mehnatini yengillashtirish, unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirishga yo'naltirilishi lozim.

Shuni aytish lozimki, zamonaviy loyihalash amaliyotida na'munaviy (ommaviy) loyihalar bilan bir qatorda, maqdan va materiallarni tejashga yo'naltirilgan individual loyihalarni yaratish ham rivojlanib bormoqda. Texnologik tizimni qayta qurilishga tez moslashadigan yangi bino va inshootlar qurilishni loyihalashtirish amalda ko'paymokka. Sanoat korxonalarida mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadida issiklik, energiya va shovqinga qarshi xarakteristikalarga ega uskunalardan foydalanilayapti.

Zamonaviy loyihalarda binolarga mashina yoki uskunalalar uchun quti sifatida qarashayapti. Moxiyatan ular kapital qo'yimlar hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi optimal mehnat sharoitlarini hamda texnologik jarayonlarini yo'lga quyishni anglatadi.

Kapital qo'yimlarning samaradorligini oshirishning muhim yo'li - bu ularning texnologik va takror ishlab chiqarish tuzilmasini takomillashtirishdir. Vaholanki, bu qo'shimcha vositalarni talab qilmaydi va asosan loyihalashtirish hamda rejalashtirish bosqichlarida amalga oshiriladi.

Reja

5.1. Boshqaruv ob'yektiv zaruriyat va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida

5.2. Qurilishda boshqarish maqsadi, vazifalari va xususiyatlari.

5.3. Qurilishni boshqarish zamonaviy tizimi va organlari.

5.4. Pudrat tashkilotlari va firmalari - qurilishni boshqarishdagi asosiy bo'g'inlar

5.1. Boshqaruv ob'yektiv zaruriyat va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida

Jamiyat paydo bo'lgandan buyon va sivilizasilashgan darajaga o'tgandan beri iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot tizimiga, shu jumladan materiallarni va boshqa buyumlarni ishlab chiqarish va qayta ishlashga tayangan holda rivojlangan. Odamlar jamoasidan farqli o'laroq tabiat ham, texnika ham, ongli jarayonni boshqarish bo'yicha hech qanday ish olib borolmaydi.

Demak boshqaruv – bu chuqur tahlilni, ishlanmalarni va ma'lum maqsadlarni to'g'ri qo'yishga qaratilgan, makon va zamonda to'xtovsiz amalga oshiriladigan maqsadga yo'naltirilgan jarayondir. Lekin boshqaruv biror narsa yoki birov tomonidan boshqarilsagina vujudga keladi. Bu asnoda boshqarish haqidagi fan, boshqaruv sub'yekti va ob'yekti tushunchasini kiritadi.

Boshqaruv sub'yekti - bu jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lib, hukumat organlari tomonidan va amaldagi qonunchilik bo'yicha berilgan vakolatlar bo'yicha ta'sir o'tkazish imkonitiga ega bo'ladi.

Boshqaruv ob'yekti – bu boshqaruv sub'yektining ta'sir o'tkazish (boshqaruv ta'siri) ob'yekti bo'lib, huquqiy va jismoniy shaxslar, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, ishlab chiqarish va xo'jalik tizimlari boshqaruv ob'yekti bo'la oladi.

Ko'rib turganingizdek, ikkala holatda ham boshqaruv haqida, bir guruh insonlarni boshqaruv vakolatlariga ega bo'lgan boshqa bir guruh insonlar tomonidan boshqarish to'g'risida, gap boryapti. Aynan insonlar, ularning ishlab chiqarish xo'jalik va boshqa jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan harakatlari boshqaruvning predmeti hisoblanadi, ya'ni zamonaviy menejmentning asosidir. Menejment, boshqaruv sub'yekti va ob'yektisiz, ham fan sifatida, ham xo'jalik amaliyotida o'zining mazmuni va mohiyatini yo'qotadi.

Yetarlicha katta «armiya» odamlar ishlaydigan qurilish sohasi ham, albatta, bu fikr mulohazalardan mustasno emas. Ayniqsa qurilishda boshqa sohalarga nisbatan boshqaruv sub'yekti va ob'yekti yaqqolroq gavdalanadi: masterlar yoki brigadirlar ishchilarni boshqaradi, prorab yoki katta prorablar brigadirlarni boshqaradi, uchastka boshliqlari prorablarni boshqaradi va h.k. Ya'ni qurilish boshqaruvi ham butun ijtimoiy ishlab chiqarishda a mal qiladigan barcha qonun va qoidalarga bo'ysunadi. Shuning

uchun qurilish boshqaruvi ijtimoiy ishlab chiqarish boshqaruvining tarkibiy va ajralmas qismi hisoblanadi.

Boshqarish jarayoni, qaysi darajada bo'lmasin davriy va bir vaqtning o'zida uzluksiz hisoblanadi. Uzluksizlik bir vaqtning o'zida va ketma-ket amalga oshiriladigan ko'plab sikllarni bajarishda vujudga keladi. Boshqarish sikli maqsadlarni ishlab chiqishdan boshlanadi va ularga erishish bilan yakunlanadi. Bunday siklning asosiy bosqichlari quyidagilar hisoblanadi:

- maqsadlarni rejalashtirish;
- qabul qilingan qarorlarni yoki maqsadli funksiyalarni tartibga solish;
- erishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash;
- yangi boshqaruv qarorlarini tanlab olish va belgilab olish.

Bu hamma sikllar uchun asosiy bo'lib boshqarish ta'siri hisoblanadi. Aynan ta'sir qilish - boshqaruvning asosidir. Ta'sir qilish, ya'ni boshqaruv ta'sirini o'tkazish samarali bo'lishi uchun quyidagi asosiy shartlarga rioya qilish lozim:

1. Boshqaruvchi yoki boshqariluvchi tizimlar singari boshqaruv ob'yekti va sub'yekti o'zaro bir-biriga sabab-oqibat munosabatlari orqali bog'liq bo'lishi kerak.

2. Boshqarayotgan tizimda boshqarish maqsadi aniq bo'lish kerak. Boshqarayotgan tizim boshqarish ob'yektining holati haqidagi axborotlarni - faoliyat natijalari, muhitning o'zgarishi kabilarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Boshqarish ob'yekti boshqarish ta'sirlarni qabul qila olish, o'zlashtirish va qo'yilgan vazifani mazmuniga mos ravishda bajara olish qobiliyatiga ega bo'lish kerak.

Bu shartlarni rioya qilish imkoniyatlarini ko'proq boshqaruvchanlik ta'minlaydi, ya'ni boshqarish tizimining ishonchliligi. Boshqarish ob'yekti qancha murakkab bo'lsa, boshqarish organining qobiliyati shuncha yuqori bo'lish kerak. Agar bog'liqlik buzilsa boshqaruvchanlik ham pasayadi, ishlab chiqarish tizimi boshqarilmaydigan yoki zaif boshqarish bo'lib qoladi, natijada ishlab chiqarishning foydasi ham kamayadi.

Boshqaruvchanlikni normalash mumkin. Boshqarish normasida, odatda, boshqarish samaradorligini ta'minlash sharti bilan bitta rahbar yoki boshqaruv organiga bo'ysunadigan ishlovchilar yoki bo'linmalar soni belgilanadi.

Bu qonuniyatlardan bir qator oqibatlar kelib chiqadi.

1. Oddiy boshqaruv organlari yordamida murakkab ob'yektlarni boshqarish mumkin emas.

2. Boshqaruv samaradorligi boshqarish apparati xodimlari miqdoriga bog'liq bo'lar ekan, boshqaruv xizmatining optimal miqdoriga erishish lozim.

3. Ishlab chiqarishni boshqarishning tashkiliy tuzilmasida boshqaruv darajalarining rasional tabaqalashuviga erishishi kerak.

Qurilish boshqa moddiy ishlab chiqarish sohalar kabi dinamik (o'zgaruvchan) va ochiq tizim bo'lib, tashqi muhit bilan, ya'ni har xil sohadagi korxonalar va tashkilotlar bilan yakuniy qurilish tovarlari yaratilishida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita aloqaga kirishuvchi tizimdir. O'zgaruvchanlik qurilishda bir paytning o'zida funksional va rivojlanish jarayonlarinig borishida namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida bir qator qonuniyatlarga rioya etishni talab qiladi. Bular qatoriga qo'yidagilarni kiritisa bo'ladi:

a) boshqaruvning ob'yektivligi ya'ni boshqaruv ta'siri insonlarning irodasi va tafakkuridan qat'iy nazar namoyon bo'ladi.

b) boshqaruvning zaruriyligi – sabab-oqibat munosabatlarining vujudga kelishi. Bunda bir hodisaning o'zgarishi boshqa bir hodisaning o'zgarishini keltirib chiqarishi mumkin yoki keltirib chiqaradi.

v) Boshqarish jarayonida boshqarish ta'sirining vazifasi.

g) Boshqarish qonuni, tabiat, jamiyat va ong rivojlanish qonuni bilan mosligi.


Boshqarishning ob'yektiv zarurligi mavqe teoriyasi kabi va xo'jalik amaliyotida ham albatta belgilangan qonuniyatlarni, shartlarni, sub'yekt bilan oyu'yekt boshqarishning o'zaro nisbatlari ramkalar bilan chegaralab qo'yish mumkin emas.

Boshqarish fan sifatida ko'p jixatlarni o'z ichiga oladi:

- Tashkilot boshqarmasi va ish boshqarmasi.
- Texnologiya boshqarmasi ya'ni informasion ta'minlash boshqarmasi va qarorlarning qabulqilinishi.
- Kadrlar boshqarmasi metodlari va boshqarish usuli.
- Ishlab chiqarilayotgan tovar sifatining boshqarmasi.
- Loyiha tizim boshqarmasi va h.k.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bu jihatlar har bir soha bo'yicha o'zgarishga uchrashi yoki yechim usullariga ega bo'lishi mumkin. Va bu tomondan qurilishni boshqarish undagi boshqarish maqsad funksiyalari umumjamiyat ishlab chiqarishini boshqarishdagilari bilan bir xil bo'lsada, boshqa sohalardan o'zining ixtisoslashishi va birinchi navbatda ishlab chiqarishni tashkillashtirish va ishlab chiqariladigan mahsulot xususiyatlaridan kelib chiqib sezilarli darajada farq qiladi.

Boshqarish qonuni, tabiat, jamiyat va ong rivojlanish qonuni bilan mosligini quyidagi sxema tarzida ko‘rish mumkin*.



5.2. Qurilishda boshqarish maqsadi, vazifalari va xususiyatlari.

Oldin aytib o‘tishgandek, qurilish – bu dinamik sistema. Bu sistemaning faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi ham ichki imkoniyatlar va resurslarga, ham tashqi muhitga bog‘liq. Amaliyotda tashqi muhit va avvalambor qurilish tashkilotlarining buyurtmasilar mablag‘lariga bog‘liqligi tizim sifatida boshqarish samaradorligiga jiddiy ta’sir qiladi. Bu esa o‘z navbatida, ko‘pincha qurilishdagi boshqarish maqsad funksiyalariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi va ko‘p hollarda boshqarishning oldindan berilgan parametrlariga ma’lum o‘zgarishlar kiritishni talab qiladi. Lekin bu bilan maqsad funksiyalari o‘zgarmaydi. Tabiiyki, maqsad va vazifalarsiz boshqarish bo‘lmaydi. Boshqarish, doim fan xususiyatlariga ega bo‘ladi.

Bundan kelib chiqib, boshqarish maqsadi deganda, nafaqat qurilish balki, bugun jamoat amaliyotida, erishilishi zarur bo‘lgan qandaydir ideal, oldindan berilgan natijani tushunish kerak. Qurilishda – bu ob‘yektni ekspluatatsiyaga berish, uni buyurtmachi (investor)ga topshirish va ko‘zlangan foydani olish. Bu maqsad esa biz hohdaganimizdek oson, tez va muammolarsiz ham bo‘lmaydi.

Gap shundaki, bu maqsaddan tashqari ishchilarga ish haqi to'lash, qurilish materiallari va qurilmalar harajatlarini to'lash, soliqlarni to'lash, qurilishning yuqori sifatini ta'minlash va boshqa shu kabi masalalar ham hal qilinadi. Shuning uchun qurilishda boshqarish ko'p maqsadli xususiyatga ega bo'ladi.

Har bir maqsadga ma'lum talablar qo'yiladi, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Maqsadning ilmiy va amaliy asoslanganligi;
- Maqsadning aniqlanganligi, ifodalanganligi va yo'naltirilganligi;
- Amalga oshirish imkoniyatlari va sharoitlarini hisobga olinishi, ya'ni qo'yilgan maqsad amalga oshiriligi darajasi.

Amaliyotda qo'yilgan maqsad uni bajarish usullari sifatida namoyon bo'ladigan masalalar bilan aniqlashtiriladi. Shuning uchun boshqaruv yechimlarini aniqlashda maqsad va masalalar yonma-yon keladi, bir birini to'ldiradi. O'z mohiyatiga ko'ra esa masala (masalalar) – bu yechilishi kerak bo'lgan masalalar, shuningdek bu yechim uchun zarur bo'lgan sharoitlar to'plamidir.

1. Tartiblash - qurilish sanoati korxonalari va tashkilotlari faoliyatidagi chetlanishlarni yo'qotish jarayoni;

2. Tashkillashtirish – boshqaruvchi va boshqariluvchi tizim elementlarini asoslash va tanlab olish, shuningdek ular orasida mutanosiblikni o'rnatish;

3. Nazorat – faoliyatning joriy ko'rsatkichlari va o'rganilgan masala va dasturlarning mos kelish darajasini aniqlash;

4. Hisob va tahlil – ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash, shuningdek, xulosalar chiqarish va ishlab chiqarish tizimi faoliyatini baholash.

5. Ijobiy yutuqlarni qo'llab-quvvatlash.

Yuqoridagi umumiy vazifalardan tashqari qurilishda ishlab chiqarish sikllari, qurilish jarayonlari, yo'nalganligi – faoliyat ko'rsatish va perspektiv rivojlanishga qaratilgan, aloqalar – ichki va tashqi va boshqa qurilishni boshqarishning maxsus funksiyalari umumiylarini to'ldiradi va rivojlantiradi.

5.3. Qurilishni boshqarish zamonaviy tizimi va organlari.

Tizim – bu bir butunlikni tashkil qiladiki o'zaro bog'liq bo'lgan elementlarning tartiblangan kompleksidir. Bunda tizim uning elementlarida bo'lmagan xususiyatlarga ega bo'ladi. Ma'lumki, qurilish bu tarkibida doimiy o'zgarishlar va bir kanatdan boshqasiga o'tishlar bo'lib turadigan dinamik ishlab chiqarish tizimidir. Qurilishning dasturiy masalalarini yechish bilan bog'liqlikda boruvchi bu o'zgarishlarni hisobga olish va ularga to'g'ri munosabat bildirish o'zida boshqarish jarayonining tashkiliy mazmunini ifodalaydi.

Boshqa tarmoqlarda bo'lganidek qurilishda ham boshqarish tizimi ishlab chiqarishning normal borishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha vazifalarni to'lig'icha amalga oshirgan holdagina tizim bo'la oladi. Buning uchun u yoki bu vazifalarni bajarish yuklatiladigan bo'limlar va ma'sul shaxslarga ma'lum vakolat va ma'suliyatlar berilishi kerak. Ba'zi bir vazifalarni uno'tish yoki to'liq amalga oshirmaslik va, ayniqsa, ma'suliyatsizlik boshqarishning tizim sifatida samaradorligining tushishiga olib keladi. Tizim boshqarish ob'yektiga samarali ta'sir

ko'rsata olishi uchun yetarli boshqarish imkoniyatlariga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga sodir bo'ladigan o'zgarishlarga o'z vaqtida munosabat ko'rsatishni ta'minlovchi boshqaruv tizimi moslashuvchanligini ta'minlash zarur.

Boshqarish tizimi va vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishi uchun u quyidagi talablarga javob berishi kerak.

1. Barcha vazifalarni to'liq, qamrab olish va ularning bosqichlar, bo'limlar va vazifalar bo'yicha optimal taqsimlanishi.

2. Boshqarishning har bir bosqichida har bir bo'lim va ma'sul shaxsga ularga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun kerakli bo'lgan vakolatlarni ajratish.

3. Vazifa yoki ma'suliyatli burchlarni bajarishni ta'minlash uchun qat'iy javobgarlikni o'rnatish;

4. Boshqaruvchanlikni ta'minlash.

5. Yakkaboshlik va buyruq berishning ahamiyati prinsiplariga rioya qilish.


6. Boshqaruv harajatlaridagi mutanosiblik, moslashuvchanlik, tejamkorlik va o'z-o'zini tashkil etish.


Keltirilgan talablar ichida eng asosiysi-bu boshqaruv tizimi tejamkorligi va faoliyatchanligidir. Bu hozirgi xo'jalikning bozor sharoitlarida ishlab chiqarishni xodimlarning minimal miqdori va boshqaruvning minimal sarf-harajatlarida samarali boshqarishda namoyon bo'ladi. Bunda boshqaruv xodimlari va harajtlarini xaddan tashqari oshirib yuborish ham, kamaytirib yuborish ham noto'g'ri bo'ladi.

Boshqaruv tizimida uning tashkiliy asoslari, ya'ni bir-biriga bo'ysunish va aloqadorlik vertikallari va gorizontalligini yaxshi tushunib olish kerak. Oldingi buyruq-rejali iqtisodiyot sharoitlarida boshqaruv tizimi ittifoq, ittifoq-respublika va respublika ministrliklari va idoralari orqali amalga oshirilardi. «SSSR Davlat qurilish»i qurilish sohasida yagona ilmiy-texnik va iqtisodiy siyosatni amalga oshiruvchi bosh organ edi.

[illegible]


5.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasining tashkiliy tuzilmasi.






Xodimlarning cheklangan umumiy soni 12 kishi, shu jumladan boshqaruv xodimlari - 11 kishi.

5.3-rasm. Hududiy arxitektura va qurilish bosh boshqarmasining namunaviy tuzilmasi.



Xodimlarning cheklangan umumiy soni 8-9 kishi, shu jumladan boshqaruv xodimlari 3-4 kishi.
Bundan tashqari, ekspertlar 4-5 kishi.


5.4-rasm. Davlat ekspertizasi hududiy boshqarmasining namunaviy tuzilmasi



Xodimlarning cheklangan umumiy soni 12-29 kishi, shu jumladan boshqaruv xodimlari 11-28 kishi.
Bundan tashqari, qurilish sinov laboratoriyasi xodimlari 2-4 kishi.

5.5-rasm. Davlat arxitektura-qurilish nazorati hududiy inspeksiya'sining namunaviy tuzilmasi.





Xodimlarning cheklangan umumiy soni 13 kishi, shu jumladan boshqaruv xodimlari 12 kishi.

5.6-rasm. Qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining namunaviy tuzilmasi

5.4. Pudrat tashkilotlari va firmalari - qurilishni boshqarishdagi asosiy bo'g'inlar

Hozirgi sharoitda qurilishni boshqarish taxminan quyidagi sxema bo'yicha boradi: qurilish boshqarmasi - qurilish tresti - qurilish birlashmasi yoki vazirlik. Hozirgi qurilish vazirliklari va idoralari boshqarish sahnasidan chiqib kechayotgan bir davrda, qurilish sanoatining asosiy bo'g'inlari bo'lib, O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi qonunga muvofiq faoliyat yurituvchi qurilish trestlari va firmalari bo'lib bormoqda.

Firma, tabiiyki, tijorat tashkiloti hisoblanadi va xo'jalik sherikchiligi yoki jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa shaklda tuzilishi mumkin. U o'z nomidan kontrakt tuzishi, mulkiy va nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi, majburiyatlar olishi, sudlarda da'vogar yoki javobgar bo'lishi mumkin. Firma o'z balansiga ega bo'ladi, moliyaviy va valyuta tomondan o'zini to'liq qoplash asosida faoliyat ko'rsatadi.

Qurilish firmasining asosiy masalalari quyidagilardir:

- qurilish xizmatchilari bozori marketingni
- biznes-plani tayyorlash va qurilish talablarini qondirish uchun resurs yetkaib beruvchilar bilan kelishuvlar tuzish;
- rja va hisob xujjatlarini olib borish va ishchilar mehnatini rag'batlantirish;
- butun qurilish mahsulot bo'yicha va qilinadigan ishlarda yuqori sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlash;
- foyda olish va ishlab chiqarish rentabelligini ta'minlash.

Firma o'z faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtiradi va rivojlanish istiqbollari belgilaydi, zaruriy fondlar – mehnat rivojlanish, sug'urta va boshqa o'z hohishiga binoan tashkil qiladi.

Qurilish firmasi mulki shakllanishining manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- asoschilarning pul va material qo'shilmalari;
- mahsulot, ish va xizmatlar, shuningdek Ustavda ko'rsatilgan boshqa ish turlarini sotishdan olingan daromadlar;
- banklar kreditlari va boshqa zayom mablag'lari;
- amaldagi qonunchilik tomonidan ta'qiqlanmagan boshqa manbalar.

Firma moliyaviy resurslari shakllanishi manbasi bo'lib foyda, amortizasion chegirmalar, qimmatli qog'ozlarni sotishdan keladigan foyda va asoschilarning ta'qiqlanmagan boshqa tushumlar hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Boshqarishning sub'yekti va ob'yekti tushunchalari va ularning qurilishdagi funksiyasini mazmunini ochib bering.
2. Qurilishda boshqaruv qaysi vazifalarni amalga oshiradi.
3. Qurilishda boshqaruv tamoyillari deganda nimani tushunasiz?
4. Qurilishning zamonaviy boshqaruv tizimi qanday?
5. Qurilishni boshqarish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari sizningcha nimalarni o'z ichiga olishi kerak?
6. Xususiy pudrat tashkilotlari va firmalarini tashkil etish istiqbollari qanday?
7. Qurilishda boshqarishni takomillashtirish bo'yicha qanday yangi huquqiy xujjatlar qabul qilindi?

6-MAVZU. QURILISHDA ILMIY-TEXNIK TARAQQIYOT VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.

6.1 Iqtisodiyot va jamiyatda ilmiy-texnik taraqqiyot rivojlanish dastagi sifatida. Qurilishning ilmiy-texnik taraqqiyotga va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri.

6.2 Ilmiy texnik taraqqiyotning qurilishdagi mohiyati, ahamiyati va asosiy yo'nalishlari.

6.3. Qurilish ilmiy texnik-taraqqiyotni bashoratlash va rejalashtirish.

6.4 Ilmiy texnik-taraqqiyotning qurilishdagi samaradorligini iqtisodiy baholash va uning ko'rsatkichlari.

6.1 Iqtisodiyot va jamiyatda ilmiy-texnik taraqqiyot rivojlanish dastagi sifatida. Qurilishning ilmiy-texnik taraqqiyotga va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri.

Mamlakat Prezidenti I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXIsrga intilmoqda" kitobida muhim zamonaviy jihatlari qatorida iqtisodiyotda ommaviy rivojlanishning tuzilmaviy tubdan o'zgarilishini aniqlab berdiki, ular tarmoq va korxonalarni texnik qayta qurollantirish va modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan bo'lib, yanada boy va tabiiy va moddiy-xomayoviy potensialdan foydalanish, eksportga yo'naltirilgan va importni o'zini bosuvchi ishlab chiqarishni shakllantirishni ko'rsatib beradi.

6.2 Ilmiy texnik taraqqiyotning qurilishdagi mohiyati, ahamiyati va asosiy yo'nalishlari.

Ilmiy texnik taraqqiyotning revolyusion shakli — bu prinsipial yangi, avval qo'llanilmagan mehnat quroli vositalari, texnologiyani yaratishdir. Ba'zan, ilmiy texnik taraqqiyotning ushbu shaklini ilmiy texnik revolyusiya deb ham ataladi. Afsuski ilmiy texnik taraqqiyotning ushbu shakli evolyusion ilmiy texnik taraqqiyotga nisbatan ohirgi yillarda kam sezilarli darajadadir.

Ilmiy texnik taraqqiyot evaziga sharoitlarini yaxshilanishi va uning me'yorida saqlanishi atrof-muxitni himoya qilish, hissani qisqartirish flohida holatlarda qo'l mehnatidan umuman foydalanmaslik qurilish davomiyligini qisqartirishlar erishiladi. Ilmiy texnik-taraqqiyot asosida ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish va unumdorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Ilmiy texnik-taraqqiyotning qurilishdagi asosiy yo'nalishlari odatda quyidagilar hisoblanadi:

- qurilish ishlab chiqarishini sanoatlashtirish;
- qurilishda yangi materiallar va konstruksiyalarni yaratish hamda qo'llash;
- qurilish montaj ishlarini mexanizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish;

- progressiv texnologiya va yetakchi usullarni qurilish ishlab chiqarishini tashkil qilishda qo'llash.

Sanoatlashtirish — bu ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlarini qurilish maydonchalarida zavod muhitiga ko'chirish demakdir. Qurilish ishlab chiqarishini sanoatlashtirishga an'anaviy misol bo'lib, o'z vaqtida tashkil qilingan va hozir ham amal qilayotgan uy-qurilish kombinatlari temur-beton mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi zavodlar qurilish konstruksiyalarini ishlab chiqaradigan kombinatlar hisoblanadi.

Qurilishning sanoatlashtirish ko'rsatkichlari bo'lib bajaradigan qurilish montaj ishlari yoki ob'yekt qiymatining umumiy hajmidagi konstruksiya va deatllarning qiymatining nisbati bo'yicha aniqlanadigan qurilish ob'ektlarining jamlanganlik darajasi hisoblanadi.

Biroq zamonaviy qurilish materiallari va jixozlarini yaratish jarayoni ilmiy ishlab chiqarish izlanishlarini kuchaytirish va ahamiyatini oshirishni talab qiladi. Bunga erishish uchun fan, texnika va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro rivojlanishi bir nuqtada kesishishi kerak. Qurilishga taraqqiy etgan chet el tajribasidan keng foydalanish zarur.

6.3. Qurilish ilmiy texnik-taraqqiyotni bashoratlash va rejalashtirish.

Milliy iqtisodiyot, tarmoq iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bo'g'inlaridagi iqtisodiyot bo'lishiga qaramasdan erishilgan natijalarni baholamasdan va kelgusidagi istiqbollarni belgilab olmasdan o'z-o'zidan boshqarilishi mumkin emas. Ularni barchasi ITTni bashoratlashni va xususan rejalashtirishni qurilishni boshqarishning muhim masalalarini samarali va unumdor xal qilishda o'z aksini topadi.

Bashoratlash - davlat iqtisodiyotining holati yoki uning alohida tarmoqlari, yo'nalishlari va sohalari xaqida ilmiy tasdiqlangan holda oldindan aytib berish, shuningdek iqtisodiyotning u yoki bu holatiga erishishning muqobil yo'llari, usullari va muddatlari to'g'risida mushohada yuritish demakdir.

Boshqaruv jarayoni sifatida bashoratlash iqtisodiyot rivojlanishining istiqbollarini baholash va uning holatini tahlil qilish bilan bog'liq. Uning ko'p tarqalgan shakllaridan bashoratlashning rejalashtirish bilan bevosita o'zaro aloqadorligini ta'minlovchi dastur, masalani qo'yish usul va uslublar bo'lib hisoblanadi.

Ilmiy texnik taraqqiyotni rejalashtirish - bu qurilishda fan va texnika rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan joriy masalalarni hal qilishga qaratilgan bashoratlashning tarkibiy bir qismidir. U ilmiy texnik rivojlanishning davlat dasturlari, shuningdek qurilish sanoatida bevosita faoliyat yuritadigan tashkilot va korxonalar tomonidan olib boriladigan tashkiliy-texnik tadbirlar bilan belgilanadigan masalalar asosida amal oshiriladi.

Yangi texnika va tashkiliy xo'jalik tadbirlari rejalarini bajarish jarayonida qurilish sohasidagi yangi kashfiyotlar, rasionalizatorlik takliflari, shuningdek zamonaviy fan va texnikadagi yutuqlar hisobiga olinishi kerak.

Ilmiy texnik-taraqqiyotni rejalashtirishda shuni hisobga olish muhimki turli, g'oya fikr va yangiliklar paydo bo'lishi mumkin, ularni amaliyotga qo'llash esa qurilish

sanoatidagi korxona va tashkilotlarning o'z kuchlari bilan amalga oshiriladi, bo'lar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

6.4 Ilmiy texnik-taraqqiyotning qurilishdagi samaradorligini iqtisodiy baholash va uning ko'rsatkichlari.

Ilmiy texnik-taraqqiyot borasidagi iqtisodiy samaradorlik va ish mahsuldorligini baholash fan va texnika rivojlanishiga, tashkiliy- texnik va xo'jalik tadbirlarini olib borishga o'z hissasini qo'shadi. Bunda tarmoq darajasida asosan quyidagilar muhim sanaladi:

- loyihalarning yangiligi va istiqbolligi;
- ishlab chiqarishning texnik darajasi va texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirishda qo'shilgan amaliy ulushi;
- ish sifatini tushirmagan holda o'z muddatida bajarish;
- ilmiy texnik loyihalarni amalga oshirishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlik;
- yangiliklarning mazkur sohada mavjud o'zimizning va chet el yutuqlaridan farqi.

Samaradorlikni baholash fan va texnika rivojlanishining rejalarini tasdiqlashda shuningdek qurilish tashkilotlarining aniq tashkiliy texnik tadbirlarini ko'rsatib berishda katta rol o'ynaydi.

Qurilishda ilmiy texnik-taraqqiyotning samaradorligini baholashning eng ko'zga ko'ringan sohalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Konstruktiv va xajmiy-rejaviy yechimlarsiz ishlab chiqarish resurslarini tejalishini ta'minlovchi yangi texnologik jarayonlarni qo'llash, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish usullari.

Bu yerda samaradorlikni baholash quyidagi formula asosida baholanadi:

$$E = A ((S_1 + Y_{en}K_1) - (S_2 + Y_{en}K_2))$$

bunda: A — yangi texnikadan foydalangan holda hisobot yilida bajarilgan ish hajmi;

S_1, S_2 — taqqoslanadigan variantlar bo'yicha ishning tannarxi;

K_1, K_2 — xuddi shu variantlar bo'yicha kapital qo'yilmalar;

Y_{en} — kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligining normativ koeffitsiyenti.

2. Butun xizmat davrida vaqt omilini hisobga olgan holda ekspluatatsiya qilish harajatlarni iqtisod qilinishi orqali baholanadigan yangi mashina va konstruksiyalarni qo'llash.

Yangi qurilish texnikasining samaradorligi yuqorida ko'rsatilgan formula bo'yicha baholanadi. Bunda yangi va oldin ekpluatatsiya qilingan texnikaning qiymati hisobga olinadi. Yangi va oldindan ekpluatatsiya qilingan konstruksiyaning o'zoq muddatligini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K_e = (R_1 + Y_{en}) / (R_2 - Y_{en})$$

Bunda : R_1, R_2 — taqqoslanadigan variantlar bo'yicha qurilish konstruksiyalarining bir yil xizmat qilishga mo'ljallangan qiymatining ulushi.

3. Ilmiy texnik-taraqqiyot yutuqlaridan foydalanish evaziga qurilish davom etish muddatini qisqartirish. Bunda iqtisodiy samaradorlik quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$E_u = N (1 - T_2/T_1)$$

Bunda: N — qurilish davomiylik muddatining variantlari bo'yicha shartli-doimiy harajatlar;

T_1 va T_2 - taqqoslanayotgan variantlar bo'yicha qurilishning davomiylik muddati.

Shartli-doimiy harajatlar miqdori o'rtacha «materiallarga harajatlar» moddasi bo'yicha bir foiz etib qabul qilinishi mumkin yoki «mashina va mexanizmlarni ekpluatatsiya qilish harajatlari» moddasi bo'yicha 15 % yoki «davr (ustama) harajatlari» moddasi bo'yicha 50% etib belgilanishi mumkin.

4. Xajmiy-rejaviy va konstruktorlik yechimlarini takomillashtirish. U quyidagi formula bo'yicha aniqlanishi mumkin:

$$E = (S_1 - S_2) + Y_{e_{ns}} (K_1 - K_2) + Y_{e_n} (F_1 - F_2)$$

bunda: S_1 va S_2 — yillik ishlab chiqariladigan mahsulotning (ishlab chiqarish ob'yektlari) tan narxi yoki ekpluatasion harajatlar (noishlab chiqarish ob'yektlari);

$Y_{e_{ns}}$ va Y_{e_n} — qurilishdagi ob'yektning qurilish samaradorligining normativ koeffitsiyentlari;

K_1 va K_2 — taqqoslanadigan ob'yektlar uchun kapital qo'yilmalar;

F_1, F_2 — taqqoslanadigan ob'yektlarni jihozlashda qurilish tashkilotlarining ishlab chiqarish fondlari.

Ilmiy-texnik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini baholash har qanday darajada ham yagona asosiy maqsad bo'lib hisoblanadi. Ilmiy texnik-taraqqiyot va asosan fan ishlab chiqarish iqtisodiy o'sish omili sifatida jamoaning mehnat unumdorligini oshirgan holda uning iqtisodiy oimli sifatida ham rol o'ynaydi. Shuning uchun ham fan va texnikaning iqtisodiy samaradorligi bir vaqtda ma'lum muddat davomida ilmiy texnik yutuqlari amaliyotga tadbiiq etish natijasida jamiyat tomonidan erishiladigan mehnatning umumiy harajatlarini kamaytirishga erishishni aks ettiradi. Eng asosiysi ilmiy texnik-taraqqiyot ishlab chiqarish intensivligini va yaratilayotgan mahsulot sifatini oshirish imkonini yaratib beradi.

Muhokama va nazorat uchun savollar

1. Innovatsiya nima, innovatsiya jarayonini qanday tashkil etiladi?

2. Bozor sharoitlarida fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga tadbiq etish qanday ahamiyatga ega va u qurilish iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Qurilishning ilmiy-texnik taraqqiyotga ta'sirini yoritib bering.
4. Ilmiy texnik taraqqiyotning qurilishdagi asosiy yo'nalishlarini bayon qiling.
5. Ilmiy texnik-taraqqiyot yo'nalishlarini asosiy baholovchi ko'rsatkichlari kaysilar?
6. Qurilish ilmiy texnik-taraqqiyotni rejalashtirish asoslarini yoriting.
7. Qurilish sanoatidagi tashkilot va korxonalarning texnik rivojlanish darajasining asosiy ko'rsatkichlarini tushuntirib bering.
8. Ilmiy texnik-taraqqiyot borasidagi iqtisodiy samaradorlik va ish mahsuldorligini baholash qanday amalga oshiriladi.

7-MAVZU. QURILISH INDUSTRIYASINING ISHLAB CHIQUARISH VA RESURS SALOHIYATI HAMDA UNDAN OPTIMAL FOYDALANISH YO‘LLARI

7.1. Ishlab chiqarish salohiyati va resurslari, ularning mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari va qurilishdagi xo‘jalik sub’yektlarining faoliyatidagi ahamiyati.

7.2. Asosiy fondlar - qurilishning ishlab chiqarish va resurs asosi sifatida. Asosiy fondlarning qurilish tashkilotlarining ishlab chiqarish quvvatiga bog‘liqligi.

7.3. Qurilishning aylanma fondlari va aylanma mablag‘lari, ularning shakllanishi va ulardan foydalanish ko‘rsatkichlari.

7.4. Mehnat resurslari va qurilishning kadrlar salohiyati.

7.2. Asosiy fondlar - qurilishning ishlab chiqarish va resurs asosi sifatida. Asosiy fondlarning qurilish tashkilotlarining ishlab chiqarish quvvatiga bog‘liqligi.

Asosiy fondlar - ham moddiy ishlab chiqarish sohasida (asosiy ishlab chiqarish fondlari), ham noishlab chiqarish sohasida (noishlab chiqarish asosiy fondlari) band bo‘lgan material-moddiy qiymatlar majmuasi. Qurilish iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun turli korxonalar, bino va inshootlarni qurish davomida mamlakat uchun asosiy fondlarni bunyod etishda ishtiroq etadi, biroq o‘z navbatida o‘zi ham ulardan mehnat va ishlab chiqarish qurollari sifatida foydalanadi. Shuning uchun qurilish mahsuloti sifatida va zaruriy ishlab chiqarish qurollari sifatidagi asosiy fondlarni bir-biridan ajratish lozim.

Asosiy ishlab chiqarish fondlariga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish bino va inshootlari;
- ishchi mashina va asbob-uskunalar;
- mashina va asbob-uskunalar;
- transport vositalari;
- asbob-uskunalar va ishlab chiqarish jihozlari.

Noishlab chiqarish asosiy fondlarga quyidagilar kiradi:

- uy-joylar;
- kommunal xo‘jalik ob’yektlari;
- madaniy-maishiy ob’yektlar;
- sog‘liqni saqlash va maorif ob’yektlari.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining tarkibini quyidagicha yaxshilash mumkin:

- mashina parkini texnikaning yangi turlari bilan to‘ldirish yo‘li bilan;
- ishlab turgan mashina va asbob-uskunalarini modernizatsiyalash bilan;
- ortiqcha va kam foydalaniladigan asbob-uskunalarini tugatish bilan;
- asosiy fondlarning ayrim guruhlarini o‘rtasida oqilona nisbatlarni ta‘minlash bilan.

Ma‘lumki, asosiy fondlar ekspluatatsiya jarayonida muntazam ravishda eskirib, ishdan chiqib boradi. Shu sababdan asosiy fondlarga nisbatan jismoniy va ma‘naviy eskirish tushunchalarini kiritamiz.

Jismoniy eskirish - asosiy fondlarning ekspluatatsiya jarayonida yoki bekor turish natijasida o‘zining dastlabki xarakteristikalarini asta-sekin yo‘qotishidir. Bu

notekis kechuvchi jarayon bo'lganligi tufayli, asosiy fondlar to'liq yoki qisman eskirishi ajratiladi. Birinchi holda eskirgan asosiy fondlar tugatiladi va yangisiga almashtiriladi, ikkinchi holda esa ta'mirlash yo'li bilan tiklanadi.

Ma'naviy eskirish - mashina va asbob-uskunalar qiymatining ularni ishlab chiqarishga sarflanadigan ijtimoiy zaruriy harajatlarning kamayishi ta'sirida kamayib borishi (ma'naviy eskirishning birinchi shakli) yoki ularning qiymatining yangi, ilg'or va samarali mashina va asbob-uskunalar yaratilishi natijasida kamayishidir (ma'naviy eskirishning ikkinchi shakli).

Asosiy fondlarning eskirishini tiklash korxona va tashkilotlarning maxsus mablag'lari asosida - amortizatsiya ajratmalari hisobiga amalga oshiriladi. Ularning summasi asosiy fondlarning qiymatiga, ularning xizmat muddatiga, ta'mirlash va modernizatsiyalash harajatlariga bog'liqdir. Bu mablag'lar odatda korxonaning amortizatsiya fondida to'planib boradi va faqatgina asosiy fondlarni tiklash va ta'mirlash maqsadlarida foydalaniladi.

Yillik amortizatsiya summasining asosiy fondlar qiymatiga nisbati foizlarda ifodalanganda amortizatsiya me'yori deb ataladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$H_{am} = \frac{\Phi_1 - \Phi_n}{T_a * \Phi_1}$$

bu yerda:

Φ_1 - asosiy fondlarning dastlabki qiymati;

Φ_n - asosiy fondlarning tugatish qiymati;

T_a - asosiy fondlarning amortizatsiya muddati yoki xizmat muddati, yil.

Dastlabki qiymat - asosiy fondlarni sotib olish paytidagi harajatlar summasi (yetkazib berish, o'rnatish yoki montaj harajatlari bilan birga).

Tiklash qiymati - asosiy fondlarning bugungi kundagi inflyasiya, qayta baholash va hokazolarni hisobga olgan holda hisoblangan qiymati.

Qoldiq qiymat - bu asosiy fondlarning dastlabki yoki tiklash qiymati bilan eskirish summasi o'rtasidagi farqdir.

Asosiy fondlarni to'liq tiklash uchun amortizatsiya ajratmalari summasi quyidagicha hisoblanadi:

$$A = N_{amor} \times F,$$

bu yerda F - asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari qurilish industriyasidagi korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish quvvatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. qurilish tashkilotlarining fond bilan jihozlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning ishlab chiqarish quvvati ham shu qadar yuqori bo'ladi. Ishlab chiqarish quvvati - berilgan mashina va asbob-uskunalar, texnologiyalar va ishlab chiqarishni tashkil qilish uslubida (ishchilar soni va ajratilgan vaqtni hisobga olgan holda) mahsulot ishlab chiqarishning (qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishning) maksimal hajmi. Buni hisobga olgan holda qurilish korxonasining yillik, choraklik va oylik ishlab chiqarish quvvatini aniqlash mumkin. Bundan tashqari, quyidagi formula yordamida korxonaning o'rtacha yillik quvvatini hisoblash ham amaliyotda keng qo'llanilmoqda:

bu yerda:

F_1 - korxonaning yil boshidagi asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati;

F_{ish} - yil davomida ishga tushiriladigan asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati;

V_{chiq} - yil davomida hisobdan chiqarilgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati;

P_1 va P_2 - asosiy ishlab chiqarish fondlarining ishga tushish (ishdan chiqish) paytidan boshlab o'tgan to'liq oylar soni.

Ishlab chiqarish quvvatini va umuman asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni hisoblashda bir qator ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Ularni quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:

ekstensiv ko'rsatkichlar - asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning vaqt bo'yicha ko'rsatkichlari;

intensiv ko'rsatkichlar - asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning unumdorlik (quvvat) ko'rsatkichlari;

integral ko'rsatkichlar - ekstensiv va intensiv omillarning jami ta'sirini, ya'ni ekstensiv va intensiv ko'rsatkichlarning hosilasini hisobga oluvchi ko'rsatkichlar.

Mazkur ko'rsatkichlar asosan asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning natural ko'rsatkichlari hisoblanadi va quyidagi kategoriyalarni o'z ichiga oladi:

- asbob-uskunalar va mashinalarning bandlik koeffitsiyenti;
- almashinuv koeffitsiyenti;
- asbob-uskunalarining unumdorligi.

Ular bilan bir qatorda amaliyotda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning qiymat ko'rsatkichlari ham keng qo'llanilmoqda. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Fond qaytimi - ishlab chiqarilgan mahsulotning asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati birligiga to'g'ri keladigan miqdori;

Fond sig'imi - fond qaytimi ko'rsatkichiga teskari ko'rsatkich;

Fondlarning rentabelligi - asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati birligiga to'g'ri keladigan foyda miqdori.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarini baholash va ulardan foydalanishni tahlil qilishda mehnat va ishlab chiqarishning fond bilan qurollanganligi hamda uning yana bir turi - mehnat va ishlab chiqarishning mexanik qurollanganligi kabi ko'rsatkichlarni ham e'tiborga olish lozim.

Qurilish tashkilotlari asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilab borishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasi va Arxitektura va qurilish davlat qo'mitasining 2003 yil 14 oktyabrdagi qaroriga ko'ra «Pudratchi qurilish tashkilotlari uchun qurilish texnikasi va asbob-uskunalarini sotib olishga yo'naltiriladigan mablag'larga soliq solish bazasini kamaytirish qismida daromad (foyda) solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash tartibi to'g'risida NIZOM» qabul qilindi.

Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-sonli "Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va

puqratchi qurilish tashkilotlari uchun qurilish texnikasi va asbob-uskunalarini sotib olishga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga soliq solinadigan bazani kamaytirish daromad (foyda) solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash tartibini belgilaydi. Unga quyidagilar ko'zda tutiladi:

5. Korxonalar soliq solish bazasini kamaytirish bo'yicha berilgan imtiyozlarni hisobga olgan holda daromad (foyda) solig'ini to'g'ri hisoblash uchun javobgardirlar.

6. Daromad (foyda) solig'ini hisoblash va o'z vaqtida to'lash yuzasidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

«Kapital qurilishda ijara va lizing xizmatlari tizimini joriy etish to'g'risida».

O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori (23.10.2003 y. № 462) qabul qilingan bo'lib, unda kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishga yo'lida ijara va lizing xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar ko'zda tutilgan:

1. Vazirlar Mahkamasining qurilish, qurilish materiallari sanoati, uy-joy-kommunal xo'jaligi va transport kompleksi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, "Asaka" banki, "Paxta-bank", "O'zsanoatqurilishbank", "O'zuyjoyjamg'armabank", "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi, "O'zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining ustav jamg'armasi 1 mlrd so'm bo'lgan, ulushlar 7.1-jadvalga muvofiq taqsimlanadigan ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi "qurilish-lizing" lizing kompaniyasini tashkil etish.

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi Davlat mulki qo'mitasi va Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda tugatilayotgan iqtisodiy nochor qurilish tashkilotlarining qurilish texnikasi, transport vositalari va kichik mexanizatsiya vositalarini ularning byudjet oldidagi qarzlarni qoplash hisobiga "qurilish-lizing" lizing kompaniyasiga beriladi.

6. "Qurilish-lizing" lizing kompaniyasi:

O'zbekiston Respublikasi hududiga, keyinchalik ularni lizingga va ijaraga berish uchun olib kelinayotgan qurilish texnikasi, ehtiyot qismlar, qurilish transport vositalari va kichik mexanizatsiya vositalari uchun bojxona bojlari va qo'shilgan qiymat solig'idan 5 yil muddatga;


qurilish texnikasi va kichik mexanizatsiya vositalarini lizingga va ijaraga berishdan olingan daromadlar bo'yicha 2007 yil 31 dekabrgacha daromad (foyda) solig'idan ozod qilinadi, soliqqa tortishdan bo'shaydigan mablag'lar zamonaviy qurilish asbob-uskunolari va texnika xarid qilishga maqsadli yo'naltiriladi.


"Qurilish-lizing" lizing kompaniyasi ustav jamg'armasining tarkibi

7.1 jadval

Muassislar nomi	Ustav jamg'armasidagi ulush	
	foiz	mln so'm
"TIFmilliybank"	15	150,0

"O'zuyjoyjamg'armabank"	15	150,0
"O'zsanoatqurilishbank"	15	150,0
"Asaka" banki	15	150,0
"Paxta-bank"	15	150,0
"O'zbekiston temir yo'llari" kompaniyasi	15	150,0
"O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi	5	50,0
"O'zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi	5	50,0
Jami:	100	1000,0





Kompaniya xodimlarining cheklangan umumiy soni - 34 kishi,
Shu jumladan boshqaruv xodimlari soni - 19 kishi.

7.1-rasm. "Qurilish-lizing" lizing kompaniyasini boshqarish tuzilmasi

7.3. Qurilishning aylanma fondlari va aylanma mablag'lari, ularning shakllanishi va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari

Qurilish tashkilotlari boshqa tarmoqlardagi korxonalar kabi, muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun faqat asosiy emas, balki aylanma vositalar ham kerak bo'lib, ular aylanma fondlar va muomala fondlariga avanslangan pul mablag'laridan iborat. Ko'pincha, bu har doim ham to'g'ri bo'lmasa-da, aylanma vositalar aylanma fondlarning pullik ifodasi deb ataladi.

Ishlab chiqarish zahiralari - bu ishlab chiqarish jaayonining o'zluksizligini ta'minlashga mo'ljallangan, ammo hali ishlab chiqarish jarayoniga joriy qilinmagan mehnat predmetlaridir (xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, tayyor mahsulotlar omborlari yoki poligonlaridagi buyumlar va konstruksiyalar, ehtiyot qismlar va boshqalar).

Ishlab chiqarish jarayonidagi aylanma fondlar - bu avvalo tugallanmagan ishlab chiqarish (qurilish) va kelgusi davr harajatlaridir (vaqtinchalik bino va inshootlar qurishga, asbob-uskunalarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, sinovlar o'tkazish va hokazolarga sarflanadigan harajatlar).

Zahiralarning uch xil turi: transport, joriy (ombor) va sug'urta (kafolat) zahiralari mavjud.

Transport zahiralari - to'lov talabnomasi to'langan kundan yukning korxona omboriga kelib tushgan kunigacha bo'lgan davr.

Joriy zahira - ishlab chiqarish jarayonining o'zluksizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga teng bo'lishi kerak. Joriy zahiraning miqdori o'rtacha kunlik harajatlarga va xom ashyo, materiallar, konstruksiyalar va hokazolarning qanchalik tez-tez yetkazib berib turilishiga bog'liq. Xom ashyo va materiallar ishlab chiqarishga qanchalik tez-tez kelib tursa, joriy zahira

miqdori ham shunchalik kam bo'lishi kerak. Tabiiyki, bunda ishlab chiqarish dasturi o'zgarmas bo'ladi.

Sug'urta zahirasi ta'minotdagi va transport faoliyatidagi o'zilishlarning, yetkazib berish muddatlari bo'zilishining oldini olish uchun zarur. Sug'urta zahirasi qiyamati joriy (ombordagi) zahira uchun belgilangan aylanma vositalar me'yorining 30-50 foizi atrofida bo'lishi mumkin.

Qarz mablag'lari - bu chetdan, turli moliyaviy manbalardan jalb qilinadigan va odatda qaytarish sharti bilan ma'lum bir to'lov (foiz stavkalari) evaziga olinadigan mablag'lardir. Ma'lum kelishilgan shartlar asosida jismoniy va huquqiy shaxslardan qarzga olingan mablag'lar ham qarz mablag'lar tarkibiga kiradi.

Bozor sharoitlarida birinchidan, aylanma mablag'lar yetarlicha bo'lishi va ishlab chiqarish ehtiyojlariga bog'liq bo'lishi, ikkinchidan imkon qadar samarali foydalanilishi juda muhimdir. Ushbu ikkinchi holat uchun amaliyotda ikki ko'rsatkich - mablag'larning aylanuvchanlik koeffitsiyenti va bir aylanmaning o'rtacha muddati qo'llaniladi.

Aylanuvchanlik koeffitsiyenti muayyan vaqt mobaynidagi aylanma mablag'lar miqdorini yoki berilgan davrdagi aylanma mablag'larning har 1 so'miga to'g'ri keladigan mahsulot hajmini ko'rsatadi. U quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$K_{\text{айл}} = \frac{Q}{OC}$$

bu yerda:

Q - sotilgan mahsulot hajmi (buyurtmachiga topshirilgan ishlar hajmi);

OS - aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati.

Aylanuvchanlik koeffitsiyentining kamayishi korxonaning aylanma vositalari aylanishining sekinlashayotganligidan dalolat beradi va aksincha.

Bir aylanmaning o'rtacha davomiyligi ($D_{\text{о'т}}$) hisobot davri kunlarining aylanuvchanlik koeffitsiyenti qiymatiga nisbati bo'lib, quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$D_{\text{от}} = \frac{T_p}{K_{\text{айл}}}$$

bu yerda T_r - hisobot davri (360 kun, 180 kun, 90 kun).

Aylanma vositalarning aylanish davomiyligi qanchalik kichik yoki sotilgan mahsulot hajmi o'zgarmas bo'lgandagi aylanishlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, aylanma vositalar shunchalik kamroq miqdorda talab qilinadi va aksincha, aylanma vositalar qanchalik tez aylanib tursa, ulardan shunchalik samarali foydalaniladi. Aylanma vositalarning aylanishini jadallashtirish samarasi resurslarning ozod bo'lishi, ulardan foydalanishning yaxshilanishi tufayli ularga bo'lgan ehtiyojning kamayishida aks etadi.

7.4. Mehnat resurslari va qurilishning kadrlar salohiyati

Mehnat resurslari - bu aholining jismonan rivojlangan, aqliy qobiliyat va bilimlarga ega, mehnatga layoqatli qismidir. Odatda ularni aholining iqtisodiy faol qismi deb ataladi.

Islohotlardan avvalgi davrda kadrlar bilan ishlashning tahlili unda quyidagicha salbiy jihatlar bo'lganligini ko'rsatmoqda:

- kasbga yo'naltirishning, kadrlarni ya'ni ishchilarni va rahbarlarni (menejerlarni) tanlash va joylashtirishning rasmiyligi;
- ayrim ishlovchilarning shaxsiy sifatlariga, ularning mehnat natijalariga ortiqcha baho berish yoki yetarli baholamaslik;
- ishlovchining o'z ish lavozimiga mos emasligi yoki ishga qabul qilishdagi proteksionizm;
- mehnat natijalari uchun javobgarlikning so'ayishi;
- o'z-o'zini tanqid va o'z-o'zidan norozilikni bilmaslik;
- mehnatga haq to'lashda tenglashtirish, mahorat va tashabbuskorlikka, mustaqillikka yetarli e'tibor bermaslik.

Bugungi kunda qurilishdagi kadrlar siyosati boshqa tarmoqlardagi bilan deyarli bir xil bo'lib, avvalo bozor talablari va bozor munosabatlariga, qarorlar qabul qilishda mustaqillikka asoslangandir. Bunda asosiy e'tibor inson omilining kuchaytirilishiga qaratiladi, chunki iqtisodiy taraqqiyotning taqdirini zavod va fabrikalar, mashinalar, asbob-uskunalar yoki ishlab chiqarish zahiralari emas, balki avvalo insonlar, ishchilar hal qiladi. Korxona yoki tashkilotning faoliyatini samarali yoki samarasiz qiluvchilar ham aynan ishchilar, mehnat jamoasidir.

Shu munosabat bilan inson omilining qurilishning samaradorligini oshirishga inson omilining ta'sir ko'rsatishidagi asosiy jihat quyidagilardan tashkil topgan:

- kadrlarni tanlash va ilgari surish;
- kadrlarni tayyorlash va ularni o'zluksiz o'qitish;
- kadrlar tarkibining barqarorligi va ixchamligi;
- ishchilar mehnatini moddiy va ma'naviy baholashni takomillashtirish.

Qurilishda mehnat resurslarini boshqarish tizimi hozirgi kunda o'zaro bog'liq bo'lgan uch blokni o'z ichiga oladi:

- 1) korxonaning mehnat resurslarini shakllantirish;
- 2) korxonaning mehnat resurslarini rivojlantirish;
- 3) hayotning mehnat davrining sifatini oshirish.

Muhokama va nazorat uchun savollar

1. "Ishlab chiqarish resurslari" nima, ularning "ishlab chiqarish zahiralari"dan farqi yoki o'xshash tomonlari nimada?
2. Bozor sharoitlarida resurslarni tejash qanday ahamiyatga ega va u qurilish iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Ishlab chiqarish fondlarining iqtisodiy mohiyatini ochib bering va ulardan qurilishda foydalanish darajasini xarakterlovchi ko'rsatkichlarga misol keltiring.
4. Asosiy fondlar nima va ular tarkibini belgilovchi omillar qanday?
5. Asosiy fondlardan foydalanishni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni ta'riflang.
6. Korxonaning aylanma vositalari nima va ularning tuzilmasi qanday shakllanadi?
7. Korxonaning aylanma vositalari foydalanishni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni ta'riflang.

8. Kadrlar salohiyati nima va qurilishda qanday shakllanadi?
9. Mehnat unumdorligini oshirishning ahamiyatini yoritib bering, ko'rsatkichlarini aytib bering va qurilishda uni oshirish yo'llarini ko'rsatib bering.

8-MAVZU. QURILISH FAOLIYATINI REJALASHTIRISH ASOSLARI

8.1. Rejalashtirish - qurilish ishlab chiqarishini boshqarishning muhim bo'g'ini sifatida. Qurilishda rejalashtirishning asosiy vazifalari, tamoyillari va xususiyatlari

8.2. Kapital qurilishni rejalashtirishning turlari, mazmuni va yo'nalishlari

8.3. Qurilish ishlab chiqarishini va qurilish-montaj tashkilotlarining quvvatlarini rivojlantirishni rejalashtirish

8.4. Pudratchi tashkilotlar miqyosida ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish

8.1. Rejalashtirish - qurilish ishlab chiqarishini boshqarishning muhim bo'g'ini sifatida. Qurilishda rejalashtirishning asosiy vazifalari, tamoyillari va xususiyatlari

Ma'lumki, mamlakatning xalq xo'jaligi iqtisodiyotning birlamchi yoki quyi bo'g'ini deb ataladigan yuzlab tarmoqlar va o'n minglab turli korxona va tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu bo'g'in va tarmoqlar yagona xo'jalik organizmi kabi aniq va hamjihatlikda ishlashi uchun ular o'rtasida ma'lum bir nisbat va o'zaro munosabatlarni barpo etish lozim. Bu vazifa amaliyotda rejalashtirish yordamida amalga oshiriladi.

Rejalashtirish - bu maqsadlarni shakllantirish, ustivor yo'nalishlarni hamda ularga erishish vositalari va usullarini aniqlash jarayonidir. U muayyan rejalarda ro'yobga chiqariladi. Shuning uchun rejani rejalashtirish natijasi, u yoki bu hatti-harakatlarning motivatsiyalangan modeli deb hisoblash qabul qilingan.

Rejalar direktiv va indikativ bo'ladi. Direktiv rejalarda tasdiqlangan ko'rsatkichlarning bajarilishi majburiy bo'ladi. Indikativ reja esa axborot, yo'nalish xarakteriga ega bo'ladi.

Hozirgi sharoitlarda **qurilishni rejalashtirishning asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

- tarmoq va butun xalq xo'jaligi rivojlanishining mutanosibligini, yuqori va barqaror sur'atlarini va shu asosda xalq turmush farovonligining o'zluksiz o'sib borishini ta'minlash;

- ijtimoiy ishlab chiqarishning ustivor yo'nalishlarini, rivojlanish tendensiyalarini belgilash, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona rivojlantirish va joylashtirish;

- amaldagi ishlab chiqarish va yangi qurilishning bir butunligiga erishish, foydalanilayotgan va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish zahiralari maksimal safarbar etish;

- qurilishning sur'atlari va ko'lamini investisiya imkoniyatlari bilan bog'liqlikda tezlashtirish, tugallanmagan qurilish hajmlarining ortiqcha o'sishiga yo'l qo'ymaslik;

- bir paytda quriladigan ob'yektlar sonini, ayniqsa ahamiyati va zarurati yuqori bo'lmagan ob'yektlar sonini kamaytirish uchun vosita va harakatlarni safarbar qilish;

- kapital qo'yilmalarning samaradorligini, mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan harajat va zararlarni tugatish;

- qurilish ishlab chiqarishini boshqarishning barcha pog'onalarida kapital qurilish rejasidagi barcha bo'lim va ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlash.

Bu va boshqa vazifalarni odatda bir zumda hal qilib bo'lmaydi yoki ular o'z-o'zidan bajarilib qolmaydi. Bunday vazifalar rejalashtirishda xatolar, kamchiliklar, volyuntarizm va boshqa salbiy holatlar yo'l qo'yilgan hollarda ham bajarilmay qoladi. Shuning uchun, qurilishni rejalashtirish va rivojlantirish vazifalarini belgilashda **rejalarni ishlab chiqishning ilmiy asoslangan usullaridan** kelib chiqish muhimdir. Bu usullarga quyidagilar kiradi:

- 1) kompleks yondashuv, bunda qurilishning xalq xo'jaligining bir tizimi sifatidagi faoliyatining barcha jabhalarini (ikey, texnik, tashkiliy, boshqaruv va hokazo) hisobga olinadi;

- 2) iqtisodiyotni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish rejalari bilan ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlaridagi rejalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va o'zviylik;

- 3) kapital qurilish rejasining resurs imkoniyatlari bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi balans usuli;

- 4) kapital qurilishning sohaviy va hududiy rejalarning o'zaro bog'liqligi, bu usul nimani, kim tomonidan, qayerda va qaysi mablag'lar hisobiga qurishni aniqlashga imkon beradi.

Rejalashtirishda, nafaqat qurilish sohasida, qabulqilinadigan qarorlarning realligi, hayotiyligiga erishish juda muhimdir. Tajribadan ma'lum bo'lishicha, bunga erishish uchun rejalashtirish ilmiy asoslangan va xo'jalik amaliyotida sinalgan ma'lum bir tamoyillarga asoslangan bo'lishi lozim.

Bugungi kunda **qurilish ishlab chiqarishini rejalashtirish tamoyillariga** quyidagilarni kiritish mumkin:

- xo'jalik sub'yektlarining tashabbuskorligi va mustaqilligiga asoslangan demokratik syentralizm (markazlashuv);

- ishlab chiqilayotgan rejalar va investisiya maqsadlarining ilmiy asoslanganligi;

- rejalashtirishning o'zluksizligi;

- rejalarning muayyan maqsadlarga qaratilganligi va ularda ishlab chiqarishni rivojlantirishning material-moddiy hamda qiymat jihatlarining aks ettirilishi;

- qabulqilingan rejalarni amalga oshirish jarayonida tahlil qilish, baholash va muvofiqlashtirish;

- rejalashtirish jarayonida zamonaviy kompyuter va hisoblash texnikalaridan foydalanish (rejalashtirish jarayonini avtomatlashtirish).

Ma'lumki, qurilish boshqa tarmoqlardan nafaqat o'z mahsuloti bilan, balki boshqaruv va moliyalashtirish tizimi bilan ham farq qiladi. Ishlarning pudrat asosida olib borilishi qurilishni va uning ishlab chiqarish bo'g'inlarini buyurtmachilarning mablag'lariga bog'liq qilib qo'yadi.

8.2. Kapital qurilishni rejalashtirishning turlari, mazmuni va yo'nalishlari

Rejalashtirish maqsad va vazifalarni avvaldan belgilash jarayoni sifatida joriy yoki istiqbolli bo'lishi mumkin. Agar joriy rejalashtirish qurilish ishlab chiqarishining dolzarb, kundalik faoliyatda yuzaga keladigan vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo'lsa, istiqbolli rejalashtirish ustivor yo'nalishlarni prognozlash va aniqlashga mo'ljallangan bo'ladi.

Kapital qurilish rejasi xalq xo'jaligi miqyosida quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- 1) kapital qo'yilmalar rejasi;
- 2) loyiha-qidiruv ishlari va loyihalashtirish tashkilotlari ishlari rejasi;
- 3) qurilish ishlab chiqarishi va qurilish tashkilotlari quvvatlarini rivojlantirish rejasi.

Bu yo'nalishlar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, davlat miqyosida kapital qurilishning umumiy taktika va strategiyasini aniqlashga, qurilishning ustivor yo'nalishlari va ro'yxatlarini aniqlashga imkon beradi. Ularda qurilishning nomi, smeta qiymati, loyiha quvvati va muddatlari ko'rsatiladi. Titul ro'yxatiga kiritilgan ob'yekt albatta qurilishi shartdir.

Kapital qo'yilmalar rejasi kapital qurilish rejasining yetakchi bo'limidir. U tarmoqlar bo'yicha ham, hududlar bo'yicha ham ishlab chiqiladi va xalq xo'jaligining mutanosib va kompleks rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Bu reja quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- yangi qurilishlar;
- amaldagi korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish;
- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlarini ishga tushirish;
- qurilish-montaj ishlarining hajmi;
- tugallanmagan qurilish hajmi.

Loyiha-tadqiqot ishlarini rejalashtirish - kapital qurilishni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. U loyiha-tadqiqot tashkilotlarining davlat topshiriqlari va turli investorlarning buyurtmalari asosida shakllanadigan tematik ish rejaları asosida amalga oshiriladi. Loyiha-tadqiqot ishlari kapital qurilish uchun ajratilgan mablag'lar hisobiga, korxona va tashkilotlarning asosiy faoliyati, byudjet ajratmalari hamda buyurtmachi sifatidagi kooperativ va jamoat tashkilotlarining mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi.

Loyiha-tadqiqot ishlarining hamda loyiha tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish rejasi quyidagi bo'limlardan iboratdir:

- 1) loyihalashtirish topshirig'i;
- 2) tematik rejalar;
- 3) loyiha-tadqiqot ishlarining qiymat va natura ifodasidagi hajmi;
- 4) loyiha tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish (xususiy qurilish).

Loyiha-tadqiqot ishlarini rejalashtirishda loyihalashtirish muddatlari, loyiha-tadqiqot ishlarini asosida amalsob-kitob qilish va ularni tasdiqlash tartibi muhim ahamiyatga ega. Bu yerda qurilish me'yorlari va qoidalari (QMQ), avvalo bino va inshootlarni loyihalash muddatlarining me'yorlari muhim rol o'ynaydi.

Loyiha-tadqiqot ishlarini rejalashtirish quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- loyihalarda ilg'or texnologik yechimlardan foydalanish;
- zamonaviy mashina va asbob-uskunalarni, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash vositalarini o'rnatish imkoniyatining hisobga olinganligi;
- hajmiy-rejali va konstruktiv yechimlarning eng yaxshi variantlari;
- ob'yektlarni zamonaviy qurilish materiallari, konstruksiyalari va buyumlari asosidan qurish;
- loyihalashtirish va qurilishning xorijiy tajribasi yutuqlarining hisobga olinganligi.

Loyihalarda ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish bino va inshootlar, korxonalar va boshqa xalq xo'jaligi ob'yektlarini qurish va foydalanishda maksimal samara berishi lozim.

8.3. Qurilish ishlab chiqarishini va qurilish-montaj tashkilotlarining quvvatlarini rivojlantirishni rejalashtirish

Qurilish ishlab chiqarishi rejasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) ishlab chiqarish quvvatlari va ob'yektlarini ishga tushirish;
- 2) qurilish-montaj ishlari hajmi;
- 3) qurilish-montaj tashkilotlarining quvvatlarini rivojlantirish.

Bu reja endi avvalgi paytlardagidek "yuqoridan" tasdiqlangan buyruq emas. U ko'proq akkumulyativ xarakterga ega bo'lib, qurilish ishlab chiqarishining hududlar, yirik ishlab chiqarish majmualari va milliy iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha sohaviy dasturni aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, bu rejada butun respublika miqyosida navbatdagi (rejadagi) davrda qurilish faoliyatining butun "panoramasini" o'z aksini topadi.

8.4. Pudrat tashkilotlar miqyosida ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish

Avval aytib o'tilganidek, pudrat tashkilotlari - qurilish tarmog'ining asosiy ishlab chiqarish bo'g'inlaridir. Bugungi bozor sharoitlarida, qurilish monopoliyadan chiqarilib, qurilish vazirliklari tugatilib, qurilish ishlab chiqarishini rejalashtirish va boshqarish sohasida qurilish tashkilotlariga keng huquqlar va imkoniyatlar berilgan. Bugungi kunda "yuqoridan" tasdiqlab beriladigan ko'rsatmalar, buyruqlar ro'yxati endi yo'q, ammo bu yuqoridagi yoki boshqa boshqaruv organari tomonidan nazorat qilinadigan va ayrim hollarda talab qilinadigan ko'rsatkichlar mutlaqo yo'q degani emas.

Bugungi kundagi amaliyotda pudrat tashkilotlarining faolitetida rejalashtirishning ikki xil turi mavjud:

- 1) texnik-iqtisodiy yoki yillik rejalashtirish;
- 2) operativ-ishlab chiqarish yoki joriy rejalashtirish.

Rejalashtirishning birinchi turi tashkilotning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining yillik rejasi, ya'ni avvallari qurilishning moliyaviy rejasi, ya'ni "stroyfinplan" deb atalgan rejani ishlab chiqarishdan iborat. Unda pudrat

tashkilotlarining ishlab chiqarish faoliyatidagi eng muhim ko‘rsatkichlar aks ettiriladi, quyida ular sanab o‘tilgan:

- ishga tushirilgan quvvatlar va ob‘yektlar natural o‘lchov birliklarida;
- korxonalarning genpudrat bo‘yicha va o‘z kuchlari bilan bajarayotgan qurilish-montaj ishlari hajmi, pullik o‘lchovda;

- ish haqi fondi;
- ishlab chiqarish harajatlari;
- foyda summasi;
- byudjetga to‘lovlar va byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar;
- ishchilarning soni va boshqalar.

Operativ-ishlab chiqarish rejalashtirishda yillik rejadagi vazifalarni nisbatan qisqaroq ish muddatlari uchun aniqlashtiriladi. U qurilish ishlab chiqarishining maromini yo‘lga qo‘yadi, salbiy nuqtalarni o‘z vaqtida aniqlab, ularni bataraf qilish choralarini ko‘radi.

Operativ-ishlab chiqarish rejalashtirishning yana bir muhim xususiyati uning qurilish uchastkalari boshliqlari, prorablar, qurilish ishlab chiqarishi masterlari yoki brigadirlari bilan ishlashga qaratilganligidir. Operativ rejalardagi vazifalarga ko‘ra oylik, o‘n kunlik va kunlik ishlarning jadvallari ishlab chiqiladi. Ular qurilish maydonchalarida ishlarni bir maromda tashkil qilish uchun o‘ziga xos orientir bo‘lib xizmat qiladi.

Biznes-rejani ishlab chiqishdan avval korxonaning rivojlanish strategiyasini aniqlash yuzasidan katta ishlarni amalga oshirish lozim. Biznes-rejani ishlab chiqishda quyidagi talablar qo‘yiladi:

- korxonadagi vaziyatning haqqoniy, real baholanganligi;
- ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlarning aniq yo‘nalganligi;
- biznes-rejaning o‘z vaqtida ishlab chiqilganligi;
- selektivlik (axborotning tanlab olinishi);
- axborotning ochiqqligi, yetarliligi, lo‘nda va sodda bayon qilinishi, ikki xil ma’noda tushunish imkoniyatining yo‘qligi.

Aytib o‘tilgan talablardan tashqari, biznes-reja quyidagi talablarga ham javob berishi lozim:

- aniqlik va mantiqiy izchillik;
- dalillarning ishonchliligi, muayyanligi va lo‘ndaligi;
- barcha moddalarning asoslanganli va ularning reklama uchun jozibadorligi.

Biznes-rejani faqat tadbirkorlik sohasidagi yangi faoliyat turlarini asoslash uchun emas, balki quyidagi hollar uchun ham tuzish mumkin:

- yangiliklarni joriy qilish;
- korxonaning yangi va mavjud mahsulot bilan yangi bozorga chiqishi;
- investorlarni jalb qilish;
- valyuta yoki pul krediti olish;
- moliyaviy faoliyat rejalarini tuzish;
- ishlab chiqarish hajmlarini oshirish.

Bir soʻz bilan aytganda, biznes-reja - bu choʻqqiga koʻtarilmoqchi boʻlgan alpinistlar uchun yoʻnalishlar koʻrsatilgan oʻziga xos harita boʻlib, ularning mashqlarini kadrlar tayyorlash tizimiga, ularning asbob-anjomlari va kiyim-boshlarini esa ishlab chiqarish fondlariga oʻxshatish mumkin. Choʻqqining zabt etilishi alpinistlarning oʻziga va ekspedisiya uchun qulay boʻlgan va goʻyoki tadbirkorlikdagi tavakkalchilikning modeli boʻlgan ob-havo sharoitlariga bogʻliqdir.

Biznes-rejani tuzishda korxona rahbarining shaxsan ishtiroq etishi juda muhimdir. Xorijiy tajribadan maʼlum boʻlishicha, barcha banklar, investisiya firmalari va ularga tenglashtirilgan organlar biznes-reja boshdan-oyoq chetdan taklif qilingan maslahatchi tomonidan tayyorlanib, rahbar tomonidan faqat imzolanganligi maʼlum boʻlib qolsa, mablagʻ ajratish soʻralgan arizalarni koʻrib chiqishdan bosh tortar ekanlar.

Ammo bu maslahatchilarning xizmatlaridan mutlaqo foydalanish kerak degani emas, aksincha ekspertlarni jalb qilish juda yaxshi boʻladi. Gap bu yerda biznes-rejani tuzishda korxona (firma) rahbarining, yaʼni yangi biznes faoliyatini tashkil qiluvchi yoki oʻz korxonasini rivojlantirishni istayotgan kishining shaxsan ishtiroq etishi juda muhimligi haqida bormoqda.

Muhokama va nazorat uchun savollar

1. Qurilishda rejalashtirishning mazmuni, turlari va vazifalarini bayon qilib bering.
2. Bozor sharoitlarida rejalashtirish va prognozlash funksiyalari qanday o'zgaradi?
3. Qurilish tashkilotini (firmasini) rivojlantirish rejasining qanday bo'limlari va ko'rsatkichlarini bilasiz?
4. Qurilish korxonasining faoliyati va rivojlantirish rejasining asoslanganligi nimadan iborat?
5. Qurilish korxonalarida rejalashtirishning normativ asosini yoritib bering.
6. Biznes-rejani ishlab chiqishning mazmuni va tartibini tushuntirib bering.
7. Biznes reja bo'limlari va ularning qurilish korxonalaridagi o'ziga hos xususiyatlari.
8. Operativ-ishlab chiqarish rejalashtirish korxonada qanday amalga oshiriladi?

9 - MAVZU. QURILISHDA BAHONING BELGILANISHI, DAROMAD VA RENTABELLIK

- 9.1 Qurilishda baho belgilash mexanizmi va uning xususiyatlari.
- 9.2 Qurilishning smeta bo'yicha qiymati (narxi)ni belgilashning tarkibi, tuzilishi va uslublari.
- 9.3 Qurilishda foyda va uni hisoblash usullari.
- 9.4 Rentabellik va uni qurilishda oshirish yo'llari.

9.1 Qurilishda baho belgilash mexanizmi va uning xususiyatlari.

Qurilishda baho belgilash siyosati umumdavlat baholash siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Narh yordamida davlat va xo'jalik sub'yektlari, shu jumladan korxonalar va qurilish sanoati tashkilotlari jamiyatning zaruriy sarf-harajatlarini rejalashtirish va boshqarishni amalga oshiradi, kerakli ishlab chiqarish mutanosibliklarigarioya qiladi, mahsulot harajatlari va olingan natijalarni baholaydi. Boshqacha qilib aytganda, narh yordamida iqtisodiy kategoriya sifatida talab va taklif o'rtasidagi muvofiqlik taminlanadi, ishlab chiqarishni rivojlantirishning oddiy va istiqbolli dasturlari belgilanadi.

Narxning asosiy vazifasi - mahsulot qiymatini miqdoriy ifodalanishidir. U yalpi va tovar qurilish mahsuloti, mehnat unumdorligi, rentabellik, kapital mablag'lar hajmi, ish haqi fondi va boshqalarni belgilash uchun foydalaniladi. Qurilish mahsulotlari ishlab chiqarishdagi narx ahamiyati qurilishning smeta qiymati bo'yicha belgilangan qiymatini belgilaydi.

Bozor munosabatlari sharoitida narx hech kim tomonidan boshqarilmaydi, ba'zi odamlarga boshqariluvchi – rejalashtirilgan iqtisod haroitida harakat qiluvchi «boholash» organi, Davnarx qo'mitasini tashqil qilish zaruriyati haqida tez-tez qumsashni tug'diradi degan tassurot paydo bo'ladi. Lekin aslini olganda vaziyat sal boshqacharoq. Davlat mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston hukumati narx-navoni erkinlashtirish siyosatini tayinladi va quyidagi choralarni birinchi galdagi deb nazarga oldi:

Baho belgilash usulining keyinchalik yaxshilanishi va narx-navo ahamiyatini bozor regulyatori sifatida mustaxkamlash.

Ulgurji va chakana narxlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish kursining izchil o'tkazilishi, erkin (kelishilgan) narx bo'yicha sotiluvchi mahsulotlar (tovarlar) doirasining kengayishi.

Hayotiy muhim oziq-ovqatlar, birinchi navbatda un va non narxini tor doirada davlat tomonidan tartibga solishning vaqtinchalik saqlanishi.

Sotib olish narxlarining dunyo narxlari darajasigacha yetkazish bilan ularni izchil oshishi.

Antimonopol tadbirlar o'tkazish, yuqori monopol tuzilmalarni nisbatan kichiklashtirish hisobiga narxlarning sun'iy oshirilib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralarni amalga oshirish, raqobat muhitini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish.

Ko'rinib turibdiki, baho belgilash mehanizmi notabiiy jarayon yoki o'zini o'zi tashkil qiluvchi muhitdir. Narxlar pul munosabatlarining butun tizimi kabi iqtisodning ham makro, ham mikro darajasidek xo'jalikning boshqarishning muhim quroli bo'lgan, bo'lib qoladi.

Mamlakat Prezidenti I.Karimovning «Uy-joy qurilishni rivojlantirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari» haqida farmoniga muvofiq, ma'lumki, aholi va korxonalar mablag'i, devorbop materiallar va boshqa mahsulotlar ajratish hisobiga amalga oshiriluvchi imtiyozli narxlar bo'yicha bajariladi.

Lekin qurilish mahsuloti qurilishda bahoni belgilashga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi boshqa soha materiallaridan ancha farq qiladi. Ularga jumladan, kapital sig'imi, individuallik, titul va titulmas ob'yektlar qurishga muhim bir yo'la sarflanadigan harajatlar, ularning turlari vazifalari, qurilishning o'zoq muddati mahalliy hamda tabiiy sharoitlarga bog'liqligi va boshqalarni kiritish muim. Bu hususiyatlar shunday qilib sarf-harajatlardagi barpo etilayotgan ob'yektlar yoki ularning qismlarining narhdagi farqini belgilaydi. Shuning uchun har bir ob'yekt narxi proyekt smeta bilan belgilanadi. Bu yerdan, qayd qilinganidek, smeta bo'yicha belgilangan narx – bu qurilish mahsuloti narxidir. Har qanday mahsulot narxi, jumladan qurilish mahsulotlari narxi istemolchilar (haridorlar) uchun ular oqilona rejalashtirilgan yoki normallanuvchi daromadni hisobga olish bilan jamiyatning zaruriy sarf-harajatlariga asoslangan harajatlarda arzon va maqbo'l hisoblanishadi. Agar narxlar bu qoidalarga to'g'ri kelmasa va o'z mohiyatidan jamiyatning zaruriy sarf-harajatlaridan oshib ketsa, ularni haridorlarning qiziqishlari va imkoniyatlarini cheklab qo'yuvchi «narxi osmonda» yoki hayoliy deb nomlashadi.

Qurilishda bahoni belgilash sistemasini yaxshilash uchun birinchi navbatda quydagilar zarur:

ilmiy-texnik muvafaqqiyatlariga va resurslarni tejash usullariga asoslangan, albatta qurilish sifatiga zarar yetkazmaydigan zamonaviy loyihalar ishlab chiqish;

qurilishni smeta bo'yicha to'g'ri belgilash;

Unisi ham, bunisi ham, bo'lardan tashqari, ko'p jihatdan ishchilarga, ularning malakasi, bilim darajasi, loyihalashtirish sohasida ham, qurilish ishlab chiqarish sohasida ham tajriba mahoratga bog'liq.

9.2 Qurilishning smeta bo'yicha qiymati (narxi)ni belgilashning tarkibi, tuzilishi va uslublari.

Qurilishning smeta bo'yicha qiymati – bu loyihalarda asos solingan qarorlarga mos holda o'sha yoki boshqa ob'yektlar va inshootlarni ko'paytirish uchun zarur pul mablag'lar miqdoridir. U smetaga oid hujjatlarni ishlab chiqarish paytida investor (buyurtmachi) topirig'i yoki vazifasi bo'yicha loyiha tashkiloti tomonidan belgilanadi. Ohirgisi yangi qurilish bilan ham, amaldagi korxonalar, binolar va inshootlarni kengaytirish yoki qayta qurish bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Qurilishning smeta bo'yicha qiymatini belgilash zaruriyati qoida bo'yicha, asosan ikki holatda paydo bo'ladi:

loyiha-smetaga oid harajatlari bilan ishlash paytida, ya'ni belgilangan hujjatlarning tarkibiy va asosiy qismi sifatida;

loyihaning texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish vaqtida (TIA).

Umuman smeta bo'yicha qiymat kapital mablag'larni aniqlash, qurilish uchun mablag' ajratishni topish, qurilish mahsulotlariga (kelishilgan) narxni shakllantirish, bajarilgan qurilish - montaj ishlarigahisob – kitoblarni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi. Smeta bo'yicha qiymatlardan kelib chiqqan holda qurilgan korxonalar, binolar va inshootlar bo'yicha asosiy jamg'armalar joriy qilingan bilans qiymati belgilanadi.

Qurilishning smeta bo'yicha qiymatini belgilash uchun asos bo'lib qo'ydagilar xizmat qiladi.

- loyihaga tushuntirish xati;
- loyihaning o'zi va ish hujjatlari, shu jumladan qurilish-montaj ishlari ko'lami chizmalari va vedomosti;
- jihozlarni tasniflash;
- ishlarni bajarish loyihalari (IBL) va qurilishni tashkil qilish loyihalari (QTL);
- amaldagi smeta normativ baza;

Hisobga olish va rejalashtirish amaliyotidagi qurilishning smeta bo'yicha qiymati quyidagi asosiy elementlar bo'yicha aniqlanadi.

- qurilish ishlari;
- jihozlar va montaj bo'yicha ishlar (montaj ishlari);
- mashina va jihozlarni egallash uchun harajatlar
- boshqa harajatlar (loyiha - qidiruv va boshqalar);

Pudrat tashkilotlari faoliyatida elementlarning birinchi ikki guruhi odatda bitta moddaga - qurilish-montaj ishlariga birikadi, ular o'z navbatida quyidagi qismlardan tashkil topadi: bevosita harajatlar (BX), ustama harajatlar (UX) va rejali jamg'armalar yoki smeta foydasi (R_j). Bu formuladan kelib chiqib qurilish mahsuloti birligini aniqlash yoki qurilish-montaj ishlarining yagona smeta bo'yicha qiymati quydagicha ko'rinishda bo'lishi mumkin.

$$Q_{qmi} = BX + UX + R_j$$

Bevosita harajatlar o'z ichiga quydagilarni oladi: xom-ashyo, mahsulot va konstruksiyalar qiymati, ishchilarni mehnat to'lovi qiymati, mashina va mexanizmlardan foydalanish harajatlari. Ularning har bir ko'rinishi, smeta normalari va narxlari bo'yicha ishlarining jismoniy ko'lamini tashkil qilishda ular bevositak hisob-kitob bilan aniqlanadi.

Ustama harajatlar – ishlab chiqarishning umumiy shartlarini, uning boshqarish va xizmat qilish tashkilotlarini tashkil etish bilan bog'liq harajatlarning yig'indisidir. Ularning tarkibiga quydagilar kiradi:

- ma'muriy-xo'jalik harajatlari;
- qurilish ishlari xizmatlari harajatlari;
- qurilish maydonlaridagi ishlarni tashkil etish harajatlari;
- qolgan ustama harajatlar (mol-mulkni sug'urta qilish, bank kreditlari bo'yicha to'lovlar, reklama bo'yicha harajatlar va boshqalar).

Ustama harajatlarning qiymati bevosita harajatlarning smeta bo'yicha narxiga maxsus normalar bilan %larda belgilanadi.

Rejali jamg'armalar (smeta foydasi) – bu pul-mablag' yig'indisi bo'lib, ish tannarxiga tegishli bo'lmagan va qurilish mahsuloti qiymati (narxi)ning normativ (kafolatli) qismi hisoblanuvchi qurilish tashkilotlarining alohida (umumiy) harajatlarini qoplash uchun zarurdir. Uning qiymati bevosita va ustama harajatlarning smeta bo'yicha narxiga nisbatan %larda hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan sarf-harajatlarning hisob-kitobi quydagi formula bilan amalga oshiriladi:

$$B_x = Q_{qmi} - UX + R_j;$$

$$UX = ((Q_{qmi} - R_j)UX) / (100 + UX);$$

$$R_j = (Q_{qmi} - UX) / 100;$$

Qurilish mahsulotlarida erkin narxlarni shakllantirish sharoitida rejadagi jamg'armalar normativi qurilish mashina va mexanizmlari xizmatini egallovchi ishchi-quruvchilar hamda ishchilar mehnati to'lovchi uchun mablag'ning aniq qiymatiga 50% yoki qurilish-montaj ishlarining smeta bo'yicha tannarxiga 12% o'lchamda belgilanishi mumkin.

$$S_t = Q_{qmi} - (Q_{qmi} * R_j) / (100 + R_j)$$

Q_{qmi} - qurilish–montaj ishlarining (qurilishning)smeta bo'yicha qiymati.

R_j – rejadagi jamg'armalar normasi, %.

Smeta bo'yicha tannarx – bu smetaga oid norma va narxlar bo'yicha qurilish-montaj ishlarini bajarishga ketgan harajatlardir. U qurilish-montaj ishlarini smeta bo'yicha qiymatidan rejali mablag'lar qiymatiga qaraganda kamroq, ya'ni

$$S_t = Q_{qmi} - R_t,$$

R_t – rejadagi mablag‘larning to‘liq qiymati.

Rejadagi tannarx – bu qurilish montaj ishlarini bajarish uchun rejalashtirilgan sarf-harajatlardir. Rejadagi tannarx smeta bo‘yiicha tannarxda rejadagi kamayish qiymatida kamroq. U texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar bilan amalga oshiriladiva mehnat unumdorligini o‘sishi, iqtisodiy rejimi va mahsulot rasional usullarini tashkil etishni bajarish hisobi bilan qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga ketishi mumkin bo‘lgan harajatlarni belgilaydi. Ishlarning rejadagi tannarxi quydagi formula bilan aniqlanadi.

$$R_t = Q_{qmi} - R_j - 3 + D$$

Q_{qmi} – ishning smeta bo‘yiicha qiymati;

R_j – rejadagi mablag‘lar;

3 – tannarxning rejalashtirilgan kamayishi;

D – smetadan tashqari ishlar uchun to‘lovlar;

Haqiqiy tannarx – bu qurilish-montaj tashkilotlarining ishlarni amalga oshirish uchun ketgan haqiqiy harajatlardir. Haqiqiy harajatlar iloji boricha kamroq bo‘lishi uchun, albatta, qurilish sifatiga zarar yetkazmasdan pudratchi tashkilotlar resurslardan iqtisodiy foydalanishni ko‘rib chiquvchi tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari, jonli mehnat va taxnikadan unumli foydalanish, bekor turib qolishlar va talofatlarga yo‘l qo‘ymasliklari kerak.

Haqiqiy tannarxni shakllantirish uchun qoida bo‘yiicha qurilish korxonasi buxgalteriyasi tomondan amalga oshiruvchi bajarilgan ishlarni to‘g‘ri hisob-kitob qilish katta ahamiyatga ega. Bu hisob-kitob odatda qurilish tugaguncha o‘sib boruvchi uslub bilan har ob‘yekt bo‘yiicha olib boriladi. Bu yerda qurilish tashkiloti hamda buyurmachi yoki uning vaqili tomonidan imzolangan bajariluvchi ishlarni qabulqilish ishlari muqarrar foyda keltirishi mumkin Bajarilgan ishlar hisobotini amalga oshirish vaqtida mutloq nojo‘ya oshirib yozishlar bo‘lib, qurilish qiymati va tannarxini sun‘iy hamda haqiqatdan o‘stirish yuridik, ba‘zan jismoniy javobgarlikka tortiladi.

9.3 Qurilishda foyda va uni hisoblash usullari.

O'quv axborotni izlash, tanlash va bayon etish jarayonida talabalarning faol ishtiroklarida yoritib berish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Oldindan belgilangan muammo va uni har tomonlama yoritib berish nazarda tutilgan ma'ruzalar tizimi (5-10 daq. davomiyligida) bilan, ilmiy-amaliy mashg'ulot ko'rinishida o'tkaziladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi mustaqil ish va so'zga chiqishlarga yakun yasaydi, axborotni to'ldiradi/aniqlik kiritadi, asosiy xulosalarni ifodalaydi.
<i>Umumlashtiruvchi ma'ruza</i>	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Ma'ruzada bayon etilayotgan nazariy holatlarning negizini kursning yoki katta bo'limlarning ilmiy-tushunchali va konseptual asosi tashkil etadi.
<i>Maslahatli-ma'ruza</i>	
Bilimlarni chuqurlashtirish, tizimlashtirish.	Turlicha ssenariy bo'yicha o'tishi mumkin. 1. "Savol-javoblar"- o'qituvchi bo'lim yoki to'liq kurs bo'yicha talabalar savollariga javob beradi. 2. "Savol-javoblar-munozaralar": o'qituvchi nafaqat savollarga javob beradi, balki javoblarni izlashni ham tashkillashtiradi.
<i>Yakuniy ma'ruza</i>	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Kursni o'rganishni yakunlaydi, butun davr mobaynida o'tilganlarni umumlashtiradi. Yakuniy ma'ruzada o'qituvchi kursning asosiy g'oyalarini ajratadi, kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatda va boshqa fanlarni o'rganishda olgan bilimlarni qanday qo'llash yo'llarini ko'rsatadi, fan bo'yicha yakuniy nazorat xususiyatini tushuntiradi, yakuniy nazorat variantlarining murakab savollarini tushuntiradi.

2. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar

AQLIY HUJUM METODI

Aqliy hujum (breynstroming-aqlar to'zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirishda qo'llaniladigan metod.

•Metod chegaralangan vaqt oralig'i ichida aniq muammo (savol, masala)ni yechishning noan'anaviy yo'llarini izlash bo'yicha o'quvchilarni aqliy faoliyatini yo'naltirishga asoslangan.


•O'quv mashg'ulotidagi aqliy hujum uchun muammoni tanlash quyidagi tamoyillar bo'yicha amalga oshiriladi:

- tanlangan muammo nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi hamda o'quvchilarda faol qiziqish uyg'otishi kerak;

- ko'p har xil ma'nodagi yechim variantlariga ega bo'lishi kerak.

O'qitish texnologiyasini ishlab chiqishda aqliy hujum metodi o'quv mashg'ulotining bir lavhasi yoki butun mashg'ulotni o'tkazish asosi sifatida rejalashtirilgan bo'lishi mumkin.

Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi 1-rasmda keltirilgan.



Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi

INSERT TEXNIKASI

INSERT (inglizcha so'zdan olingan bo'lib - **INSERT** – Interaktiv- interfaol **Noting** – belgilash System - tizim for-uchun **Effective** – samarali **Reading** – o'qish and– va **Thinking** – fikrlash degan ma'noni anglatadi).

1) Samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilar qo'yishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matnni belgilash tizimi:

(√) - mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;

(+) –men uchun yangi axborot;

(–) - menning bilganlarimga, zid axborot;

(?) - meni o'ylantirib qo'ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak.

PINBORD TEXNIKASI

Pinbord–(inglizchadan: *pin*- mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) – o'quvchilarni tizimli va mantiqiy fikr bildirishga o'rgatadigan metod.

Pinbord texnikasi:

1) muammoli masalalar va vaziyatlar, aqliy hujum va amaliy o'qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) muammoni yechish variantlarini baholash hamda ular ichidan eng yaxshisini tanlash imkonini beradi;

2) aqliy hujum va amaliy o'qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) toifali sharh o'tkazish imkonini beradi.

Pinbord texnikasining texnologik chizmasi

KEYS–STADI METODI

KEYS – (ingl. sase – to'plam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni yechish jarayonida qo'llash imkonini beruvchi *o'qitish vositasi*.

Keysda bayon qilingan vaziyatni o'rganib va tahlil qilib, o'quvchilar o'zining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o'xshash vaziyatlarda qo'llashi mumkin bo'lgan tayyor yechimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg'ulotlarda yechiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilgan) va talab (nimani topish kerak) berilgan bo'lsa, keysda, qoidaga ko'ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O'quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

- keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo'lishi kerak;
- bayon qilingan muammoli vaziyatni yechish uchun kerakli va yetarli xajmda ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak
- keysni yechish uchun *uslubiy ko'rsatmalar* bo'lishi kerak.

Keys–stadi (ingl.sase– to'plam, aniq vaziyat, stadi-o'qitish)–amaliy o'qitish vaziyatlarimetodi.

Keys-stadi - o'qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan o'qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o'quvchilarni quyidagilarga undaydi:

- muammoni shakllantirishga;
- amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;
- muammo yechimini eng maqbul variantini tanlashga.

O'quv mashg'ulotning o'qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o'rtacha miqdordagi, katta)
2. O'quv topshirig'ini taqdim etish usuli:
 - savolli (savollar keysdan keyin keltiriladi)
 - topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

O'QUV LOYIHA METODI

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma'lum muddat ichida (bitta o'quv mashg'ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta'lim oluvchi guruhli yoki yakka tartibda berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig'ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan foydalanuvchiga yo'naltirilgan yangi ma'lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy yechimidan iborat.

O'quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talablarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish *usuli*;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv vosita va qurollari;

- rivojlantiruvchi, ta'lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan *didaktik vosita*.

ГРАФИК ТАШКИЛ ЕТУВЧИЛАР

КЛАСТЕР (klaster-tutam, bog'lam)-axborot xaritasini tuzish yo'li- barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish asosida aniq biror mazmunni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalb qilishda yordam beradi.

Кластерни тuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

1. Katta qog'oz varag'i markazida kalit so'z yoki 1-2 so'zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing.

2. Kalit so'z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana- "yo'ldoshcha" ichiga mavzu bilan aloqador so'z yoki so'z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan "bosh" so'zga bog'lang.

3. Ushbu "yo'ldoshcha"larda "kichik yo'ldoshlar" ham bo'lishi mumkin, ular ichiga yana so'z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g'oyalar tugamagunga qadar davom ettiriladi.

«**NIMA UCHUN?**» **SXYeMASI** –muammoning dastlabki sababini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri bo'lib,tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Nima uchun?» sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammosababini aniqlash uchun:

1) Muammoni yozing va strelka chizig'ini chiqarib «Nima uchun?» so'rog'ini yozing.

2) Savolga javob yozib nima uchun so'rog'ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring

«**BALIQ SKELETI**» **CHIZMASI** – bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:

1.«Baliq skeletini» chizing:

Муаммо ости
муаммолар

Муаммо ости
муаммоларнинг
мавжудлигини

тасдиқловчи далиллар

2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o'ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

«QANDAY?» IYERARXIK DIAGRAMMASI - muammo to'g'risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning yechimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Qanday?» diagrammasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

«Qanday?» diagrammasini tuzishdan avval, siz quyidagilarni bilishingiz kerak: ko'p hollarda Sizga muammolar hal etishda «Nima qilish kerak?» haqida o'ylashga hojat bo'lmaydi. Muammo yechimini topish uchun asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo'ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

1. Doira chizing va uning ichiga yechilishi lozim bo'lgan muammoni yozing.

2. Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'ying va shu savolga javob bering. Shu tartibda savollarni ketma-ket berib boravering va javoblarni o'ylab o'tirmasdan, solishtirmasdan, baholamasdan, tez-tez yozishda davom eting.

Maslahat va tavsiyalar:

Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko'rinishida, yuqoridan pastga yoki chapdan o'ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko'p miqdordagi foydali g'oyalar va muammo yechimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

Agarda siz muammoni yechimini topish uchun to'g'ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo'nalishini namoyon bo'lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi.

«NILUFAR GULI» CHIZMASI - muammoni hal etish vositasi. O'zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratdan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

«Nilufar guli» sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammoni hal etish vositalarini topish uchun:

1) O'zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan sxemani chizing. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratdan iborat;

	B	
	D	
	G	

	Z	
B	Z	C
D	A	F
G	H	Y
	H	

	C	
	F	
	Y	

2) asosiy muammoni markaziy kvadratning markaziga yozing. Uni hal etish g'oyalari markaziy kvadrat atrofida joylashgan qolgan sakkizta kvadratlarga yozing;

3) har bir ushbu sakkizta g'oyani markaziy kvadrat atrofida joylashgan sakkizta katta kvadrat markaziga o'tkazing, boshqacha aytganda, nilufar gulidan uning gul bargiga o'tkazing. Shunday qilib, ular har biri, o'z navbatida, yana bir muammo sifatida qaraladi.

MUSTAQIL TA'LIMGA OID TOPSHIRIQLAR

MUSTAQIL TA'LIMG'A OID TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Bosh maqsadimiz – iqtisodiyotimizda olib borayotgan islohotlarni va tarkibiy o‘zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berishdir” mavzusidagi ma‘ruzasida keltirilgan ustuvor vazifalar bo‘yicha qiyosiy tahlilni amalga oshirish.
2. 2015-2019 yillar uchun ishlab chiqarishni strukturaviy islohotlar bilan ta‘minlash, modernizatsiya va diversifikasiyalash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi asosida qurilish korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning tahlili.
3. Investisiya siyosati va milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari.
4. Qurilish industriyasi korxona va tashkilotlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning asosiy yo‘nalishlari.
5. Xususiy qurilish firmalari va bozor munosabatlari sharoitida ularni tashkil etishni rag‘batlantirish.
6. Pudrat ishlari bozorining mohiyati, zarurati va shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari.
7. Ob‘yektlar qurilishiga buyurtmalarni tanlov (tender) asosida joylashtirish tizimi - qurilish kompleksini faoliyati samaradorligining muhim yo‘nalishi.
8. Investisiya siyosati va milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari.
9. Qurilish kompleksi sohasida tadbirkorlik faoliyatining xususiyatlari.
10. Investisiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqish va tasdiqlash.
11. Boshqarishni bir va ikki bosqichli tizimiga o‘tish - qurilish kompleksini boshqarish tuzilmasini takomillashtirishning muhim yo‘nalishi.
12. Qurilishda shartnoma munosabatlarining tartibi va mazmuni.
13. Qurilishda bahoni shakllantirish mexanizmini takomillashtirish.
14. Qurilish ishlab chiqarishida istiqbolli qurilish materiallarini tadbiq etish va takomillashtirish yo‘nalishlari.
15. Qurilish ishlab chiqarishida istiqbolli qurilish materiallarini tadbiq etish va takomillashtirish yo‘nalishlari.
16. Qurilishda mehnatga haq to‘lashning xususiyatlari.
17. Qurilishda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish muammolari va ularni yaxshilash yo‘llari.
18. Qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash yo‘llari.
19. Qurilish industriyasi kadrlar potentsiali va bozor munosabatlari sharoitida uni shakllantirish muammolari.
20. Qurilishda texnikaviy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlari.

GLOSSARIYLAR

GLOSSARIYLAR

Qurilish - asosiy moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biridir. U milliy iqtisodiyotda uchinchi (sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin) o'rinda turadi. qurilishning mahsuloti - barcha turdagi ishlar bo'yicha tugallangan va ishga tushirishga tayyor bo'lgan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlari, shuningdek, amaldagi korxonalarining kengaytirilishi va qayta ta'mirlanishi, ularda ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlanishidir. Uy-joy muammolarining yechimi batamom qurilish zimmasiga yuklatiladi.

Tayyor qurilish mahsuloti - bu qurilgan va buyurtmachiga belgilangan tartibda topshirilgan asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlaridir (korxonalar, elektrostansiyalar, shaxtalar, uylar, maktablar, shifoxonalar va boshqa ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish ob'yektlari).

Tugallanmagan qurilish - bu tugallanmagan va foydalanishga topshirilmagan qurilish ob'yektlari bo'yicha o'zlashtirilgan kapital qo'yilmalarning muayyan bir sanadagi holati bo'yicha olingan hajmidir.

Tugallanmagan qurilish ishlab chiqarishi - tugallanmagan va buyurtmachiga topshirilmagan ob'yektlarda (qurilishlarda) pudratchi tashkilot yoki tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish mahsulotining qurilish-montaj ishlarining hajmini tavsiflovchi qismi. Tugallanmagan qurilish hajmi natura va pul ifodasida hisobga olinadi.

Konservatsiya - asosiy vositalar yoki qurilishi tugallanmagan ob'yektlarning tegishli qaror bilan belgilanadigan davrda saqlanishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar, bu davr tamom bo'lgach ulardan foydalanilishi yoki qurilish davom ettirilishi kerak.

Qaytadan boshlash - konservatsiya qilingan asosiy vositalarni foydalanishga topshirish yoki konservatsiya qilingan ob'yektlar qurilishini tugallash ishlari boshlanishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar.

Dastlabki qiymat - asosiy vositalarni tiklash (qurish va qurilishni oxiriga yetkazish) yoki sotib olish uchun amaldagi xarajatlar qiymati, shu jumladan to'langan va qoplanmaydigan soliqlar (yig'imlar), shuningdek keltirish va montaj qilish, o'rnatish, foydalanishga topshirish xarajatlari hamda aktivlardan belgilangan maqsadda foydalanish uchun ularni ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan har qanday boshqa xarajatlar.

Qoldiq qiymat - jamlangan amortizatsiya summasi chiqarib tashlangan holda asosiy vositalarning dastlabki (tiklash) qiymati, ular bo'yicha aktiv hisob va hisobotda aks ettiriladi.

Sanoat qurilishi - mavjud sanoat korxonalarini kengaytirish, qayta ta'mirlash va texnik qayta jihozlash hamda yangilarini qurish, shuningdek, yordamchi sanoat ishlab chiqarishlarini qurishdir. Masalan, mashinasozlik va metallurgiya zavodlarini qurish, neft, gaz, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlari korxonalarini qurish. Sanoat qurilishi ko'p jihatdan industriyalashtirishning ko'lami va sur'atlarini, texnik taraqqiyot darajasini belgilab beradi.

Qishloq qurilishi - qishloq joylaridagi yangi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlarini yaratish, ularni qayta ta'mirlash yoki kengaytirish bilan

bog'liq qurilishlardir. Qishloq qurilishiga suv xo'jaligi, irrigatsiya, meliorativ va boshqa qurilish turlari ham kiradi.

Uy-joy qurilishi - yangi uy-joylarini, yotoqxonalar, yotoq korpuslari, bolalar uylari va qariya hamda nog'ironlar uylarini qurishdir. Aholining jamg'armalari va davlatning qo'llab-quvvatlashi hisobiga quriladigan shaxsiy uy-joylarni qurish ham uy-joy qurilishi tarkibiga kiradi.

Madaniy-maishiy qurilish - kommunal xo'jalik, sog'liqni saqlash, fan va madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot, boshqarish organlari tizimlariga qarashli yangi ob'yektlarni qurish va amal qilayotganlarini ta'mirlashdir.

Qurilish kompleksi - pudratchi qurilish va montaj tashkilotlari, ularga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, qurilish materiallari, detallar va konstruksiyalari ishlab chiqaruvchi korxonalar majmuasidir.

Investor - ob'yekt qurilishini moliyalashtirishni xususiy yoki qarz mablag'lar hisobiga amalga oshiruvchi investisiya faoliyati sub'yekti.

Buyurtmachi - texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqishdan boshlab ob'yektni foydalanishga topshirish yoki ob'yektning ishlab chiqarish quvvatiga chiqishigacha bo'lgan muddatda ob'yekt qurilishining tashkilotchisi va boshqaruvchisi funksiyalarini qabulqilgan huquqiy yoki jismoniy shaxs.

Qurilish egasi - qurilish bo'layotgan yer maydoniga egalik qilish huquqiga ega bo'lgan huquqiy yoki jismoniy shaxs. U yer egasi hisoblanadi. Buyurtmachi qurilish egasidan farqli ravishda yer maydonidan qurilish uchun faqat ijara shartlari asosida foydalanadi.

Pudratchi (bosh pudratchi) - pudrat shartnomasi yoki kontrakti asosida ob'yekt qurilishini amalga oshirayotgan qurilish firmasi. Bosh pudratchi qurilish natijalari uchun shartnoma shartlariga muvofiq ravishda buyurtmachi oldida to'liq javobgar bo'ladi. U zarur hollarda ayrim turdagi ishlarni bajarish uchun quyi pudrat tashkilotlarini jalb qilishi mumkin.

Loyihalovchi - buyurtmachi bilan tuzilgan shartnoma asosida u yoki bu ob'yektning kelgusidagi qurilishini loyihalovchi loyihalash tashkiloti yoki shunga o'xshash boshqa muassasa.

Pudrat usulida qurilish muntazam ishlab turuvchi qurilish tashkilotlari (firmalari) tomonidan buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Xo'jalik usulida - ob'yektlar qurilishi yoki qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish ishlari xo'jalk sub'yektlarining - korxonalar, tashkilotlar, institutlar va shu kabilarning kuch va mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Ob'yektlarni foydalanishga tayyor holda ("qulf-kalit" gacha) topshirishda buyurtmachining funksiyalari bosh pudratchiga berilib, u qurilishni boshidan boshlaydi va ob'yektni buyurtmachiga o'zil-kesil tugallangan holatda topshiradi. qurilishning bunday usuli uy-joy qurilishida juda keng tarqalgan.

Tanlovlar - iqtisodiyotda nisbatan yangi hodisa bo'lib, bunda buyurtmachi biror ob'yektni qurish yoki loyihalash, asbob-uskunalar yetkazib berish bo'yicha tanlov e'lon qilayotganligini ochiq yoki yopiq shaklda xabardor qiladi va hohlovchilarni shu tanlovda ishtiroq etishga taklif qiladi.

Qurilish maydoni - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'yektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

Vaqtinchalik inshootlar - Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar.

Berkitiladigan ishlar - sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

Shartnoma narxini bo'lib chiqish - ishlarning har bir bosqichi va (yoki) turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha ob'yektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

Boshlang'ich narx - buyurtmachi tomonidan yoki uning buyurtmasi bo'yicha jalb etilgan tashkilot tomonidan aniqlanadigan tanlov savdolari predmetining hisoblab chiqilgan qiymati.

Baholovchi guruh - ofertani baholash uchun tanlov komissiyasi tomonidan tashkil etiladigan vaqtinchalik organ.

Baholovchi komissiya - erkin savdoda xaridni amalga oshirishda buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan doimiy yoki vaqtinchalik organ.

Baholash mezonlari - talabgorlarni tanlash hamda ofertani baholash va savdolar g'olibini aniqlash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar.

Buyurtmachi - investor yoki tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda investor tomonidan belgilangan yuridik shaxs.

Talabgorning malakasini oldindan aniqlash - tanlov savdolarida qatnashishga qo'yish uchun talabgorlarni tanlash.

Investor - tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridiga o'z mablag'larini yoki qarz olingan mablag'larni (byudjetdan moliyalashtirishda - nazarda tutilgan mablag'larni) qo'yuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Kapital qurilish - yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, ob'yektlar va asosiy vositalarni mukammal ta'mirlash, shu jumladan loyiha-qidiruv ishlarini bajarish.

Tanlov savdolarida ishtirok etishga buyurtmanomalarni ta'minlash - oferent tomonidan buyurtmachining talabiga ko'ra ular bo'yicha dastlabki majburiyatni bank beradigan bank kafolati, topshiriq, zaxira akkreditivlar, cheklar shaklidagi tanlov savdolari shartlarida nazarda tutilgan istalgan majburiyatning, yoxud ta'minlashning boshqa turlarida ta'minlanishi.

Talabgor - ofertasi savdo tashkilotchisi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar taklif etilgan shartlarda tanlov savdolarida qatnashish niyatini bildirgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Tanlov buyurtmanomasi aksepti - uning yutgan ofertasi e'tirof etilgan holda oferentga yuboriladigan va shartnoma tuzishga taklif hisoblanadigan buyurtmachining yozma bildirishnomasi.

Tanlov komissiyasi - mazkur tanlovni uyushtirish funksiyalarni bajarish uchun buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan doimiy yoki vaqtinchalik organ.

Tanlov savdolari - tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan mezonlar va shartlarga muvofiq tovarning maqbul yetkazib beruvchisini, ishlarni bajaruvchini va xizmatlar ko'rsatuvchini tanlash usuli.

Tanlov savdolari predmeti - tovarlar, ishlar va xizmatlar.

Tanlov savdolari tashkilotchisi - buyurtmachi yoki tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish uchun buyurtmachi tomonidan jalb etiladigan yuridik shaxs.

Tanlov hujjatlari - tanlov savdolarining texnik, moliyaviy, tijorat, tashkiliy tavsiflari va boshqa tavsiflari to'g'risidagi hamda tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish shartlari, tartib-qoidalar to'g'risidagi dastlabki axborot mavjud bo'lgan hujjatlar turkumi.

Tovar - xom ashyo, buyum, konstruksiya, asbob-uskunalarga butlovchi buyumlar, qattiq, suyuq yoki gazsimon holatdagi predmetlar, energiyaning barcha turlari, shuningdek yetkazib beriladigan tovarga qo'shimcha ravishda ko'rsatiladigan xizmatlar, agar ularning qiymati tovar qiymatining o'zidan ortiq bo'lmasa.

Oferent - malaka tanlovidan o'tgan va ofertasi tanlov savdolari tashkilotchisi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan talabgor.

Oferta - tanlov hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq taqdim etilgan tanlov savdolari predmetiga nisbatan talabgorning taklifi;

Shartnomaviy joriy narx - tanlov savdolari natijalari bo'yicha belgilanadigan tanlov savdolari predmeti narxi;

Shartnoma bajarilishini ta'minlash - buyurtmachining talabiga ko'ra tanlov savdolari g'olibi tomonidan ular bo'yicha birlamchi majburiyatni bank o'z zimmasiga oladigan bank kafolati, topshiriq, zaxira akkreditivlar, cheklar shaklidagi, naqd mablag'lardagi depozitlar, yoxud boshqa shakllardagi depozitlar shaklidagi shartnomadagi mavjud majburiyatlar bajarilishining ta'minlanishi.

Qurilishni tayyorlash qurilish ob'yekting maqsadga muvofiqligini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA), ob'yektni loyihalash va qurilishga injener-texnik tayyorgarlik ko'rishdan iborat.

Bevosita qurilish - bu bino va inshootlarni qurib, ko'tarish jarayoni bo'lib, qurilish maydonchalarida bevosita amalga oshiriladi. Shuning uchun qurilish maydonchasini "noldan" qurilish ob'yekting tayyorlik holatigacha bo'lgan bevosita qurilish jarayonining o'ziga tenglashtiriladi.

Qurilish mahsulotining realizatsiyasi - qurilishi tugallangan ob'yektlarni foydalanishga topshirish va ularni belgilangan tartibda buyurtmachiga (investorga) topshirishdir. ob'yektlar buyurtmachiga o'tkazilgach, ular iqtisodiyot balansida asosiy fond sifatida ko'rsatiladi.

Investisiya loyihasi - bu shunday hujjatki, unda kapitalni iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalariga yo'naltirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi ko'zga tutilgan bo'lib, bu chora-tadbirlardan maqsad ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirish va mavjud ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlashdir.

Qurilish loyihasi - bu avvalo u yoki bu ob'yektning qurilishi bilan bog'liq texnik-iqtisodiy asoslash, tushuntirish xati, chizmalar va smetalarni o'z ichiga olgan hujjatlar to'plamidir. tushuntirish xatida loyihaning asosiy g'oyasi va uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari asoslab berilgan bo'ladi.

Investisiya loyihasi - bu shunday hujjatki, unda kapitalni iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalariga yo'naltirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi ko'zga tutilgan bo'lib, bu chora-tadbirlardan maqsad ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirish va mavjud ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlashdir.

Investisiyaning texnologik tuzilmasi – bu qurilish-montaj ishlarini bajarish, asbob-uskunalar, mashinalar va boshqa mehnat vositalarini sotib olish hamda loyihaviy-qidiruv ishlarini amalga oshirish bo'yicha xarajatlarning o'zaro foizlardagi nisbatidir.

Investisiyalarning takror ishlab chiqarish tuzilmasi yangi qurilishlarga qilinayotgan xarajatlardan bilan, faoliyat yuritayotgan korxonani rekonstruksiya qilish, keqaytirish va texnik qayta qurollantirish harajatlari orasidagi shuningdek, asosiy fondlarni eskirishi sababli chiqarilishini qoplash xarajatlari o'rtasidagi o'zaro nisbatni o'zida aks ettiradi.

Tarmoqlararo tuzilma iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari o'rtasida va ularni ichida investisiyalarning taqsimlanishini foizlarda aks ettiradi.

Xududiy tuzilma. Investisiyani xududiy tuzilmasi kapital qo'yilmalarni viloyatlar, shaharlar va respublikaning rayonlari bo'yicha taqsimlanishini ko'rsatadi.

Umumiy iqtisodiy samaradorlik samaraning kapital qo'yilmalarining qiymatiga yoki ishlab chiqarish fondlarining qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi.

Qiyosiy (solishtirma) iqtisodiy samaradorlik qo'yilmalarni quyishda bir variantning ikkinchisidan qanchalik samarali ekanligini taqqoslash va aniqlash yo'li bilan hisoblanadi.

Daromadlilikning ichki me'yori (daromadlilik indeksi) - investisiya loyihalarining turli variantlarini qiyosiy baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich Ye_{ich} diskont meyo'ridan (stavkasidan) iborat bo'lib, keltirilgan samaralar qiymati keltirilgan kapital qo'yilmalar qiymatiga teng bo'ladi.

Diskontlash - turli yillardagi harajatlarni qiyosiy (vaqt bo'yicha) ko'rinishga keltirish. Ob'yekt qurilishi jarayonida turli yillarda (t) sarflangan mablag'larni (K) yil boshiga (t_0) yoki yil ohiriga (T) keltirish.

Investisiya loyihaning tijoriy samaradorligi - loyihani amalga oshirishning uning bevosita ishtiroqchilari uchun qanday moliyaviy oqibatlarga olib kelishini aks ettiradi. Talab qilingan daromad me'yorini ta'minlovchi moliyaviy harajatlardan va natijalarning nisbati sifatida aniqlanadi. Samara sifatida investisiya va operatsion faoliyatdan keladigan va loyihani amalga oshirishning har bir davridagi (hisob-kitob bosqichi - oy, chorak, yil) pul mablag'larining kirimi va chiqimi o'rtasidagi tafovutdan iborat real pul oqimlaridan foydalaniladi. Investisiya loyihasini qabul qilish mezonini - ishtiroqchilarning har biri pul sarflaydigan yoki daromad oladigan har qanday vaqt oralig'idagi real pullarning musbat saldosi.

Solishtirma kapital qo'yilmalar - qurilish mahsulotini o'lchashning natural birligiga keltirilgan kapital qo'yilmalar. Natural birlik sifatida buyumlar va konstruksiyalardagi betonning m^3 lardagi hajmi, ishga tushirilayotgan ob'yektning m^2 lardagi maydoni yoki m^3 lardagi hajmi, ob'yektning mahsulotni o'lchash birliklaridagi quvvati va hokazolar olinishi mumkin. Solishtirma kapital qo'yilmalar qurilish ob'yektini loyihalashdan avval kapital qo'yilmalarning miqdorini avvaldan aniqlash uchun foydalaniladi. Solishtirma kapital qo'yilmalarning qiymati statistik ma'lumotlar

bo'yicha yoki qurilishi ko'zda tutilayotgan ob'yektga o'xshash boshqa ob'yekt bo'yicha olinadi.

Qurilishni intensivlashtirish - ishlab chiqarish hajmining ishlab chiqarishga jalb qilinan mehnat va moddiy resurslar hajmidan ortishi. Intensifikatsiya qurilishning barcha bosqichlariga: ilmiy ishlanmalar, loyihalashtirish, sanoat korxonalaridagi va qurilish tashkilotlaridagi jarayonlarga taalluqlidir. Barcha hollarda ham qurilishni intensivlashtirishning asosi fan-texnika taraqqiyoti bo'lib, uning natijasi esa ijtimoiy mehnat unumdorligining o'sishi bo'lishi kerak. Bunga esa mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil qilishning ilg'or shakllaridan foydalanish, mukammalroq mashina va mexanizmlarni qo'llash, ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakllariga o'tish orqali erishish mumkin. Ishchilarning o'z mehnatlari natijalaridan moddiy manfaatdorligini oshirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlari sharoitida qurilish korxonalari qurilishni intensivlashtirish zahiralari topish va ulardan foydalanishdan moddiy manfaatdordirlar.

Investisiya kompleksi - investisiya faoliyatini ta'minlovchi tashkilotlar, korxonalar va firmalar majmuasi. Investisiya kompleksi tarkibiga quyidagilar kiradi:

investorlar vazifasini o'tovchi davlat organlari, munisipal tuzilmalar, aksionerlik tashkilotlari, xususiy firmalar va tadbirkorlar, turli banklar. Pudrat shartnomasini tuzishda investorlar buyurtmachilar vazifasini o'taydi; shartnomalar pudrat tanlovlari (tenderlar) natijasida imzolanishi mumkin;

investisiya maqsadlarini bevosita amalga oshiruvchi pudratchilar, ular ichida buyurtmachilar bilan bevosita shartnomalar to'zuvchi bosh pudratchilar hamda shartnomalar bo'yicha bosh pudratchilar bilan ishlovchi quyi pudratchilar;

quruvchilarning qurilishning moddiy-texnik bazasiga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlovchi tashkilotlar. qurilishning moddiy-texnik bazasi tarkibida qurilish tashkilotlarining balansida bo'lgan korxonalar, qurilish materiallari sanoati tarkibidagi korxonalar, qurilish mashinasozligi korxonalari va mahsulotlari qurilishda foydalaniladigan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalar;

transport va qurilish jarayonini ta'minlash bilan bog'liq boshqa xizmatlarni ta'minlovchi korxonalar va vositachi tashkilotlar;

bo'lajak ob'yektlarning loyiha modellarini ishlab chiquvchi hamda qurilish sohasida fan-texnika taraqqiyoti g'oyalarini amalga oshiruvchi loyiha va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari;

qurilish uchun kadrlar tayyorlovchi turli pog'onadagi o'quv tashkilotlari (shu jumladan ishchilarni bevosita ish joylarida tayyorlash tizimi);

qurilish sohasida axborot ta'minotini amalga oshiruvchi tashkilotlar (masalan, "Stroyizdat" nashriyoti, qurilish gazeta va jurnallarining tahririyatlari, ixtisoslashgan kutubxonalar, axborot markazlari, davlat statistika organlari).

Boshqaruv – bu chuqur tahlilni, ishlanmalarni va ma'lum maqsadlarni to'g'ri qo'yishga qaratilgan, makon va zamonda to'xtovsiz amalga oshiriladigan maqsadga yo'naltirilgan jarayondir. Lekin boshqaruv biror narsa yoki birov tomonidan boshqarilsagina vujudga keladi. Bu asnoda boshqarish haqidagi fan, boshqaruv sub'yekti va ob'yekti tushunchasini kiritadi.

Boshqaruv sub'yekti - bu jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lib, hukumat organlari tomonidan va amaldagi qonunchilik bo'yicha berilgan vakolatlar bo'yicha ta'sir o'tkazish imkonitiga ega bo'ladi.

Boshqaruv ob'yekti – bu boshqaruv sub'yektining ta'sir o'tkazish (boshqaruv ta'siri) ob'yekti bo'lib, huquqiy va jismoniy shaxslar, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, ishlab chiqarish va xo'jalik tizimlari boshqaruv ob'yekti bo'la oladi.

Tizim – bu bir butunlikni tashkil qiladiki o'zaro bog'liq bo'lgan elementlarning tartiblangan kompleksidir.

Ilmiy texnik-taraqqiyot — bu jamiyat ishlab chiqarish kuchlari darajasini ko'rsatib beruvchi ko'rsatkich bo'lib, tarmoqlar va zamonaviy ishlab chiqarish qurollari bilan qurollanganligi va mehnat predmetlarini hamda fanning samaradorligini aniqlab beradi.

Sanoatlashtirish — bu ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlarini qurilish maydonchalarida zavod muhitiga ko'chirish demakdir. qurilish ishlab chiqarishini sanoatlashtirishga tipik misol bo'lib, o'z vaqtida tashkil qilingan va hozir ham amal qilayotgan uy-qurilish kombinatlari temur-beton mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi zavodlar qurilish konstruksiyalarini ishlab chiqaradigan kombinatlar hisoblanadi.

Ish mexanizatsiyasi koeffitsiyenti — mexanizasion yo'l bilan bajariladigan ish hajmining umumiy bajarilgan ish hajmiga nisbati.

Mehnatning mexanik qurollanganlik koeffitsiyenti — mexanizasion yo'l bilan bajarilgan ish hajmining umumiy bajarilgan ish hajmiga nisbati

Ishning energetik qurollanganlik koeffitsiyenti — qurilishda ishlatiladigan mashina va mexanizmlar dvigatellarining umumiy quvvatining yillik qurilish montaj ishlari hajmiga nisbati. Ushbu ko'rsatkich kVt'da o'lchanadi.

Institutlar — birlamchi tadqiqotlarga ixtisoslashgan va fanning ma'lum bir sohasidagi rivojlanish uchun javobgar tashkilot.

Ilmiy tadqiqot institutlari — ikqilamchi tadqiqiy ishlariga ixtisoslashgan va ma'lum bir tarmog'i ishlab chiqarish yoki ilmiy texnik darajasiga javobgar bo'lgan tarmoqli tashkilot.

Loyihalash, konstruktorlik, texnologik tashkilotlar, texnologik iqtisodiy tadqiqot institutlari — konstruktorlik texnologik loyihalash yoki tashkiliy ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mahsulot samaradorligi, texnologiyasi ishlab chiqarishni tashkil etish va loyihalarga javobgar hisoblanuvchi tarmoqli tashkilotlar. Bu yerga u yoki bu institutlarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar kirmaydi.

Korxonalarni texnik qayta jihozlash - qayta ta'mirlash elementlaridan biri, uchastkalar, syexlardagi asosiy fondlarning faol qismining texnik va iqtisodiy darajasini yuksaltirishga, yangi texnika, texnologiyalar, yangi materiallar va energetika resurslaridan foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarishni kengaytirish - yangi syexlar qurish yangi qurilish-montaj boshqarmalarini tashkil qilish, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarni qayta tashkil qilish, bo'linma va filiallar tashkil qilish va boshqa mavjud ishlab chiqarish quvvatlariga taalluqli bo'lmagan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish.

Korxonalarni qayta ta'mirlash - asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan syex va ob'yektlarni ishlab chiqarishni fan, texnika va ilg'or ishlab

chiqarish yutuqlaridan foydalanish asosida takomillashtirish maqsadida qayta ta'mirlash.

Standartlashtirish - standartlarni belgilash va qo'llash jarayoni. Standart - boshqa shunga o'xshash ob'yektlarni taqqoslash uchun kerak bo'ladigan namuna, etalon, modeldir. Me'yoriy-texnik hujjatlardagi standartlar standartlashtirilayotgan ob'jektga qo'yiladigan va bajarilishi majburiy bo'lgan me'yoriy talablar, qoida va shartlar majmuasini belgilaydi.

Ilmiy-texnik salohiyat - loyiha ishlanmalari va ishlab chiqarish qarorlarining texnik saviyasini oshirishning prinsipial imkoniyatlari. Bu qarorlarga erishish, odatda, ma'lum bir tadqiqotlar va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Innovation strategiya - korporatsiyaning maqsad va vazifalarini aniqlash, bu vazifalarni bajarishning prinsipial siyosati va rejalarini belgilab beruvchi sistemali, yaxshi tayyorlangan tashkiliy sharoitlar majmuasi.

Innovation qaror (yechim) - korxonada (qurilish tashkilotida) yangiliklardan foydalanishni joriy qilishga oid boshqaruv qarorini qabulqilishning kompleks jarayoni. quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: uyushtirilgan yangiliklar (ehtiyoj haqida xabardor qilish, anglatish), yangilikka oid qarorlarni qabulqilish (axborotlarni maqsadli ravishda to'plash va tanlab olish), yangiliklarni o'zlashtirish (moslashuv, mustahkamlash).

Korxonaning innovation salohiyati - qurilish tashkiloti va korxonasining yangiliklarni joriy qilish yordamida bozor sharoitlarida faoliyatning samaradorligini oshirish maqsadida korxonaning o'ziga xos xususiyatlari bilan (quyi tizimlarning sifati hamda tashqi va ichki aloqalarning sifati bilan) belgilanadigan rivojlanish qobiliyati. Korxonaning innovation salohiyati tashkilotning ichki innovatsiya jarayonidagi barcha bosqichlarning (ijtimoiy mehnat va resurslarning sarf me'yorlari asosida) bir maromda kechishiga imkon beradi

Innovatsiya jarayoni - yangilik g'oyasini rivojlantirishdan uning pirovard iste'molchi tomonidan iste'mol qilinishigacha bo'lgan mantiqiy izchillikda harakatlanuvchi jarayon. Bu yangilikning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish-iqtisodiy va ijtimoiy-tashkiliy salohiyatini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish jarayonidir. Innovatsiya jarayonining quyidagi bosqichlari mavjud - yangilikni yaratish, uni o'zlashtirish, tarqatish, takomillashtirish va undan foydalanishni to'xtatish.

Innovatsiya - qurilish mahsulotiga bo'lgan bozor talabining o'zgarishi natijasida yangi mehnat vositalaridan foydalanish (texnik yangiliklar), texnologik, tashkiliy, boshqaruv, ijtimoiy va boshqa o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda qurilish ishlab chiqarishi tizimiga o'zgarishlar kiritish jarayoni.

Resurslar tushunchasi - bu pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, qonunlar, joriy va kelgusidagi imkoniyatlar, daromadlar va ularning manbalaridir. Resurslar tabiiy, moddiy, iqtisodiy, moliyaviy resurslar, mehnat resurslari va hokazolar bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish salohiyati - bu korxona, tashkilot va butun tarmoqning berilgan resurslar asosida u yoki bu hajmdagi mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yoki qobiliyatidir.

Asosiy fondlar - ham moddiy ishlab chiqarish sohasida (asosiy ishlab chiqarish fondlari), ham noishlab chiqarish sohasida (noishlab chiqarish asosiy fondlari) band bo'lgan material-moddiy qiymatlar majmuasi.

Jismoniy eskirish - asosiy fondlarning ekspluatatsiya jarayonida yoki bekor turish natijasida o'zining dastlabki xarakteristikalarini asta-sekin yo'qotishidir.

Amortizatsiya me'yori - yillik amortizatsiya summasining asosiy fondlar qiymatiga nisbati (foizlarda).

Dastlabki qiymat - asosiy fondlarni sotib olish paytidagi harajatlar summasi (yetkazib berish, o'rnatish yoki montaj harajatlari bilan birga).

Tiklash qiymati - asosiy fondlarning bugungi kundagi inflyasiya, qayta baholash va hokazolarni hisobga olgan holda hisoblangan qiymati.

Qoldiq qiymat - bu asosiy fondlarning dastlabki yoki tiklash qiymati bilan eskirish summasi o'rtasidagi farqdir.

Ekstensiv ko'rsatkichlar - asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning vaqt bo'yicha ko'rsatkichlari;

Intensiv ko'rsatkichlar - asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning unumdorlik (quvvat) ko'rsatkichlari;

Integral ko'rsatkichlar - ekstensiv va intensiv omillarning jami ta'sirini, ya'ni ekstensiv va intensiv ko'rsatkichlarning hosilasini hisobga oluvchi ko'rsatkichlar.

Fond qaytimi - ishlab chiqarilgan mahsulotning asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati birligiga to'g'ri keladigan miqdori;

Fond sig'imi - fond qaytimi ko'rsatkichiga teskari ko'rsatkich;

Fondlarning rentabelligi - asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati birligiga to'g'ri keladigan foyda miqdori.

Aylanma fondlar - bir ishlab chiqarish siklida to'liq foydalaniladigan aylanma vositalarning bir qismi bo'lib, shu sikldan so'ng o'zining dastlabki natural-moddiy shaklini yo'qotib, o'z qiymatlarini to'laligicha hosil bo'layotgan mahsulotga o'tkazadi.

Muomala fondi - bu korxona yoki tashkilotning pul mablag'lari hamda hisob-kitoblardagi mablag'lardir. Demak, korxonaning aylanma vositalari - uning aylanma va muomala fondlari yig'indisidir.

Ishlab chiqarish zahiralari - bu ishlab chiqarish jarayonining o'zluksizligini ta'minlashga mo'ljallangan, ammo hali ishlab chiqarish jarayoniga joriy qilinmagan mehnat predmetlaridir (xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, tayyor mahsulotlar omborlari yoki poligonlaridagi buyumlar va konstruksiyalar, ehtiyot qismlar va boshqalar).

Ishlab chiqarish jarayonidagi aylanma fondlar - bu avvalo tugallanmagan ishlab chiqarish (qurilish) va kelgusi davr harajatlaridir (vaqtinchalik bino va inshootlar qurishga, asbob-uskunalarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, sinovlar o'tkazish va hokazolarga sarflanadigan harajatlar).

TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON JURNALLAR VA INTERNET SAYTLAR

TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON JURNALLAR VA INTERNET SAYTLAR

Elektron jurnallar

3. Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar. Ilmiy-elektron jurnal. www.iqtisodiyot.uz
4. Ekonomicheskoye obozreniye. www.cer.uz
5. Journal of Marketing. www.ama.org
6. Journal of Marketing Research. www.ama.org
7. Journal of International Marketing. www.ama.org

Internet saytlar

1. www.digitalmetricsplaybook.com
2. www.marketo.com
3. www.bizneslab.uz
4. www.study.com
5. www.inderscience.com
6. www.free-management-ebooks.com
7. www.economics.ru
8. www.ved.ru
9. www.ser.uz
10. www.uza.uz
11. www.ifmr.uz
12. www.lex.uz
13. www.ziyonet.uz
14. www.marketing.ru
15. <http://www.gov.uz>
16. www.davarx.ru

I.Q.Sirojiddinov

Kapital qurilish iqtisodiyoti

Fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua

Ma'ruza mashg'uloti uchun

Namangan: NamMQI, 2024 yil, 218 bet.